

ISSN 2010-703X

Ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-amaliy jurnal



EKOLOGIYA

№3 [11],
2024

XABARNOMASI | SINCE 1995

ЭКОЛОГИЧЕСКИЙ
ВЕСТНИК УЗБЕКИСТАНА

ECOLOGICAL HERALD
OF UZBEKISTAN

📷 A.Zokirov
📍 Botanika bo'g'i

TABIAT MUHOFAZASI
VA TURIZM RIVOJI –
DOLZARB MASALA
3-SAHIFA

EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH SOHASIDA
QILINGAN ISHLAR HAMDA
KELGUSIDAGI REJALAR HAQIDA
MA'LUMOT BERILDI
16-SAHIFA

TOSHKENTDA YANGI
YASHIL BOG' LOYIHASI
TAQDIMOTI BO'LIB O'TDI
27-SAHIFA

TAHRIR HAY'ATI TARKIBI:

Abduxakimov Aziz Abdukaxarovich – O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri, kengash raisi

Alimov Zikrilla Bobamuratovich – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti «Atmosfera havosini muhofaza qilish» laboratoriyasi mudiri, texnika fanlari doktori

Allaberdiev Rustamjon Xamrayevich – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ekologiya fakulteti dekani, biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Aminov Xamza Xusanovich – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktori o'rinbosari, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Arabov Saidqul Amirovich – O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti direktori, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Axmedova Zaxro Raxmatovna – O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Mikrobiologiya instituti "Tabiatni muhofaza qilish biotexnologiyalari" laboratoriyasi mudiri, biologiya fanlari doktori, professor

Buriyev Salimjan Samedjanovich – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktorining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha o'rinbosari, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi

Erkaboyev Furqat Ilyasovich – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti "Suv resurslarini muhofaza qilish texnologiyalari" laboratoriyasi mudiri, texnika fanlari doktori

Juliyev Muxiiddin Komilovich – "TIQXMMI" MTU tabiiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Karimov Farxod Isomiddinovich – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Kazbekov Jusipbek Sdikbekovich – O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri o'rinbosari, texnika fanlari nomzodi

Madrimov Rajabboy Masharipovich – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti «Yer resurslarini muhofaza qilish» laboratoriyasi mudiri, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Mirzayeva Adolat Usmonboyevna – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti Umumiy parazitologiya laboratoriyasi katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Murodov Shuxrat Odilovich – Qarshi muxandislik-iqtisodiyot instituti professori, texnika fanlari doktori

Nishonov Bahriddin Erkinovich – Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti «Yer usti suvlari sifati tadqiqoti» laboratoriyasi mudiri, texnika fanlari nomzodi

Radkevich Mariya Viktorovna – "TIQXMMI" MTU Ekologiya va suv resurslarini boshqarish kafedrası professori, texnika fanlari doktori

Salixov Jasur Shavkatovich – Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishi universiteti (Central Asian Green University) rektori, iqtisod fanlari doktori, dotsent

Samiyev Luqmon Nayimovich – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori

Turaboyev Akmal Normuminovich – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ekologiya kafedrası professori, biologiya fanlari doktori, professor

Urinova Adolat Abdivasiyevna – Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti «Bioxilmaxillikni saqlash» laboratoriyasi mudiri, biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Xamzayev Abdushukur Xudoykulovich – O'zbekiston Ekologik partiyasi Markaziy Kengashi Ijroiya qo'mitasi raisi, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Yuldashev Farxod Talazovich – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim

Sherimbetov Xalilulla Satimovich – O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi boshqarma boshlig'i, texnika fanlari nomzodi



Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza
qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi

Tahririyat kengashi raisi:

Abdulkimov Aziz Abdulkaxarovich,
Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish
va iqlim o'zgarishi vaziri

Ilmiy muharrir:

Pulatov Baxtiyor Alimovich,
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish
texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktori,
texnika fanlari doktori

Mas'ul muharrir:

Mamirov Suyundik Maxammatovich

Dizayner:

Mamajonov Ulug'bek Rustam o'g'li

Fotomuxbir:

Zokirov Anvar Nematovich

Jurnal har chorakda kamida
bir marta chop etiladi.

Jurnal 1995-yildan chiqa boshlagan.

Nashr O'zbekiston Respublikasi
Oliy attestatsiya komissiyasining
ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan 2021-yil
8-oktabrda 0515-sonli guvohnoma
bilan qayta ro'yxatga olingan.

Jurnalga qabul qilingan ilmiy maqolalar
o'zlashtirilgan matnlarni aniqlaydigan
"Antiplag.uz" tizimida tekshirilgan.

Obuna indeksi: 910

Bosmaxonaga topshirildi: 23.10.2024-yil
Ofset bosma usulida bosildi.
Hajmi 11,6 bosma taboq.
Bichimi 60x84 1/8. Buyurtma № 10.
Adadi 450 nusxa.

«SMARTPACK PRINT» MCHJ QK
bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri,
Taraqqiyot ko'chasi, 2-uy.

MUNDARIJA

- 03** Tabiat muhofazasi va turizm rivoji –
dolzarb masala
- 05** O'zbekistonda chang bo'ronlariga qarshi kurashish
va ularning oqibatlarini yumshatish bo'yicha
2024–2030–yillarga mo'ljallangan miliy dastur tasdiqlandi
- 06** BMT O'zbekiston tashabbusi bilan o'rmonlarni
qayta tiklash va yer degradatsiyasiga qarshi
kurash bo'yicha rezolyutsiyani qabul qildi
- 07** O'zbekiston ekologiya va atrof-muhitni muhofaza
qilish sohasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirmoqda
- 08** O'zbekiston va AQSh o'rtasida iqlim o'zgarishi
sharoitida inklyuzivlikka erishish bo'yicha
hamkorlik masalalari muhokama qilindi
- 09** Germaniya O'zbekistonni iqlimga chidamli
iqtisodiyotga o'tishda qo'llab-quvvatlaydi
- 10** Saylovlar xalqaro standartlar va milliy
qonunchilikka to'la muvofiq holda o'tkaziladi
- 11** Yashil va musaffo hayot, sog'lom kelajakni
istaganlarning barchasi biz tomonda
- 14** Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik
barqarorlikni ta'minlash – pirovard maqsad
- 16** Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish
sohasida qilingan ishlar hamda kelgusidagi
rejalar haqida ma'lumot berildi
- 18** O'zbekistonda oziq-ovqat tizimlarining
yerdan foydalanish va qayta tiklashga
ta'sirini baholash dasturi ishga tushirildi
- 20** O'zbekistonda suv ifloslanishining oldini
olish va sanoat chiqindixonalari xavfsizligini
ta'minlash choralari kuchaytirilmoqda
- 22** Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo ekologik muammolarni
hal qilish borasidagi imkoniyatlarini birlashtiradi
- 23** Orolbo'yi ekologiyasini yaxshilash borasidagi
xalqaro hamkorlik mustahkamlanmoqda
- 24** Orolbo'yi tabiatini o'rganishga doir
Xalqaro ilmiy ekspeditsiya
- 26** Global ekologik muammolar aks etgan
20 dan ortiq haykaltaroshlik asarlari yaratildi
- 27** Toshkentda yangi yashil bog' loyihasi
taqdimoti bo'lib o'tdi
- 28** Ekologik loyihalarning situatsion xaritalarini
tasdiqlashning elektron mexanizmi joriy etildi
- 29** "Toza havo" oyiligi: Toshkentda avtomobillar
ekologik nazoratdan o'tkazildi
- 29** "World cleanup day":
respublikamiz hududlari chiqindilardan tozalandi
- 30** Toshlarda aks etgan joziba
- 31** Termiz hayvonot bog'ida xongul bolaladi
Ustyurt qo'yi ko'paymoqda

ILMIY MAQOLALAR

- 32 X.Gapporov, R.Qulmatov.**
Iqlim o'zgarishi sharoitida Amudaryo havzasi suv resurslarining miqdor va sifat ko'rsatkichlarini baholash (O'zbekiston hududi)
- 41 L.Samiyev, J.Akramov.**
Sug'oriladigan hududlarda yer osti suvlari sathi va minerallashuvini geografik axborot tizimidan foydalangan holda baholash (Buvayda tumani misolida)
- 46 U.Uzbekov, A.Arifjanov, Sh.Akmalov, L.Samiyev.**
Quantitative analysis of snow cover dynamics in the mountainous regions of Bustanlik during 2017-2023
- 51 A.Khaydarov, D.Atakulov, U.Uzbekov.**
Comparative analysis of water use efficiency in the dry regions of Israel and Uzbekistan
- 59 X.Aminov, O.Ergashev, Sh.Movlonova, A.Baxriev, M.Sobirov.**
Sanoat korxonalari atrofidagi manzarali daraxtlarning fiziologik holatini baholash
- 64 Ф.Юлдашев, Х.Юлдашева.**
Способ снижения себестоимости и расширения ассортиментов сырья в производстве антибиотиков
- 67 Г.Меликулова, Х.Мирзакулов, Р.Тожиев.**
Безотходная технология кормового фосфата кальция на основе экстракционной фосфорной кислоты из фосфоритов Центральных Кызылкумов
- 80 З.Ахмедова, А.Ибрагимов, Т.Шонахунов, Т.Хусанов, З.Хамраева, М.Яхяева.**
Оценка степени загрязненности и базовой плодородности засоленных почв с использованием солеустойчивых культур микроорганизмов
- 87 Ж.Герц.**
Расширение возможностей и внедрение программного обеспечения SuperMAP в Узбекистане

EKOOLAM

- 90** 1. Yog'ingarchilik qishloqlarda emas, shaharlarda nega ko'proq bo'ladi?
2. Hindiston plastik chiqindilar bo'yicha birinchi o'rinda
- 91** 3. Global isish tufayli Antarktida o'simliklar bilan qoplanga boshlandi
4. Zimbabveda oziq-ovqat inqirozi tufayli 200 ta fil otiladi
- 92** 5. Toshqin Nigeriya hayvonot bog'ini vayron qildi
6. Atlantika okeanidagi orollarda tropik o'rmonlarning izlari topildi
7. Fransiyada dunyodagi eng katta oltin baliq nobud bo'ldi
- 93** 8. Qurg'oqchilik tufayli Amazonka ekotizimi xavf ostida
9. Ko'zgu daraxtlarning o'sishini tezlashtirishga yordam beradi
- 94** 10. Yovvoyi hayvonlar soni 50 yil mobaynida 73 foizga kamaydi
11. Iqlim o'zgarishi tufayli yalqovlar yo'qolib ketish xavfi ostida
12. LED yoritgichli daraxt uyda energiya ishlab chiqaradi
- 95** 13. Olimlar Jomolungma cho'qqisi nega bunchalik balandligini aniqlashdi
14. Plastik chiqindilarning okeanlarda yo'qolishi siri aniqlandi
15. Britaniyalik olimlar fanga noma'lum minglab o'simlik turlari mavjud 33 ta hududni aniqladi
- 96** 16. Yomg'ir suvidan foydalanish suvni tejashga yordam beradi
17. Musiqa o'simliklarning o'sishini tezlashtiradi



TABIAT MUHOFAZASI VA TURIZM RIVOJI – DOLZARB MASALA

Prezident Shavkat Mirziyoyev 19-sentabr kuni atrof-muhitni muhofaza qilish va turizm sohalaridagi takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Hozirgi kunda havoni musaffo saqlash, ekologik hodisalarning ta'sirini kamaytirish tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Shu bois bu borada ikkita dastur ishlab chiqildi.

Birinchisi – Chang bo'ronlariga qarshi kurashish va ularning oqibatlarini yumshatish bo'yicha 2024-2030-yillarga mo'ljallangan milliy dasturdir. Bu hujjatda “Yevro-4” standartidan past toifadagi yoqilg'ini sotish va undan foydalanishni bosqichma-bosqich to'liq taqiqlash nazarda tutiladi. Buning uchun Buxoro va Farg'ona neftni qayta ishlash zavodlari yuqori sifatli yoqilg'i ishlab chiqarish bo'yicha modernizatsiya qilinadi.

Ikkinchisi – Toshkent shahrida atmosfera havosi sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi bo'lib, unga ko'ra, kelgusi 5 yilda poytaxtimiz va unga tutash Toshkent viloyati tumanlarida 441 gektar “yashil belbog” va bog'lar tashkil qilinadi.

Sanitar tozalash ishlarini tartibga solish maqsadida mavjud markaz negizida Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligini tuzish taklif etilmoqda. Sanitar tozalash korxonalarining samaradorlik ko'rsatkichlariga qarab, uchta toifaga ajratgan holda reyting tizimi joriy qilinadi.

Yangi quriladigan, balandligi 12 metrdan yoki umumiy maydoni 500 kvadrat metrdan ortiq bo'lgan binolarni loyihalashtirishda unga tutash hududlarning kamida 25 foizini ko'kalamzorlashtirish talabi qo'yiladi. Shuningdek, atrof-muhitga zarari ko'p sanoat korxonalari ham “yashil belbog”lar barpo etish majburiyatini oladi.

Ekologik huquqbuzarliklarning oldini olish, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish masalalariga ham e'tibor qaratildi. Faol va jonkuyar insonlarni rag'batlantirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan ekolog" faxriy unvonini ta'sis etish taklifi bildirildi.

Atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilikning axborot olish imkoniyati, ishtiroki va odil sudlovga erishish imkoniyati to'g'risidagi Orxus konvensiyasiga qo'shilish masalasi ko'rib chiqildi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga qurilish maydonlarida atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya qilmaslik bo'yicha modda kiritish maqsadga muvofiqligi aytiladi. Shuningdek, daraxtlarni kesish va qasddan quritish, darvo o'zanlaridan noqonuniy qumshag'al qazib olish, chiqindilarni belgilanmagan joylarga tashlash kabilar uchun jarimalarni oshirish va qat'iyalashtirish choralari ko'riladi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi qarori bilan respublikada ekologik markirovkalash tizimi joriy etilgan. Endi ISO 14024 xalqaro standartiga muvofiq, "Yashil belgi"



nomi ostida mahsulot va xizmatlarni ixtiyoriy ekologik markirovkalash yo'lga qo'yiladi. 2 ming 336 ta xo'jalik yurituvchi subyektlarda avtomatik monitoring stansiyalari, chang-gaz tozalash uskunalar va suv tozalash inshootlarini o'rnatish bo'yicha tarmoq jadvallari tasdiqlanadi.

Ekologiya vazirligi huzurida jamoatchilik nazorati ostida boshqariladigan va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan "Yashil xayriya jamg'armasi" tashkil etiladi. Elektron xarid ilovalarida "Yashil to'lov" ixtiyoriy ustama turi ochiladi.

Sohadagi yana bir muammo yovvoyi hayvonlarni asrash bilan bog'liq. Ularni xonadonlarda boqish huquqiy jihatdan tartibga solinmagan. Shu bois endi yovvoyi hayvonlarni uy sharoitida, sirk va shapitolarda saqlash hamda tomoshalarda foydalanish taqiqlanadi. Jismoniy shaxslar ixtiyoridagi hamda sirkalarda saqlanuvchi bunday jonzoqlar hayvonot bog'lari-dagi reabilitatsiya markazlariga, okeanariumlar, pitomnik va ilmiy-tadqiqot muassasalariga topshirishi belgilanmoqda.

Taqdimotda tibbiy turizmni rivojlantirish chora-tadbirlari ham muhokama qilindi.

Shu maqsadda O'zbekiston bu yo'nalishda Markaziy Osiyoning "chorlovchi nuqtasi" sifatida targ'ib qilinadi. "Tibbiy xizmatlar mehmondo'stligi" dasturi amalga oshiriladi. Tibbiy va sog'lomlashtirish muassasalari faoliyati rag'batlantirilib, ularning yagona reyestri ishga tushiriladi. Mehmonxonalar kabi yulduzli sanatoriylar faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Davlatimiz rahbari bular bo'yicha hujjat loyihalarini puxta ishlab chiqish va ijrosini samarali tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.



O'ZBEKISTONDA CHANG BO'RONLARIGA QARSHI KURASHISH VA ULARNING OQIBATLARINI YUMSHATISH BO'YICHA

2024-2030-YILLARGA MO'LJALLANGAN MILIY DASTUR TASDIQLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Chang bo'ronlariga qarshi kurashish va atmosfera havosi sifatini yaxshilash bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" qaror qabul qildi.

Unga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida chang bo'ronlariga qarshi kurashish va ularning oqibatlarini yumshatish bo'yicha 2024-2030-yillarga mo'ljalangan milliy dastur tasdiqlandi.

Quyidagilar Milliy dasturning asosiy yo'nalishlari etib belgilandi:

- 2025-2028-yillarda chang bo'ronlarini prognoz va monitoring qilish tizimini takomillashtirish hamda aholini barvaqt ogohlantirish tizimini yo'lga qo'yish;
- chang va qum bo'ronlari oldini olish va oqibatlarini yumshatishda ilg'or texnologiyalarni joriy etish hamda hududlarda yashil qoplamalarni kengaytirish;
- qurilish maydonlarida chang va qum zarrachalarining havoga ko'tarilishini bartaraf etish;
- 2026-yilga qadar mavjud yaylovlarning 30 foizini, 2028-yilga qadar – 60 foizini hamda 2030-yilga qadar – to'liq geobotanik holatini inventarizatsiyadan o'tkazish, geobotanik jihatdan tekshirish va ularning geobotanik xaritalarini tuzish;
- chang bo'ronlariga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish;
- 2028-yilga qadar kuchli chang bo'ronlari hosil bo'lish sur'atlarini hozirgi holatiga nisbatan 50 foizga qisqartirish;
- chang bo'ronlariga qarshi kurashishga qaratilgan ekologik ta'limni kuchaytirish.

Vazirlar Mahkamasi 2024-yil 1-dekabrda qadar Milliy dasturni 2025-2026-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni tasdiqladi.

2025-yil 1-yanvardan boshlab Toshkent shahrining 12 ta tumanida fon monitoringini amalga oshirish uchun avtomatlashtirilgan kichik stansiyalarni o'rnatish ishlari boshlanadi.

2026-yil 1-yanvardan boshlab aholining keng qatlamlari va jamoatchilikni atmosfera havosining sifati bo'yicha ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlash maqsadida Toshkent shahri hududida o'rnatilgan maxsus monitor va tablolarida majburiy ravishda atmosfera havosining ifloslanish darajasi hamda gidrometeorologik ma'lumotlarni e'lon qilib boradi.

Chang bo'ronlariga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlar mintaqaviy yondashuv asosida muvofiqlashtirib boriladi.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan muhokama qilgan holda Yashil Markaziy Osiyo fondi va Markaziy Osiyo iqlim masalalari markazini tashkil etishning konseptual asoslari ishlab chiqiladi.

Qarorga ko'ra, 2030-yildan boshlab Toshkent shahar va unga tutash Toshkent viloyatining hududlarida joylashgan isitish va elektr energiya ishlab chiqarish korxonalariga yoqilg'i sifatida mazutdan foydalanish taqiqlanadi. 2025-yilning kuz-qish mavsumidan boshlab zaxira yoqilti sifatida mazutdan foydalanishga faqat Vazirlar Mahkamasining har yili kuz-qish mavsumi oldidan chiqariladigan qarori asosida ob-havo va texnologik rejimlardan kelib chiqqan holda yo'l qo'yiladi.

Toshkent shahriga tutash tumanlarda joylashgan 1,2 mingdan ortiq issiqxonalarda foydalanilayotgan ko'mir yoqilg'isining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida chang-gaz tozalash uskunalari o'rnatiladi hamda bunday uskunalarini o'rnatish uchun issiqxona xo'jaliklariga subsidiya ajratish mexanizmi joriy qilinadi.

2025-2030-yillar davomida Toshkent shahar va unga tutash Toshkent viloyatining hududlaridagi jami 441 gektar yer maydonlarida "yashil belbog" va "yashil bog'lar" tashkil qilinadi.

2025-yildan boshlab "Yevro-4" standartidan past ekologik toifadagi motor yoqilg'isidan foydalanish va sotish bosqichma-bosqich cheklanadi.

Qaror bilan Toshkent shahrida atmosfera havosi sifatini yaxshilashga qaratilgan kechiktirib bo'lmas chora-tadbirlar dasturi ham tasdiqlandi.

Unga ko'ra:

- Toshkent shahrining diqqatga sazovor ko'chalarida avtotransport vositalaridan xoli hududlarni tashkil etish;
- "Shahar – piyodalar uchun" shiori asosida jamoat transportiga har tomonlama ustunlik berilishini ta'minlash;
- Toshkent shahri hamda har bir tumanining ekologik "master-reja"sini ishlab chiqish;
- sanoat korxonalarida zamonaviy chang-gaz tozalash uskunalarini o'rnatish va eskilarini almashtirish ishlarini tashkil etish;
- mikroiqlim mo'tadilligini ta'minlash, atmosfera havosi sifatiga ijobiy ta'sir etish maqsadida sun'iy suv havzalarini barpo etish;
- atmosfera havosi bilan bog'liq xavflar va uning salbiy oqibatlarini yumshatish bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqish hamda zararli ta'sirni kamaytirishga qaratilgan ko'rsatuvlar, ijtimoiy roliklar tayyorlash belgilangan.

BMT O'ZBEKISTON TASHABBUSI BILAN

**O'RMONLARNI QAYTA TIKLASH VA YER
DEGRADATSIYASIGA QARSHI KURASH**

BO'YICHA REZOLYUTSIYANI QABUL QILDI

**Birlashgan Millatlar
Tashkiloti Bosh Assambleyasi
O'zbekiston tashabbusi bilan
"Degradatsiyaga uchragan va
qurg'oq hududlarda barqaror
o'rmonzorlarni barpo etish,
daraxt ekish va ularni
targ'ib qilish – ekologik
muammolarga qarshi
kurashning samarali yechimi"
rezolyutsiyasini bir ovozdan
qabul qildi.**



Hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan, respublikani ko'kalamzorlashtirishga qaratilgan "Yashil makon" umum-milliy loyihasi konsepsiyasiga asoslanadi. Rezolyutsiyada davlatimiz rahbarining Bosh Assambleyaning 78-sessiyasi va BMT Iqlim bo'yicha 28-konferensiyasida bildirilgan iqlim o'zgarishi va yerlarning degradatsiyasiga qarshi kurashish borasidagi asosiy takliflari o'z ifodasini topgan.

Rezolyutsiyaga 100 dan ortiq a'zo davlatlar, jumladan, Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari, Ozarbayjon, Avstriya, Belgiya, Bahrayn, Vengriya, Germaniya, Italiya, Iordaniya, Indoneziya, Qatar, Xitoy, Saudiya Arabistoni, Latviya, Mo'g'iliston, Marokash, O'mon, BAA, Pokiston, Portugaliya, Rossiya, Koreya Respublikasi, Turkiya, Fransiya va dunyoning turli mintaqalarini ifodalovchi boshqa davlatlar hammualliflik qildi.

Qayd etish joizki, rezolyutsiyada o'rmonlarni barqaror boshqarish va daraxt o'tqazishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik afzalliklari har tomonlama qayd etilgan. Ularning biologik xilma-xillikni oshirish, iqlim o'zgarishi va havo ifloslanishi oqibatlarini yumshatish hamda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qo'shgan hissasi, jumladan, kambag'allikka barham berish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi hissasi alohida ta'kidlanadi.



"Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ekologik muammolar, xususan, Orol dengizi mintaqasini "yashil hudud"ga aylantirish, cho'llanishning oldini olish borasida katta ishlar qilinmoqda. Prezidentimiz tomonidan bildirilgan takliflarda aynan shu masalaga alohida e'tibor qaratilgan, – dedi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov. – Bu takliflarning xalqaro darajada e'tiborga olinib, alohida rezolyutsiya qabul qilinishi biz uchun juda katta ahamiyatga ega. Ushbu rezolyutsiya dolzarb ekologik muammolarni hal qilish uchun yurtimizga turli grantlar, ilg'or texnika vositalari, tajribalar olimlarni jalb etish, yirik fondlar, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilishga imkon beradi".

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov dolzarb ekologik muammolarni hal qilish bo'yicha hamkorlikni yanada mustahkamlash maqsadida xorijiy davlatlarning O'zbekistondagi elchilari bilan qator uchrashuvlar o'tkazdi.

O'ZBEKISTON EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDA XALQARO HAMKORLIKNI KUCHAYTIRMOQDA



Koreya Respublikasining O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Von Do Yon bilan uchrashuvda vazir ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik yangi bosqichga ko'tarilayotganini ta'kidlab, KEITI (Koreya atrof-muhit sanoati va texnologiyalari instituti) bilan O'zbekistonda qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shma loyiha muvaffaqiyatli yakunlanganini alohida ta'kidladi. Shuningdek, "Sejin G&E Co. Ltd" kompaniyasi bilan maishiy chiqindi poligonlarida hosil bo'ladigan chiqindi gazidan muqobil elektr energiyasi ishlab chiqarishga qaratilgan qo'shma loyihani amalga oshirish istiqbollari ham qayd etildi.

Marokash Qirolligining O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Muhammad Odil Embarsh bilan uchrashuvda O'zbekiston tomoni turizm sohasida hamkorlikni rivojlantirish va ikki davlat o'rtasida viza tartibini soddalashtirishdan manfaatdor ekanligini bildirdi. Shuningdek, BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasida (COP29) ishtirok etish doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha o'za-

ro anglashuv memorandumini imzolash masalalari ham muhokama qilindi.

Gruziyaning O'zbekistondagi Muvaqqat ishlar vakili David Kotaria bilan o'tkazilgan ikki tomonlama uchrashuv doirasida amaldagi qonunchilikni o'rganish sohasida ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash mexanizmlari, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni boshqarish va eko-turizmni rivojlantirish, Orxus markazini yaratish uchun xalqaro talablarni o'rganish borasidagi hamkorlik to'g'risida kelishuvga erishildi. Ekologiya sohasida oliy ta'lim borasidagi hamkorlik masalalari ham muhokama qilindi. Bu yo'nalishda Gruziya tomoniga Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti ("Green University") hamda Samarqanddagi "Ipak yo'li" xalqaro turizm va madaniy meros universitetida ma'ruzalar, seminarlar va treninglar o'tkazish uchun o'qituvchi va professorlarni jalb qilish taklif etildi.

Mamlakatimizda o'z missiyasini yakunlayotgan Misrning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Amira Fahmi bilan xayrlashuv uchrashuvida O'zbekiston tomoni mamlaka-

timizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ma'lumot berdi. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida ekologik muam-molarga qarshi kurashish bo'yicha qator ekologik tashabbuslar, jumladan, Orol dengizi tubida 2 million gektar maydonda o'rmonzorlar barpo etish, "Yashil makon" umummilliy loyahasini amalga oshirish, Prezident huzurida iqlim markazini tashkil etish va boshqa tashabbuslar haqida ma'lumot berildi. Shuningdek, O'zbekiston va Misr o'rtasidagi ekologiya sohasidagi hamkorlik uchun minnatdorlik bildirilib, ekologik loyihalarni amalga oshirishda tajriba almashish muhimligi ta'kidlandi.

O'tkazilgan barcha uchrashuvlar O'zbekistonning atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish istagini namoyon etdi. Xorijiy hamkorlar bilan birgalikdagi sa'y-harakatlarni kuchaytirish, ekologik loyihalarni amalga oshirish va ilg'or tajriba almashish mintaqadagi ekologik vaziyatni yaxshilash va mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'ZBEKISTON VA AQSH O'RTASIDA IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA INKLYUZIVLIKKA ERISHISH BO'YICHA HAMKORLIK MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligida Ekologiya vaziri Aziz Abduhakimov va AQSh Prezidentining nogironligi bor shaxslarning xalqaro huquqlari bo'yicha maxsus maslahatchisi Sara Minkara o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda Aziz Abduhakimov iqlim o'zgarishi oqibat-lari, ayniqsa, iqlim migratsiyasi, chang bo'ronlari va iqlim bilan bog'liq sog'liq muammolari tobora murakkablashib borayotgan Markaziy Osiyo mintaqasida sezilarli ekan-ligini ta'kidladi. Shuningdek, nogironligi bor shaxslarning huquqlarini ta'minlash masalasiga taalluqli barcha so-halarda iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish choralari ko'rilayotgani alohida qayd etildi.

Yig'ilishda iqlim o'zgarishining nogironligi bor shaxs-larga nomutanosib ta'siri ham muhokama qilindi. A.Abdu-hakimov jamiyatimizning muhim bo'lagi bo'lgan nogiron-ligi bor shaxslarning hissasini hisobga olmasdan turib, barqaror rivojlanishga erishib bo'lmasligini ta'kidladi.



Uchrashuv davomida noqulay muhitdan qochish maqsa-dida nogironligi bor shaxslar sayohat qila olmasligi mum-kinligiga e'tibor qaratildi. Bu yo'nalishda vazir O'zbekiston tashabbusi bilan UNWTONing inklyuziv turizm bo'yicha rezolyutsiyasi qabul qilinganini alohida qayd etdi.

O'z navbatida S.Minkara nogironligi bo'lgan shaxslar uchun turizmning inklyuzivligi va undan foydalanish im-koniyatini ta'minlash muhimligini hamda butun mamlakat bo'ylab tegishli sharoitlar yaratish zarurligini ta'kidladi. AQSh Prezidentining maxsus maslahatchisi bu borada barcha texnik yordam ko'rsatish, jumladan, turli tadbirlar, seminarlar, treninglar va forumlar o'tkazish, shuningdek, nogironligi borlarning muammolari haqida aholini keng xabardor qilishga tayyorligini bildirdi.



Uchrashuv yakunida tomonlar AQSH oliy ta'lim muassasalari, Toshkent shahridagi Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti ("Green University") hamda Samarqand shahridagi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti bilan hamkorlikda ushbu yo'nalishda tadbirlar o'tkazish borasida hamkorlikni yo'lga qo'yishga kelishib oldilar.



GERMANIYA O'ZBEKISTONNI IQLIMG CHIDAMLI IQTISODIYOTGA O'TISHDA QO'LLAB- QUVVATLAYDI

O'zbekiston Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasi hukumatlari o'rtasidagi hamkorlik doirasida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hamda Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) o'rtasida ikkita loyihani amalga oshirish bo'yicha kelishuvlar imzolandi.

Hujjatlariga Ekologiya vaziri Aziz Abduhakimov va GIZning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Yoaxim Frits Samarqandda bo'lib o'tgan ikki tomonlama uchrashuvda imzo chekdi.

Birinchi kelishuv 2024-yilning fevralidan 2025-yilning iyunigacha amalga oshiriladigan "Iqlimni muhofaza qilish strategiyalari bo'yicha siyosiy muloqot va bilimlarni boshqarish" (DIAPOL-CE) loyahasini amalga oshirishga bag'ishlangan.

Ma'lumot uchun, loyiha hamkor mamlakatlarni iqlimga mos, barqaror va ekologik toza iqtisodiyotga o'tish bo'yicha uzoq muddatli ssenariy va strategiyalarni ishlab chiqishda qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

O'zbekistonda loyiha iqlim o'zgarishining qo'riqlanadigan hududlar va botqoqliklarga ehtimoliy salbiy ta'sirini o'rganish uchun Sudochye ko'llari tizimidagi iqlim xavfi tahlilini qo'llab-quvvatlaydi.

Ikkinchi kelishuv Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishi sohasida transchegaraviy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan "Yashil Markaziy Osiyo II bosqich" loyihasi doirasidagi hamkorlikni nazarda tutadi.

Loyihaning asosiy maqsadi loyihaning birinchi bosqichida ishlab chiqilgan va mintaqaning barcha davlatlari tomonidan kelishilgan Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishiga moslashish va yumshatish bo'yicha Mintaqaviy dasturni amalga oshirishdan iborat.

DIAPOL-CE loyahasini amalga oshirish doirasida quyidagi tadbirlar ko'zda tutilgan:

- suvli-botqoq yerlarni saqlash va barqaror boshqarish bo'yicha milliy strategiyani ishlab chiqish;
- mahalliy, milliy va xalqaro tashrif buyuruvchilarni jalb qilish uchun ekoturizmni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish;
- suvli-botqoqli yerlar uchun iqlim xavfi bilan bog'liq holda Sudochye ko'llari tizimining imkoniyatlarini oshirish.

Ushbu loyiha doirasida 2028-yilgacha atmosferaga chiqariladigan issiqxona gazlarini qisqartirish va iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha harakatlar rejasini yangilash bo'yicha dialog uchrashuvlari, ekspert ko'magi tashkil etiladi, shuningdek, qo'shma Markaziy Osiyo siyosiy deklaratsiyasi, iqlim o'zgarishiga duchor bo'lgan hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarining zaifligini baholash metodologiyasi va gender nuqtai nazaridan iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha o'quv moduli kabi hujjatlarni ishlab chiqish rejalashtirilgan.



Ushbu marosim videoroligini tomosha qilish uchun skanerlang

**SAYLOV
2024**
27-OKTABR

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIMI

SAYLOVLAR XALQARO STANDARTLAR VA MILLIY QONUNCHILIKKA TO'LA MUVOFIQ HOLDA O'TKAZILADI

Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida 27-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va hududlardagi vakillik organlariga saylovlar bo'lib o'tishi haqida to'xtaldi. Ishonamanki, saylovlar xalqaro saylov standartlari va milliy saylov qonunchiligiga to'la muvofiq holda, kuchli raqobat muhitida bo'lib o'tadi, deya ta'kidladi.

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti «Xalqaro huquq va ommaviy-huquqiy fanlari» kafedrası dotsenti, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Zarina Isroilova saylov bilan bog'liq fikrlari bilan o'rtoqlashdi:

“

– Bu yilgi saylovlar yangilangan Konstitutsiyamizda belgilab berilgan ijtimoiy-siyosiy muhitda, rivojlangan davlatlardagi kabi ilk bor aralash saylov tizimi asosida o'tkaziladi. Siyosiy partiyalar tomonidan Qonunchilik palatasiga deputatlikka nomzodlar ko'rsatishda ayollarning ulushi kamida 40 foiz bo'lishi belgilab qo'yildi.

”

Aytib o'tish kerakki, yangilangan Konstitutsiyada saylov bilan bog'liq me'yorlar kengaytirildi. 128-moddaga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi.

Saylovlar umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolari saylash huquqiga ega.

Saylov kodeksida esa saylov o'tkazishning asosiy prinsiplari o'rin olgan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida saylov umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish orqali o'tkaziladi. Saylov ochiq va oshkora o'tkaziladi.

Fuqarolar jinsi, irqiy va milliy mansubligi, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, ijtimoiy mavqei, ma'lumoti, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'i nazar, teng saylov huquqiga egadir.

Saylovlar o'tkazish jarayonida saylov okruglari tuziladi. Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o'tkazish uchun yetmish beshta hududiy bir mandatli saylov okrugi tuziladi.

Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o'tkazish bo'yicha bir mandatli saylov okruglari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlarining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan har besh yilda bir marta tuziladi.

Qonunchilik palatasi deputatligiga siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar ro'yxati asosida Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasining butun hududi yagona saylov okrugi hisoblanadi.

Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o'tkazish bo'yicha bir mandatli saylov okruglarining chegaralari Qoraqalpog'iston Respublikasining, viloyatlarning va Toshkent shahrining ma'muriy-hududiy tuzilishi inobatga olingan holda, qoida tariqasida, O'zbekiston Respublikasining butun hududida saylovchilar soni teng holda belgilanadi.

Mahalliy kengashlarga saylov o'tkazish uchun saylov okruglari xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar) kengashlaridagi deputatlik o'rinlariga teng miqdorda tuziladi.

Bir mandatli saylov okrugidan Qonunchilik palatasiga hamda mahalliy kengashlarga bo'lib o'tadigan saylovda har bir saylov okrugidan bitta deputat saylanadi.

Mahalliy Kengashlarga saylov o'tkazish bo'yicha bir mandatli saylov okruglari tegishli hududiy, tuman, shahar saylov komissiyasi tomonidan, qoida tariqasida, saylovchilar soni teng holda har besh yilda bir marta tuziladi. Saylov okruglarining chegaralari viloyatlar, tumanlar va shaharlarning ma'muriy-hududiy tuzilishi inobatga olingan holda belgilanadi.

Bir mandatli saylov okruglarini tuzishda saylov okruglaridagi saylovchilar sonining yo'l qo'yiladigan eng ko'p chetga chiqishi, qoida tariqasida, o'n foizdan oshmasligi kerak.

Bir mandatli saylov okruglarining ro'yxatlari ularning chegaralari, saylovchilar soni va saylov komissiyalarining joylashgan yeri ko'rsatilgan holda saylovdan kamida yetmish kun oldin tegishli saylov komissiyasi tomonidan e'lon qilinadi.

O'za muxbiri **N.ABDURAIMOVA**
yozib oldi.

YASHIL VA MUSAFFO HAYOT, SOG'LOM KELAJAKNI ISTAGANLARNING BARCHASI BIZ TOMONDA



O'zbekiston Ekologik partiyasining yaqinda bo'lib o'tgan V Forumida Saylovoldi dasturi tasdiqlandi. Partiyamizning kelgusi besh yillikka mo'ljallangan mazkur dasturiy platformasidan bugungi va kelajak avlod uchun qulay atrof-muhitni yaratish, xavfsiz va samarali bo'lgan yashil iqtisodiyotga o'tish, bir so'z bilan aytganda mamlakatimizda yashil va musaffo hayot barpo etishning ustuvor yo'nalishlari o'z ifodasini topdi.

Partiyamiz **"Tabiat uchun birlashaylik"** shiori ostida boshqa partiyalardan ko'ra aniq va real tashabbuslar bilan chiqmoqda.

BIRINCHI: AHOLINING QULAY ATROF-MUHITGA EGA BO'LISH HUQUQLARINI RO'YOBGA CHIQRARISH

Partiyamiz shaharlarda bino va ko'p kvartirali uylar qurilishini majburiy tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish mexanizmlarini qonunda aniq belgilashni taklif etyapti. Shaharlarimizda yashil maydonlar va daraxtlar tobora kamayib ketayotgani, bu esa jamoatchilikning haqli e'tirozlariga sabab bo'layotganini ko'rib turibmiz. Misol uchun, ayni vaqtda respublika bo'yicha mingdan ziyod qurilish ob'ektlari atrofi o'rab olingan bo'lib, ularda 50 mingga yaqin daraxtlar taqdiri xavf ostida qolmoqda.

Biz 2030-yilga qadar yirik shaharlarda yo'lovchilarning velosipedda harakatlanish ulushini 20 foizga yetkazishni oldimizga maqsad qilib qo'yganimiz. Yo'llarimizda velosiped harakati uchun infratuzilma yaratish, avtomobil yo'li qatnov qismi hisobidan skuterlar va velosipedlarda harakatlanish uchun alohida yo'laklar tashkil etishni taklif etmoqdamiz.



Binolarning energiya samaradorligini oshirish uchun avvalambor loyihalash jarayonida ularga aniq talablar qo'yilishi zarur. Shuning uchun ham tuman (shahar) larning bosh rejasi tasdiqlanmagunga qadar qurilish ishlarini to'xtatib turish taklifi qo'yilmoqda.

Saylovoldi dasturimizdan barcha viloyat va tumanlarda yashil maydon hamda daraxtzorlarning «yashil» kadastrini ishlab chiqish taklifi o'rin olgan. Ya'ni, yashil maydon hamda daraxtzorlarga egalik huquqini qonunchilik hujjatlarida aniq belgilash, respublikadagi davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlarni to'liq raqamlashtirish yo'li bilan xatlovdan o'tkazish zarur.

IKKINCHI: EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH VA BARQAROR EKOLOGIK RIVOJLANISHGA ASOSLANGAN IQTISODIYOTNI BARPO ETISH

Saylovoldi dasturimizda 2035 yilgacha mamlakatimiz avtomobilsozlik sanoatini to'liq elektromobil ishlab chiqarishga ixtisoslashtirishni ko'zda tutmoqdamiz. Shuningdek, an'anaviy yo'lovchi tashish poyezdlarini zamonaviy tezyur poyezdlarga almashtirish va tashish uchun yo'l haqi narxlarini maqbullashtirish, temir yo'llarni modernizatsiya qilish va kengaytirish, yuk tashishni yirik yuk mashinalaridan temir yo'llarga va atrof-muhitga kamroq ta'sir ko'rsatadigan boshqa transport turlariga o'zgartirish kabi takliflarimiz mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim qadam bo'lishi shubhasiz.

Albatta, buning uchun zarur infratuzilmani yaratish, jamoat transportini elektrobuslar hisobidan rivojlantirish, elektrobuslarni zaryadlash stansiyalarini qurish uchun esa tadbirkorlarga zarur yer maydonlari ajratilishi kerak bo'ladi.

O'ZBEKISTON EKOLOGIK PARTIYASI VA UNING NOMZODLARIGA OVOZ BERING!

Partiyamiz **“yashil” iqtisodiyotga** o'tish va uni qo'llab-quvvatlashga oid tashabbuslarni ilgari surar ekan, bugun bu boradagi mavjud muammolar yechimi uchun aniq takliflarni dasturiga kiritdi. Xususan, **ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi** tadbirkorlik sub'yektlarini **qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)dan ozod etish**, investisiyaviy jozibadorlikni oshirish maqsadida **«Yashil viza» («Green Visa») dasturini** joriy etish, iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatishga qaratilgan **iqlimiy moliyalashtirish (climate finance)** tizimini joriy etish, **“yashil” innovatsiyalarni** joriy etishda **xususiy investorlarni qo'llab-quvvatlash**, davlat-xususiy sheriklikni va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish, **“yashil” va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish** uchun investisiya fondini tashkil qilish hamda yirik sanoat korxonalarini texnologik modernizatsiyalash va ularda **“yashil” texnologiyalarni** joriy etilishini jadallashtirish, sanoatning **“yashil” va kam uglerodli rivojlanishini** ta'minlash kabi qator muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda.

UCHINCHI: ENERGETIKA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANI RIVOJLANTIRISH

Saylovoldi dasturimizning bu yo'nalishida atrof-muhitga zarar yetkazish hisobiga olingan energiya ulushini **kamida 25 foizga qisqartirish**, sanoatda energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish **orqali energiya sarfini 50 foizga qisqartirish**, 2030 yilgacha energiya balansida **ekologik toza va qayta tiklanuvchan energiya manbalari ulushini kamida ikki karra oshirish**, qayta tiklanuvchan energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan **“Yashil energetika strategiyasi”ni** ishlab chiqish va qabul qilishga doir tashabbuslar olib chiqilgan.



Bundan tashqari, yirik shaharlar atrofidagi chiqindi poligonlar bazasida **xalqaro standartlarga mos keluvchi elektr stansiyalar qurish**, bioko'mir ishlab chiqarish va **chiqindilarning energiya potensialidan unumli foyda-**

lanish, elektr ta'minoti uzilishlariga chek qo'yish va aholini arzon energiya bilan ta'minlash chora-tadbirlarini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. Yurtimizga **vodorod va biogaz kabi qayta tiklanuvchan energiya manbalari** uchun texnologiyalarni olib kirishda bojxona imtiyozlarini joriy etish kabi dolzarb tashabbuslar ham dasturimizdan o'rin olgan. Partiyamiz 2050 yilgacha **60-80 foiz uylarni isitish tizimini qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobidan qoplanishini** tashkil etish bo'yicha dastur qabul qilishni maqsad qilib qo'ymoqda.

TO'RTINCHI: TABIIY RESURLARDAN OQILONA FOYDALANISH HAMDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Atrof-muhitni muhofaza qilish, ona tabiat resurslaridan oqilona foydalanish – zamonaviy va kuchli davlatni barpo etishda eng muhim ustuvor vazifalardan biri.

Avvalo, daraxtzorlar mavjud bo'lgan yer maydonlarini qurilish maqsadlarida realizatsiya qilinishini qonun bilan taqiqlash, **10 yoshdan katta daraxtlarni ko'chirib o'tkazishga butunlay cheklov qo'yish**, kerak bo'lsa, qurilish maqsadlarida daraxtlarni noqonuniy kesgan tadbirkorlarning **yerga bo'lgan huquqini bekor qilish** tartibini joriy qilishimiz zarur.

BESHINCHI: YER-SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SOHASIDAGI ISLOHOTLARNI JADALLASHTIRISH VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

Partiyaning mazkur yo'nalishdagi genetik modifikatsiyalangan organizmlar (*GMO*) mahsulotlarining miqdori bo'yicha ma'lumotlarning mahsulot yorliqlarida aniq ko'rsatilishini ta'minlash, **organik mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash** bo'yicha g'oyalari e'tiborga molikdir.

Mahsulot yorliqlarida uning tarkibidagi **GMO mahsulotlarining miqdori bo'yicha ma'lumotlarning** aniq ko'rsatilishi huquqini ixtiyoriy sertifikatlashtirish tizimi orqali ro'yxatdan o'tgan ishlab chiqaruvchilarga berilishini tartibga solish, birinchi navbatda **iste'molchilarning xavfsizligini ta'minlash** bilan birgalikda, ishlab chiqaruvchiga savdo bozorini kengaytirish imkonini ham yaratadi.

Organik mahsulotlarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish va realizatsiya qilishni qo'llab-quvvatlashning **aniq huquqiy mexanizmlarini joriy etish** muhim ahamiyat kasb etadi.

O'ZBEKISTON EKOLOGIK PARTIYASI VA UNING NOMZODLARIGA OVOZ BERING!



TABIAT UCHUN BIRLASHAYLIK!

Foydalanishdan chiqqan **yerlarni qayta foydalanishga kiritish** choralarini ko'rish bugun nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega. Biz sug'oriladigan maydonlardan yanada samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish uchun **yerlarni ekishga tayyorlashda resurs va energiya tejankor, ekologiyaga bezarar bo'lgan «No-TiLL»** (*yerga minimal ishlov berish*) kabi innovation texnologiyalarni keng joriy etishni taklif etmoqdamiz.

Partiyamiz **yomg'ir suvidan samarali foydalanish dasturini** ishlab chiqish, hududlarda yomg'ir suvidan foydalanish holda kichik yashil maydonlar va bog'lari barpo etish, **qor-yomg'ir va sel suvlarini yig'ish** imkoniyatini butunlay qayta ko'rib chiqishni taklif etmoqda. 2025 yildan **qurilish maydoni 500 m² dan ortiq bo'lgan uy, bino va ob'ektlarda yomg'ir suvini yig'ish** tartibini joriy etmoqchimiz.

OLTINCHI: DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVI, SUD-HUQUQ SOHASIDAGI ISLOHOTLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH HAMDA QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH

Ayni vaqtda malakali **yuridik yordam va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, ekolog-huquqshunos kadrlar tayyorlashga** ehtiyoj yuqori. Ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklarni va jinoiy ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha **ixtisoslashgan sudlar tashkil etilmagan**. Bu borada zarur choralarni ko'rish vaqti keldi, deb hisoblaymiz.

Partiyamiz **yo'l harakati xavfsizligini tartibga solishni qonunosti hujjatlaridan qonun asosida tartibga solishga o'tkazishni** taklif etmoqda.

Yoshlarimizni turli salbiy illatlardan asrash, ularning salomatligini ta'minlash uchun **2009 yil 1 yanvardan keyin tug'ilgan shaxslarga 2030 yildan boshlab tamaki mahsulotlari sotilishini taqiqlash**, energetik ichimliklarning salomatlikka salbiy ta'sirini inobatga olib, **21 yoshdan kichik shaxslarga energetik ichimliklar sotishni taqiqlash** taklif etilyapti.

YETTINCHI: GLOBAL IQLIM O'ZGARISHLARIGA MOSLASHISH VA OROL DENGIZI QURISHI OQIBATLARINI YUMSHATISH

Saylovoldi platformamizda **Orolbo'yi hududida bioxilma-xillikni saqlash**, iqlim o'zgarishini yumshatish, cho'llanishning oldini olishga qaratilgan loyiha va dasturlarga xalqaro moliya institutlarini keng jalb etish, **Qizilqum cho'li hududida sahroga mos o'simliklar ekish** orqali qum-bo'ronlari ko'tarilishining oldini olish va **yaylovlar degradatsiyasini to'xtatishga** erishish kabi vazifalar qamrab olindi.

SAKKIZINCHI: TASHQI SIYOSAT VA XALQARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

«Markaziy Osiyo ekologik ittifoqi»ni tashkil etish orqali tabiiy resurslar, bioxilma-xillikni saqlab qolishga erishishimiz mumkin. Markaziy Osiyoda barqaror energetika infrastrukturasi shakllantirish maqsadida qo'shni davlatlar bilan **muvaqqat energiya zaxiralarini yaratish**, favqulodda holatlarda **energiya resurslarini o'zaro almashinish** tizimini joriy qilish dolzarb ahamiyatga ega. Qo'shni mamlakatlar bilan hamkorlikda **hayvonlarning migratsiya yo'llarini himoya qilish**, migratsiya marshrutlarida qo'riqxonalar tashkil etish noyob hayvonlar populyasiyasi uchun juda muhim hisoblanadi.

Bo'lajak saylovlarda yashil va musaffo hayot, sog'lom kelajakni istaganlarning barchasi biz tomonda!

O'zbekiston Ekologik partiyasiga, partiya-mizdan ko'rsatilgan nomzodlarga ovoz bering!

Oybek RAHIMOV,

O'zbekiston Ekologik partiyasi Markaziy Kengashi
Ijroiya qo'mitasi raisi o'rinbosari.

O'ZBEKISTON EKOLOGIK PARTIYASI VA UNING NOMZODLARIGA OVOZ BERING!

ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASH — PIROVARD MAQSAD



Islom XUSHVAQTOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati

Bugungi global rivojlanish va iqlim o'zgarishlari sharoitida mamlakatimizda ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yashil maydonlarni ko'paytirish, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ushbu sohani boshqarish va tartibga soluvchi qonunchilik bazasi yanada takomillashtirildi. Sohaga oid ko'plab qonunlar va qonunosti hujjatlari qabul qilinib, hayotga tatbiq qilinmoqda. Buning natijasida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilishga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi.

Davlatimiz rahbarining ayni maqsadga qaratilgan qator farmon va qarorlari, tashabbuslari ushbu yo'nalishdagi ishlar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan har bir shaxsning ekologik huquqlari kafolatlangani ham e'tiborga molik.

2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi-ning Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaligi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ham sohani rivojlantirishda asosiy dasturilamal bo'layotir.

Prezidentimizning shu yil 19-sentabr kuni atrof-muhitni muhofaza qilish va turizm sohasidagi takliflar taqdimoti bilan tanishishi davomida ham ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilib, ekologik holatni yaxshilash bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Avvalo, mamlakatda samarali ekologik barqarorlikni ta'minlash borasida tayyorlangan ikkita dastur taqdimot etildi. Xususan, dastlab ekologik muammolar yechimining ustuvorligini hisobga olgan holda chang bo'ronlariga qarshi kurashish va ularning oqibatlarini yumshatish bo'yicha 2024-2030-yillarga mo'ljallangan milliy dastur loyihasi ko'rib chiqildi.

Mazkur hujjatda barcha sohalarda iqlim o'zgarishiga bog'liq xavflarga moslashuvchanlikni oshirish bo'yicha alohida chora-tadbirlar ishlab chiqilishi global iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini samarali oldini olish imkonini berishi ta'kidlab o'tildi. Zero, unda avtomobilsozlikda "Yevro-4" standartidan past toifadagi yoqilg'ini sotish va undan foydalanishni bosqichma-bosqich to'liq taqiqlash nazarda tutilmoqda. Buning uchun Buxoro va Farg'ona neftni qayta ishlash zavodlari yuqori sifatli yoqilg'i ishlab chiqarish bo'yicha modernizatsiya qilinishi rejalashtirilmoqda.

Mamlakatimizda qadriyat va an'analarga aylanib borayotgan "Yashil makon" umumilliy loyihasining atrof-muhit muhofazasi barqarorligini ta'minlashda nafaqat milliy manfaatlar, balki mintqa manfaatlari yo'lida ham xizmat qilayotgani ayon. Ushbu loyihaning ahamiyatidan kelib chiqqan holda Toshkent shahrida atmosfera havosi sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilmoqda. Unga ko'ra, kelgusi 5 yilda poytaxtimiz va unga tutash Toshkent viloyati tumanlarida 441 gektar "yashil belbog'" va bog'lar tashkil etiladi. Bu esa atrof-muhitni muhofaza qilish, odamlar uchun munosib sharoit yaratish va xalqimiz salomatligini asrab-avaylashga xizmat qiladi.



Bugun mamlakatimizda uy-joy qurilish ishlari industriya darajasiga olib chiqilmoqda. Bu esa ularga nisbatan yangi ekologik talablarni joriy etishni taqazo etadi. Ushbu talablardan kelib chiqqan holda yangi quriladigan, balandligi 12 metrdan yoki umumiy maydoni 500 kvadrat metrdan ortiq bo'lgan binolarni loyihalashtirishda unga tutash hududlarning kamida 25 foizini ko'kalamzorlashtirish talabi qo'yilmoqda. Shuningdek, atrof-muhitga zarari ko'p sanoat korxonalari ham "yashil belbog'"lar barpo etish majburiyatini oladi.



Yana bir muhim masala. Demokratik qadriyatlar tobora rivojlanib borayotgan mamlakatimizda ekologik huquqbuzarliklarning oldini olish, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada faol va jonkuyar insonlarni rag'batlantirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan ekolog" faxriy unvoni ta'sis etilishi soha vakillariga bo'lgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlikning yorqin ifodasi, deb o'ylayman.



Aytish joizki, mamlakatimiz xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida 10 dan ortiq atrof-muhit muhofazasi borasida xalqaro hujjatlarni qabul qilgan. Taqdimot davomida atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilikning axborot olish imkoniyati, ishtiroki va odil sudlovga erishish imkoniyati to'g'risidagi Orxus konvensiyasiga qo'shilish masalasi ko'rib chiqildi.

Shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga qurilish maydonlarida atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya qilmaslik bo'yicha modda kiritish maqsadga muvofiqligi aytiladi. Daraxtlarni kesish va qasddan quritish, daryo o'zanlaridan noqonuniy qum-shag'al qazib olish, chiqindilarni belgilanmagan joylarga tashlash uchun esa jarimalarni oshirish va qat'iylashtirish choralari ko'riladi. Zero, inson qachonki o'zini tabiatning bir bo'laki deb his qilmas ekan, bu kabi holatlarga barham berish murakkablashib boraveradi.

Sirasini aytganda, yurtimizning go'zal tabiati, musaffo havosi, ziloldek tiniq va shifobaxsh suvlari har qanday kishini o'ziga maftun etadi. Mana shunday betakror go'zallikni asrab-avaylash, kelajak avlodga bus-butunligicha yetkazish har birimizning burchimizdir. Aks holda, iqlim o'zgarishlari tufayli kuchayib boradigan turli salbiy ekologik muammolar sabab yo'qotadiganlarimiz yanada ko'p va ayanchli bo'ladi.

Umuman olganda, taqdimot davomida belgilab berilgan dolzarb vazifalar ijrosini ta'minlash har bir rahbar, ayniqsa, biz deputatlardan ham katta mas'uliyat talab etadi. Agar belgilab berilgan zalvorli vazifalarni birlashtirib, sa'y-harakatlarimizni birlashtirib, obod ko'ngil ila amalga oshirsak, ekologiya barqarorligini ta'minlashga katta zamin yaratgan bo'lamiz. Bu esa pirovard natijada atrof-muhitni muhofaza qilish va fuqarolarga qulay va xavfsiz atrof-muhit yaratilishiga xizmat qiladi.





18-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida "Ekologiya vazirligi tomonidan sohada amalga oshirilayotgan ishlar ko'rsatkichi: erishilgan natijalar va kelgusi rejalar, shuningdek, ekologik ta'limni rivojlantirish istiqbollari" mavzusida matbuot anjumani o'tkazildi.

Tadbirda Ekologiya vaziri o'rinbosari Jusipbek Kazbekov, vazirlik huzuridagi Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi direktori Sharifbek Hasanov, O'rmon xo'jaligi agentligi direktori o'rinbosari G'olib Qurbonov, Bosh prokuratura Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va o'rmon xo'jaligi sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi boshlig'i O'ktam O'tayev, vazirlik boshqarma va bo'lim xodimlari, tizim tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda Jusipbek Kazbekov vazirlik tomonidan joriy yilning o'tgan davri mobaynida amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumot berdi. Xususan, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida qilingan ishlar, atmosfera havosini muhofaza qilish, chiqindilarni boshqarish, ekologik nazorat, kadastr, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, ekologik ta'lim, o'rmon xo'jaligi, gidrometeorologiya yo'nalishlaridagi islohotlar alohida ta'kidlandi.

EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDA QILINGAN ISHLAR HAMDA KELGUSIDAGI REJALAR HAQIDA MA'LUMOT BERILDI



“Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan boshlangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 2024-yil bahorgi mavsumda respublika bo'yicha **138 mln tup ko'chat ekildi**. Hududlarda vazirlik, idora va mahalliy hokimliklar tomonidan **257 ta “yashil bog'lar” barpo etilib**, ularning umumiy soni 517 taga yetkazildi, — dedi Jusipbek Kazbekov. — “Ochiq budjet” tizimi orqali **“Mening bog'im” loyihasi ishga tushirildi**. Fuqarolar tomonidan tashabbus bildirilgan 738 ta loyiha orasidan **215 ta loyiha** g'olib deb topilib, jami **48,7 mlrd so'm** moliyalashtirish uchun yo'naltirildi. Bundan tashqari, boshqa sohalarida ham samarali ishlar amalga oshirilmoqda”.

O'ktam O'tayev esa 2023-yil va 2024-yilning o'tgan davrida prokuratura va ekologiya organlari tomonidan hamkorlikda keng qamrovli ishlar amalga oshirilganligini, shu bilan birga, qilinishi kerak bo'lgan ishlar hali ko'p ekanligini qayd etdi.



“Davlat rahbarining brakonyerlik holatlarini aniqlash va sohada qilmish uchun jazo muqarrarligini ta'minlash topshirig'i ijrosi ham talab darajasida tashkil etilmagan. Respublika bo'yicha jami **239 ta brakonyerlik** holatlari aniqlangan bo'lsa, qisqarib borayotgan va muhofaza etilishi talab etilgan noyob hayvonot turlari ko'p tarqalgan Qoraqalpog'iston, Xorazm va Buxoro viloyatlarida bironta holat aniqlanmagan. Bu kabi boshqa kamchiliklar, albatta, bartaraf etiladi”, — dedi O'ktam O'tayev.

Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi direktori Sharifbek Hasanov esa chiqindilarni boshqarish sohasidagi o'zgarishlarga to'xtalib, sohadagi dolzarb masalalar o'z yechimini topayotganini qayd etdi.



“Shu paytgacha qadar eng og'riqli holatlardan biri — tibbiyot chiqindilarining maishiy chiqindilar bilan birga poligonga tashlanishi oqibatida atmosfera havosiga 400 ming tonna issiqxona gazlari chiqarilar, 43 ming tonna sizot suvi tabiatga tashlanardi. Bu esa aholi orasida turli kasalliklarga sabab bo'layotgan edi, — dedi Sharifbek Hasanov. — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-iyuldagi 263-sonli qarori qabul qilinib, unga ko'ra tibbiyot chiqindilarini yoqish orqali muqobil issiqlik energiyasi ishlab chiqarish borasida AQSHning “Sayar” kompaniyasi o'rtasida 115 mln AQSH dollari miqdoridagi to'g'ridan-to'g'ri investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. Ushbu loyiha amalga oshirilishi bilan 1,5 mlrd so'mga yaqin budjet mablag'lari tejalib, hosil bo'layotgan zararli gazlar, aholi o'rtasida turli kasalliklar soni keskin qisqaradi”.

Tadbirda, shuningdek, Global yashil o'sish institutining (GGGI) O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Aaron Rassel Ekologiya vazirligi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar va kelajakdagi rejalar haqida to'xtalib o'tdi.

Matbuot anjumani davomida, shuningdek, kelgusida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berildi. Yakunda jurnalistlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.



O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT TIZIMLARINING YERDAN FOYDALANISH VA QAYTA TIKLASHGA TA'SIRINI BAHOLASH DASTURI ISHGA TUSHIRILDI

13-sentabr kuni Toshkentda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti tomonidan O'zbekiston Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hamda Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan hamkorlikda O'zbekistonda oziq-ovqat tizimlarining yerdan foydalanish va qayta tiklashga ta'sirini baholash dasturi (FOLUR) bo'yicha kirish seminarini tashkil etildi.

Tadbirida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri o'rinbosari Jusipbek Kazbekov, BMTning O'zbekistondagi doimiy koordinatori Sabina Mahl, davlat va xalqaro tashkilotlar vakillari, sohaning yetakchi ekspertlari va tegishli idoralar ishtirok etdi.

Seminarining asosiy maqsadi atrof-muhit va iqlim muammolarini hal qilish orqali O'zbekistonda oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi sektorini takomillashtirishda "FOLUR"ning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor qaratishdir.

"FOLUR" dasturi yerdan samarali foydalanish texnologiyalari va tabiatni muhofaza qilish yondashuvlarini keng joriy etish, shuningdek, ekotizim degradatsiyasidan ko'p foyda keltiradigan barqaror boshqaruvga o'tishni samarali amalga oshirishga qaratilgan.



Tadbirda bag'ishlangan videorolikni tomosha qilish uchun skanerlang

“

"Loyiha hukumat darajasida qo'llab-quvvatlanib, davlatimiz rahbarining 2022-yil 10-iyundagi "Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan Harakatlarni rejasiga kiritilgan va Qashqadaryo, Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarini qamrab oladi. Maqsad bug'doyga asoslangan, barqaror va inklyuziv ishlab chiqarish landshaftlari va qiymat zanjirlari uchun eng yaxshi amaliyot hamda innovatsiyalarni joriy etishdir. Shuningdek, loyiha yurtimizdagi ekotizimlarni, bioxilma-xillikni asrash, iqlim muammolarini yumshatishga xizmat qiladi", - dedi Jusipbek Kazbekov.

“

“Bu loyiha O‘zbekistonning yer degradatsiyasiga qarshi kurashish bo‘yicha tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha birgalikdagi sa‘y-harakatlarimizning boshlanishini anglatadi, – dedi Sabina Mahl. – Ishonchim komilki, FOLURni muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali birgalikda degradatsiyaga uchragan tuproq va qishloq xo‘jaligi yerlari bilan bog‘liq muammolarga qarshi tura olamiz, barqaror qishloq xo‘jaligi va odamlarning hayot sifatini yaxshilash uchun poydevor qo‘yamiz. Men barchani ish rejasini ishlab chiqishda faol ishtirok etishga chaqiraman, chunki har biringizning qo‘shgan hissangiz ushbu muhim tashabbusning muvaffaqiyatini ta‘minlashda muhim omil bo‘ladi”.



“

Loyihaning ishga tushirilishi Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) muvofiq barqaror qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘lidagi muhim qadamdir. Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sektoridagi past mahsuldorlik bilan birga oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortishi natijasida yerdan foydalanish global ko‘lamda 80 foiz o‘rmonlarning kesilishi, chuchuk suvning 70 foizidan foydalanishga, landshaft degradatsiyasi va biologik xilma-xillikning yo‘qolishiga sabab bo‘luvchi asosiy omil bo‘lib qolmoqda. Tabiatga yetkazilayotgan zararining 30 foizi esa issiqxonalardan ajralib chiqadigan zararli gazlarga to‘g‘ri keladi. Bu muammolar oziq-ovqat xavfsizligi, ovqatlanish, kambag‘allikni qisqartirish va kengroq ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga tahdid solmoqda. O‘zbekistonning keskin kontinental iqlimi, issiq va quruq yoz sharoitlari hamda o‘zgaruvchan havo harorati tufayli qishloq xo‘jaligida o‘ziga xos muammolarga uchramoqda. Tuproq tarkibida organik moddalarning kamligi bilan ajralib turuvchi cho‘l tuproqlari qishloq xo‘jaligining hosildorligini cheklaydi.

“Loyiha bug‘doy ishlab chiqarish landshaftlarida hosildorlikni oshirish bilan birga ekotizimlarga va bioxilma-xillikka salbiy ta‘sirni kamaytirish hamda ishlab chiqarish qiymat zanjirini oshirishdan iborat. Ushbu loyiha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlarining 6 ta tumanida amalga oshiriladi. Loyiha doirasida Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (IUCN) bilan hamkorlikda qo‘riqxonalarni yangi zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta‘minlash orqali yon-atrofdagi qishloq aholisi tomonidan ularga bo‘layotgan salbiy ta‘sirlar kamaytiriladi.

So‘nggi yillarda respublikamizda tez-tez uchrayotgan chang-bo‘ronlar manbasini aniqlash va ularga qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqish ham loyiha maqsadlaridan biridir”, – deya ta‘kidladi “FOLUR” loyihasi milliy koordinatori Aziz Nurbekov.



FOLUR loyihasi doirasida umumiy maydoni 50 ming gektar bo‘lgan hududlar ekologik jihatdan tiklanadi, yana 50 ming gektar hududda biologik xilma-xillikni boshqarishning takomillashtirilgan usullariga o‘tiladi. Umuman olganda, loyiha yurtimizda ekologik holatni yaxshilashga xizmat qiladi.



O'ZBEKISTONDA SUV IFLOSLANISHINING OLDINI OLISH VA SANOAT CHIQINDIXONALARI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH CHORALARI KUCHAYTIRILMOQDA

24–26-sentabr kunlari Toshkent shahri va Toshkent viloyatida O'zbekistonda sanoat chiqindixonalari xavfsizligi va suvning favqulodda ifloslanishining oldini olish bo'yicha idoralararo ishchi guruhining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Uch kunlik o'quv seminari BMT YeIKning (Yevropa iqtisodiy komissiyasi) Transchegaraviy ta'sirlar to'g'risidagi konvensiyasining "O'zbekistonda suv ta'minoti, kanalizatsiya va suv resurslarini iqlim o'zgarishi sharoitida favqulodda ifloslanishdan himoya qilish sohasidagi faoliyatni kuchaytirish" loyihasi doirasida Ekologiya, atrof-muhit va iqlim o'zgarishi vazirligi bilan hamkorlikda Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi (SDC) moliyaviy ko'magida tashkil etildi.

Tadbirda BMT YeIK, Ekologiya vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.



"Sanoat chiqindilari saqlanadigan hududlar ham boshqa ko'plab obyektlar qatori ularning xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun alohida e'tibor va birgalikdagi sa'y-harakatlarni talab qiladi. Shuning uchun xatarlarni minimallashtirish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ekologik ofatlarning oldini olishga harakat qilishimiz kerak", – dedi Ekologiya vaziri o'rinbosari Iskandar Qutbiddinov.

Tadbir davomida ishtirokchilar ishchi guruhning texnik topshiriqlari va tarkibi bilan tanishishdi, 2024–2025-yil-larga mo'ljallangan ish rejasini kelishib olishdi, sanoat chiqindilarini saqlash joylari xavfsizligini ta'minlash va suvning favqulodda ifloslanishining oldini olish sohasidagi dolzarb masalalar va zarur chora-tadbirlarni ko'rib chiqishdi hamda Konvensiyaga qo'shilish bo'yicha yo'l xaritasini ishlab chiqishga oid kelgusi rejalarni muhokama qilishdi.



"Iqlim o'zgarishi ta'siriga guvoh bo'lganimiz sababli, loyiha iqlim o'zgarishining sanoat chiqindixonalari kabi obyektlarga ta'sirini baholash va tahlil qilishga, shuningdek, iqlim o'zgarishining suv resurslariga ta'siri va javob choralarni ishlab chiqishga qaratiladi", – dedi BMT YeIKning atrof-muhit bo'yicha mintaqaviy maslahatchisi Sarangoo Radnaaragchaa.



Tadbirning ikkinchi kunida ishtirokchilar uchun Olmaliq kon-metallurgiya kombinatiga qarashli 2-sonli sanoat chiqindixonasi hududida baholash metodologiyasini qo'llash bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil etildi.



"Ushbu treningni Yevropa standartlari va xavfsizlik qoidalariga asoslangan sanoat chiqindilarini saqlash joylarining xavfsizlik darajasini baholash usullarini qo'llashni o'rgatish maqsadida tashkil etdik. Mazkur metodologiya BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi loyihasi doirasida ishlab chiqilgan. Trening natijalariga ko'ra, biz ushbu sanoat chiqindilarini saqlash inshootining natijalarini baholashni shakllantiramiz va uning Yevropa xavfsizlik talablariga qanchalik javob berishini baholaymiz", – dedi BMT YelK maslahatchisi Irina Nikolayeva.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda 41 ta sanoat chiqindixonasi mavjud bo'lib, ulardan 10 tasi transchegaraviy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ishchi guruh O'zbekistonga tog'kon sanoati sohasida milliy boshqaruvni mustahkamlash imkonini beradi, 2030-yilgacha mamlakatning ekologik maqsadlariga erishishga hissa qo'shadi va BMT YelKning Sanoatdagi baxtsiz hodisalar to'g'risidagi konvensiyasiga qo'shilish ustida ish olib boradi.



YAQIN SHARQ VA MARKAZIY OSIYO EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL QILISH BORASIDAGI IMKONIYATLARINI BIRLASHTIRADI



11-sentabr kuni Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universitetida ("Green University") Yaqin Sharq va Markaziy Osiyoda yashil mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga bag'ishlangan davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

Tadbirda Ekologiya, atrof-muhit va iqlim o'zgarishi vazirligi, "Green University", Suvaysh kanali universiteti (Misr), Qirol Saud universiteti (Saudiya Arabistoni), Sharq bilan hamkorlikdagi amaliy tadqiqotlar markazi (CARPO) vakillari va boshqalar ishtirok etdi.

Uchrashuvdan ko'zlangan maqsad Yaqin Sharq va Markaziy Osiyodagi shahar markazlarida uchrayotgan muayyan ekologik muammolarni o'rganish va tajriba almashish hamda shahar sharoitida iqlim o'zgarishlarini hal qilish bo'yicha birgalikdagi imkoniyatlarni aniqlashdan iborat.



"Biz nafaqat Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo, balki Yevropa va Markaziy Osiyo o'rtasidagi bu birgalikdagi faoliyatga o'z hissamizni qo'shishimizdan xursandman", – dedi Qirol Saud universitetining arxitektura va shaharsozlik bo'yicha akademik va professional maslahatchisi Anna Laura Petrucci.

Panel muhokamasi davomida ekspertlar barqaror shahar rivojlanishiga alohida e'tibor qaratgan holda atrof-muhit muammolari va iqlim o'zgarishi bo'yicha turli nuqtai nazarlarni ko'rib chiqdilar. Barqaror rivojlanish amaliyotlari bo'yicha bilim almashish va turli hududlardagi

ekspertlar va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash iqlim o'zgarishlarini bartaraf etish va shahar sharoitida hamda undan tashqarida barqaror rivojlanishni rag'batlantirish bo'yicha kelgusi hamkorlikni yana-da mustahkamlashi ta'kidlandi.



"Bu yerda biz nafaqat iqtisodiyot, balki boshqa masalalar, jumladan, atrof-muhit masalalari bo'yicha hamkorlikni ham muhokama qilamiz. O'ylaymanki, biz ikkala mintaq ham bu yo'nalishda qanday ishlashi va hamkorlik qilishi mumkinligi haqidagi masalani o'rganish uchun to'g'ri vaqtda kerakli joydamiz", – dedi CARPO asoschilaridan biri va bosh direktori Yan Xanrat.

Seminarining yakuniy qismida hamkorlikni mustahkamlash va qo'shma loyihalarni ishlab chiqish bo'yicha keyingi qadamlar muhokama qilindi. Ishtirokchilar atrof-muhit va iqlim bo'yicha tashabbuslarni mintaqaviy rivojlanish strategiyalariga integratsiya qilish muhimligini ta'kidladilar. Shuningdek, barqaror rivojlanish amaliyotini tadqiq etish va joriy qilishni rag'batlantirish maqsadida universitetlar, davlat idoralari va xususiy sektor o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish g'oyalari taklif etildi.

Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markazida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov Xitoy fanlar akademiyasining Sinszyan ekologiya va geografiya instituti, Sho'rlanish sharoitida biodehqonchlik xalqaro markazi (BAA), Yaponiyaning Tottori universiteti Arid va cho'llar tadqiqot markazi, Yaponiyaning Miye universiteti Bioresurslar tadqiqoti instituti professor-olimlaridan iborat delegatsiya bilan uchrashdi.

OROLBO'YI EKOLOGIYASINI YAXSHILASH BORASIDAGI XALQARO HAMKORLIK MUSTAHKAM- LANMOQDA



Ta'kidlash joizki, Sho'rlanish sharoitida biodehqonchlik xalqaro markazi bilan hamkorlikda "Qoraqalpog'istonning kam rivojlangan tumanlarida ishlab chiqarishning barqaror tizimlarini rivojlantirish" bo'yicha 2023–2025-yillarga mo'ljallangan loyiha, Yaponiyaning Tottori universiteti Arid va cho'llar tadqiqot markazi bilan hamkorlikda esa maxsus tuzni tozalash plyonkasi yordamida fiksatsiyalangan jo'yakli sug'orishda suv samaradorligi va sho'rlanishni boshqarish loyihasi amalga oshirilmoqda.

Uchrashuvda delegatsiya a'zolari markazning tajriba-sinov maydonida amalga oshirilayotgan innovatsion loyihalar va tadbirlar bilan yaqindan tanishdilar. Shuningdek, o'zaro hamkorlik doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar va chora-tadbirlar batafsil

muhokama qilindi. Shu bilan birga, "Aral dream" ko'rgazmasini tomosha qilishdi hamda Orolbo'yi mintaqasida yashil texnologiyalarni tadqiq qilish, ishlab chiqish va namoyish etish bo'yicha qo'shma laboratoriya bilan yaqindan tanishishdi.

Yakunda istiqboldagi vazifalar, yangi loyihalar va hamkorlikni yanada mustahkamlash yo'nalishlari belgilab olindi. Bu esa, tabiiyki, tomonlar o'rtasidagi munosabatlarning yanada rivojlanishiga va muhim strategik maqsadlarning amalga oshishiga xizmat qiladi.

Ma'lumot uchun, ayni paytda Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markazida Sinszyan ekologiya va geografiya instituti bilan hamkorlikdagi loyihalar doirasida Samanbay va Mo'ynoq tajriba uchastkalarida jami 3,7 gektar maydonda 23 turdagi noan'anaviy tuzga chidamli galofit o'simliklarida tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi, tajriba uchastkasida tomchilatib sug'orish tizimi yaratilib, kichik metostansiya o'rnatildi. Bundan tashqari, Orolbo'yi mintaqasida yashil texnologiyalarni tadqiq qilish, ishlab chiqish va namoyish etish bo'yicha qo'shma laboratoriya tashkil etilib, Xitoydan qiymati 1 million yuanlik (127 000 AQSH dollari) laboratoriya asbob-uskunolari yetkazib berilgan va ixtisoslashgan laboratoriya ishga tushirilgan. Qolaversa, Qoraqalpog'istonda dorivor "Sistanxe" o'simligini yetishtirishni o'rganish maqsadida Mo'ynoq tajriba uchastkasida xitoylik olimlar bilan birgalikda o'simlik urug'ini tajriba tariqasida ekish ishlari amalga oshirildi.



Joriy yilning 23-avgust kuni Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universitetida ("Green University") Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Xitoy Fanlar akademiyasi Shinjon ekologiya va geografiya instituti tomonidan O'zbekiston Fanlar akademiyasi bilan hamkorlikda Orolbo'yi ekologiyasi va atrof-muhitiga oid kompleks ilmiy ekspeditsiyaning ochilish marosimi o'tkazildi.



OROLBO'YI TABIATINI O'RGANISHGA DOIR XALQARO ILMIY EKSPEDITSIYA

Tadbirda nutq so'zlagan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov Orolbo'yida ekologik inqirozning salbiy oqibatlarini tushunish va yumshatishda ekspeditsiyaning roli muhim ekanligini ta'kidladi.

“Bugun boshlangan ekspeditsiya Orolbo'yi tabiatini ilmiy yondashuv va izlanishlar asosida chuqurroq o'rganish yo'lidagi yana bir katta qadamdir. Ishonchim komilki, birgalikdagi sa'y-harakatlar va ilmiy hamkorlik yuksak samaralar berib, kelajakda mintaqada yangi ekologik loyiha va tashabbuslarni amalga oshirish uchun zamin yaratadi”, — dedi A.Abduhakimov

Mazkur ekspeditsiya Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida mintaqa ekotizimini tiklash, Orol dengizining qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik inqiroz oqibatlarini yumshatish borasidagi izchil siyosatga muvofiq tashkil etildi. Ekspeditsiya doirasida ekotizim, tuproq, shuningdek, mintaqa bioxilma-xilligi holatidagi o'zgarishlarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar o'tkazish rejalashtirildi.

Ochilish marosimida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika instituti hamda Xitoy Fanlar akademiyasi Shinjon ekologiya va geografiya instituti vakillariga ekspeditsiyaning rasmiy boshlanishi ramzi bo'lgan bayroqlar topshirildi.

Tadbir guruh a'zolariga norasmiy muzokaralar o'tkazish va ekspeditsiya bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlar uchun asos yaratish imkonini beruvchi sessiya bilan yakunlandi.

“Ekspeditsiya davomida bir qancha ilmiy maqsadlarni ko'zlaganmiz. Bu mikroorganizmlarning biologik xilma-xilligini, tuproq tarkibini va foydali qazilma konlarini o'rganishdir. Chunki hozir Orol dengizi tubidan to'plangan tuz nafaqat eng yaqin hududlarga, balki Xitoy, G'arb va boshqa olis hududlarga ham tarqalayotganini ko'rib turibmiz. Ekspeditsiya jarayonida to'planadigan ma'lumotlar ekologik vaziyatni barqarorlashtirish masalalarida mamlakatlar hukumatlari tomonidan qarorlar qabul qilishda qo'l keladi”, — dedi Fanlar akademiyasi vise-prezidenti professor Shahlo Turdiqulova.



Ekspeditsiyaning birinchi kuni ishlar rejasi, kutilayotgan muammolar va olinadigan natijalar atroflicha muhokama qilindi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika instituti, Zoologiya instituti, Xitoy Fanlar akademiyasi Shinjon ekologiya va geografiya instituti, shuningdek Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimlari va boshqa mutaxassislardan iborat ekspeditsiya a'zolari 5 ta guruhga bo'linib, vazifalar taqsimlandi.



Belgilangan dastlabki nuqtalarda o'simliklardan, 1m chuqurlik kesimida tuproqdan namunalar olindi. Zoologiya instituti mutaxassislari tomonidan ushbu nuqtalarda mavjud qushlar, hayvonlar, sudralib yuruvchilar va hasharotlar o'rganildi.



O'zbekiston va Xitoy olimlarining hamkorlikdagi ilmiy ekspeditsiyasi Orolbo'yining ekologik muvozanatini tiklash va mintaqa aholisi turmushini yaxshilashga qaratilgan umumiy sa'y-harakatlarni aks ettiradi. Orol dengizi inqirozi global miqyosdagi ekologik halokat bo'lib, Orolbo'yi hududlarida biologik xilma-xillikning yo'qolishi, cho'llanishning kuchayishi va aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ko'payishiga qarshi shoshilinch va muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar ko'rilmogda. O'tgan 5 yil davomida Orol dengizi tubida 1 mln. 730 ming gektar o'rmonzor barpo etilgani, ya'ni 17 ming km kvadrat maydon ko'kalamzorlashtirilgani bunga yaqqol misol bo'ladi.



Orolbo'yi hududlarida olib borilayotgan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar ekologik tanazzulning asosiy omillarini aniqlash va iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish, qolaversa, bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha muqobil yechimlarni taklif qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Orolbo'yi ekologiyasi va atrof-muhitiga oid kompleks ilmiy ekspeditsiya guruhi (ekspeditsiyaning 2-3-4-kunlari) Qo'ng'iro't, Mo'ynoq va Xo'jayli tumanlari, "Sudochoye-Akpetki" davlat buyurtma qo'riqxonalaridagi belgilangan nuqtalardan tuproq qatlamlari, mavjud o'simliklardan namunalar olib, hayvon, hasharot va qushlarning turlarini o'rgandi. Xususan, Xo'jayli tumanida 4 ta nuqtadan namunalar olinib, kompleks ma'lumotlar to'plandi. Qo'ng'iro't tumanidagi 2 ta nuqta hamda "Qo'g'iro't — Mo'ynoq" avtomobil yo'li bo'yidagi nuqtalarda tuproq qatlamlari, mavjud o'simliklardan namunalar olindi. Ekspeditsiya tarkibidagi zoologlar tomonidan hayvonlar va qushlar tadqiq etildi. Sudochoye – Akpetki yo'nalishida belgilangan 3 ta nuqtada ham tuproq qatlamlari, o'simliklar, hayvonlar va qushlar o'rganildi.

Ilmiy ekspeditsiya davomida Orol – Mo'ynoq yo'nalishida, "Tik o'zek", "Shag'irli", "Hakim ota", "Qozoqdaryo" aholi punktlari, "Qoradaryo", "Orol tubi" hududlarida tuproqning 1 metrli kesmasi olindi, mavjud o'simliklar, hayvon, hasharot va qushlarni o'rganish ishlari olib borildi.



Qorao'zak tumanidagi Ko'kdaryo va Qorateren ko'li hamda Chimboy tumanidagi "Kenez qurapa" MFYda, Kegeli tumanidagi belgilangan nuqtalardan tuproq va o'simlik namunalari olindi, hayvon, hasharot va qushlarning turlari o'rganildi, shu tariqa kompleks ma'lumotlar to'plandi,

Ekspeditsiya jarayonida Orolbo'yi hududlaridan olingan tuproqlar, o'simlik namunalari va boshqa ashyolar maxsus qadoqlarga joylashtirilib, yuk mashinasida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo institutiga jo'natildi.

Orolbo'yi ekologiyasi va atrof-muhitiga oid kompleks ilmiy ekspeditsiya 4-sentabr kuni olimlarning Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetiga tashrifi bilan yakunlandi.

Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
Axborot xizmati.

GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR AKS ETGAN 20 DAN ORTIQ HAYKALTAROSHLIK ASARLARI YARATILDI

7-sentabr kuni “Toshkent – 2024” III xalqaro haykaltaroshlik simpoziumi yopilish marosimi o‘tkazildi. Unda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Badiiy akademiya, Badiiy ijodkorlar uyushmasi mas’ullari, xorijiy davlatlarning yurtimizdagi elchixonalari, Badiiy akademiya huzuridagi ta’lim muassasalari vakillari va boshqalar ishtirok etdi.

Tadbir avvalida Ekologiya vaziri Aziz Abduhakimov simpozium ishtirokchilarini tabrikladi.

“Bu galgi simpozium “Haykaltaroshlik, atrof-muhit va iqlim o‘zgarishi” mavzusiga bag‘ishlandi. Bir oy davomida mashaqqatli mehnat, boy tajriba va ulkan mahorat evaziga yaratilgan o‘ziga xos original g‘oyaga ega haykaltaroshlik asarlari ekologiyani asrash bugungi kunda insoniyat uchun naqadar dolzarb kun tartibiga aylanganini anglatib turibdi. Bunday betakror ijod namunalari uchun simpoziumda ishtirok etgan barcha haykaltaroshlarga chuqur minnatdorlik bildiraman”, – dedi vazir.



Simpoziumda Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston, Turkiya, Eron, Bolgariya, Ispaniya, Rossiya, Estoniya, Birlashgan Arab Amirliklari, Belarus, Ozarbayjon, Gruziya, Ukraina, Keniya kabi mamlakatlardan 20 nafar hamda yurtimizdan 7 nafar professional haykaltarosh ishtirok etdi.



“Simpoziumda qatnashish uchun 150 nafar mahalliy va xorijlik haykaltaroshlar 600 ga yaqin loyihalarini yuborishdi. Bular orasidan esa 27 ta eng yaxshi loyihalar tanlab olindi. Har bir haykaltaroshlik namunasi tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan ma’lum bir g‘oyani aks ettirgan, — dedi Ekologiya vaziri maslahatchisi Matnazar Elmurodov. — Shu bilan birga, ushbu simpozium yurtimizda haykaltaroshlik san’ati yanada rivojlanishiga xizmat qiladi”.

Haykaltaroshlar tomonidan Toshkent shahrida global va mintaqaviy ekologik muammolar, iqlim o‘zgarishi, shaharsozlik, aholining ekologik va estetik madaniyatini oshirish mavzulariga bag‘ishlangan 20 dan ortiq haykaltaroshlik asarlari yaratildi.

“Tabiatning ifloslanishiga, avvalo, insoniyat sababchi bo‘lgan. Insonlar azal-azaldan atrof-muhitga turli shakllarda zarar yetkazib kelishgan. Endi esa bu holatga barcham berish, ya’ni uyg‘onish vaqti keldi. Shuning uchun ham men tabiat oldida tiz cho‘kib, uzr so‘rayotgan inson obrazini tasvirladim va bu asarimni “Uyg‘onish” deb nomladim”, — dedi eronlik haykaltarosh Shaho Rezai.

Tadbir yakunida haykaltaroshlarga 2 ming AQSh dollaridan gonorar, maxsus sertifikat va esdalik sovg‘alari topshirildi.

Ma’lumot uchun, simpozium davomida yaratilgan haykallar Toshkent shahrining madaniy muhiti va badiiy qiyofasini shakllantirish maqsadida istirohat bog‘lari, dam olish zonolari, ko‘ngilochar va sayyohlik maskanlariga, shu bilan birga, Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti (“Green University”)ga o‘rnatiladi.

6-7-sentabr kunlari poytaxtimizning Yunusobod tumanida Toshkent astronomik observatoriyasi hududini obodonlashtirish va umumiy yashil bog' barpo etish masalasi-ga bag'ishlangan jamoatchilik eshituvlari bo'lib o'tdi.

Tadbirda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, yaqin atrofdagi mahallalar, jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari vakillari, bloggerlar ishtirok etdi. Ekologiya vaziri Aziz Abduhakimov hududni obodonlashtirish va umumiy yashil bog' yaratish konsepsiyasini tadbir ishtirokchilariga taqdim etdi.



Yashil bog' barpo etish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqlim kengashini tashkil etish to'g'risida"gi PF-106-son qarorida nazarda tutilgan.

Loyiha konsepsiyasi park hududini yashil maydonlar va xiyobonlar bilan obodonlashtirish, markaziy maydon, yashil ochiq amfiteatr, manzarali ko'l, interaktiv o'yinlar maydoni, kutubxona, atirgul bog'i, badiiy galereya, sharshara, kitobxonlik bog'i, bolalar maydonchasi, shaxmat bog'i va tabiat qo'ynida dam olish uchun mo'ljallangan boshqa inshootlarni o'z ichiga olgan.

Loyihada bog'ning asosiy elementiga aylanadigan keng ko'kalamzorlashtirish hududini yaratishga alohida e'tibor qaratilgan. Noyob va mahalliy turdagi daraxt va butalarni ekish ko'zda tutilgan bo'lib, bu nafaqat hududni obodonlashtirish, balki shahardagi ekologik vaziyatni yaxshilashga ham xizmat qiladi.


"Yashil bog'ning yaratilishi bioxilma-xillikni tiklashga hissa qo'shib, poytaxt ekotizimiga foydali ta'sir ko'rsatadi. Noyob va mahalliy o'simlik turlarini ekish tabiiy muvozanatni mustahkamlaydi, ekoyo'laklar esa tashrif buyuruvchilarga o'simlik dunyosi xilma-xilligi bilan yaqinroq tanishish imkonini beradi. Yashil zona ham havo sifati va atrof-muhitning umumiy holatini yaxshilashning muhim omiliga aylanadi", - dedi A.Abduhakimov.

Shuningdek, bog'da joylashgan astrograf minorasini kutubxonaga aylantirish ko'zda tutilgan va uning atrofida yulduzlarni kuzatish uchun qorong'u joylar yaratiladi. Atrofdagi bog'ga o'rnatilgan ta'lim bannerlari astronomiya va minora xizmat qiladigan vazifalarni o'rgatadi va yosh avlodni bilimlarni kashf qilish va izlashga ilhomlantiradi.



Shu jumladan, xushbo'y gullash turlari nafaqat gul maydonlarining go'zalligi va xilma-xilligiga hissa qo'shadi, balki ko'plab ekologik manfaatlarga ham ega bo'ladi. Asalarilar va boshqa changlatuvchilar o'sish va gullash mavsumi davomida doimiy oziq-ovqat manbasiga ega bo'lib, mahalliy biologik xilma-xillik va atrofdagi ekotizimlarni

saqlab qolishga yordam beradi. Bog' dizayni har biri 33 xil turdan iborat bo'lgan uchta turdagi aralashmani talab qiladi.



Bog'da Oqqo'rg'on kanali qayta tiklanadi, qirg'oqlari tosh bilan o'raladi. Kanal bo'ylab soyali daraxtlar va yam-yashil o'simliklardan iborat yo'lak obodonlashtiriladi. Shuningdek, bog'da 100 dan ortiq atirgul turlarini o'z ichiga olgan to'rt ming kvadrat metr atirgulgazor barpo etiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, bog'ning yashil zonasi shunchaki bezak bo'lmaydi - u havoni tozalash va shovqinini kamaytirishga yordam beradigan tabiiy mikroiklimni yaratadi. Bundan tashqari, maxsus ekologik yo'llar tashrif buyuruvchilarga o'simlik dunyosining xilma-xilligi bilan tanishish imkonini beradi va pikniklar hamda ochiq havoda dam olish uchun ajratilgan joylar hordiq chiqarish uchun ideal sharoitlarni yaratadi.

EKOLOGIK LOYIHALARNING SITUATSION XARITALARINI TASDIQLASHNING ELEKTRON MEXANIZMI JORIY ETILDI



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq atrof-muhitga ta'sirni baholash sohasini raqamlashtirish va shaffof tizim yaratilishi belgilangan.

Unga ko'ra, Ekologiya vazirining tegishli buyrug'i bilan rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan faoliyatning atrof-muhitga ta'sirini baholash uchun taqdim etiladigan loyihalarning situatsion xaritalarini tasdiqlash mexanizmi joriy etildi.

Ekologik ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim qilingan situatsion xaritalarning ishonchli va aniq asoslangan ma'lumotlar asosida kiritilishini ta'minlash, shuningdek, ularni Ekologiya vazirligi hududiy boshqarmalarining mas'ul xodimlari tomonidan tasdiqlash jarayonlarini tartibga solish maqsadida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Buyurtmachi tomonidan loyiha hujjatlari Davlat ekologik ekspertizasi markazining eco-service.uz dasturi orqali elektron kiritilgandan so'ng ariza shakillantiradi hamda dastur orqali avtomatik tarzda tuman (shahar) inspeksiya bo'lim boshlig'i va mas'ul inspektorlarning profiliga yuboriladi.

Tuman (shahar) ekologik inspeksiya bo'limi boshlig'i va inspektorlari eco-service.uz dasturiga elektron raqamli imzosi orqali kiritishadi va situatsion xaritalarni ko'rib chiqadi. Inspektorlar situatsion xaritada belgilangan obyekt joylashgan hududga chiqib, obyektning geografik koordinatalari, rekreatsiya zonalari, aholi ya-shash joylari, suv va gaz quvurlari kabi ma'lumotlar situatsion xaritaga mos kelishini tekshiradi.

Agar barcha ma'lumotlar to'g'ri bo'lsa, situatsion xaritani tasdiqlaydi va tizim ushbu maruzani Davlat ekologik ekspertizasi markaziga yuboradi. Agar tekshiruv vaqtida kamchiliklar aniqlansa, situatsion xarita inspektorlar tomonidan rad etiladi.

INSPEKTORLAR TOMONIDAN SITUATSION XARITALAR QUYIDAGI MUDDATLARDA KO'RIB CHIQILADI HAMDA TASDIQLANADI:

- I toifa** – atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning I toifasiga mansub obyektlarning situatsion xaritalari **10 ish kunida**;
- II toifa** – atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning II toifasiga mansub obyektlarning situatsion xaritalari **7 ish kunida**;
- III toifa** – atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning III toifasiga mansub obyektlarning vaziyat xaritalari **5 ish kunida**;
- IV toifa** – atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning IV toifasiga mansub obyektlarning vaziyat xaritalari **3 ish kunida**.

Ekologik nazorat inspeksiyasi tuman (shahar) inspeksiya bo'lim boshlig'i va mas'ul inspektorlari tomonidan "situatsion xaritalar" tasdiqlanganidan so'ng buyurtmachining arizasi Davlat ekologik ekspertizasi markazi ma'sul xodimiga kelib tushadi hamda keyingi ekologik ekspertiza ishlari olib boriladi.

Ma'lumot uchun, ilgari bu jarayon tadbirkorlik subyektlari uchun ancha murakkab bo'lgan va ko'p vaqt talab qilgan, chunki loyihalarning barcha hujjatlari qog'ozda tayyorlanib, tegishli idoralarga qo'lda topshirilishi kerak edi. Bu holat qator muammolarni keltirib chiqargan, jumladan, ovoragarchilik, tezkorlikning yo'qligi, hujjatlarni kuzatishdagi qiyinchiliklar, resurslarning ko'p sarflanishi. Hujjatlar endi elektron shaklda taqdim etiladi, bu esa jarayonni sezilarli darajada soddalashtirib, vaqtni tejaydi va ovoragarchiliklarni kamaytiradi.

“World cleanup day”: respublikamiz hududlari chiqindilardan tozalandi



20-sentabr kuni respublikamizning barcha hududlarida “World cleanup day” — “Butunjahon tozalik kuni” munosabati bilan “Hayot uchun joy ajrating” shiori ostida ommaviy plogging ekoaksiyasi tashkil etildi.

Aksiya Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, vazirlik huzuridagi Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi tomonidan “Coca-cola” kompaniyasi va “O'zsanoatqurilishbank” hamkorligida “Hayot uchun joy ajrating” shiori ostida o'tkazildi.

Tadbirda Ekologiya vaziri Aziz Abduhakimov, Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi, Toshkent viloyati Ekologiya boshqarmasi hamda tizim tashkilotlar vakillari, yosh ekofaollar, maktab o'quvchilari, ommaviy axborot vositalari ishtirok etdi.

“Chiqindidan tozalanadigan joydan chiqindi tashlanmaydigan joy pokizaroqdir. Shuning uchun, avvalo, chiqindilarni duch kelgan joyga tashlamaslik kerak, — dedi Aziz Abduhakimov. — Asosiy maqsadimiz keng jamoatchilikning chiqindilarga bo'lgan munosabatini o'zgartirish va bu orqali chiqindilar hosil bo'lishini kamaytirish. Aslida, faqat “Butunjahon tozalik kuni”da emas, har kuni atrof-muhitni toza saqlashimiz lozim”.

Aksiya davomida ishtirokchilar vazir boshchiligidagi belgilangan hududni chiqindilardan tozalashdi. Shuningdek, 12 ta jamoa plogging musobaqasida bellashdi. Unda 120 kg chiqindi to'plagan Toshkent viloyatining 31-maktab jamoasi birinchi o'rinni egalladi. Plogging davomida jami 575,13 kg chiqindi yig'ildi. Aksiya davomida to'plangan 100 kg plastik idishlar qayta ishlash uchun yuborildi.

Ta'kidlash joizki, “Butunjahon tozalik kuni” tadbirlarida respublika bo'yicha 1000 dan ortiq ishtirokchi qatnashdi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida hududlar jami 36,506 tonna chiqindilardan tozalandi.



“TOZA HAVO” OYLIGI: TOSHKENTDA AVTOMOBILLAR EKOLOGIK NAZORATDAN O'TKAZILDI

Poytaxtimizda “Toza havo” oyligining ikkinchi bosqichi tashkil etildi. Bunda YPX maskanlari, ko'chalar hamda avtokorxonalariga kirish va chiqish joylarida foydalanishda bo'lgan avtotransport vositalari tekshiruvdan o'tkazildi.

Ma'lumot o'rnida ta'kidlash lozimki, “Toza havo” oyligi O'zbekiston Respublikasining “Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida”gi qonuni hamda “Ekologik nazorat to'g'risida”gi qonuni talablari ijrosini ta'minlash, foydalanishda bo'lgan avtotransport vositalarining ekologik holati yuzasidan davlat ekologik nazorat olib borish maqsadida respublika miqyosida doimiy tarzda tashkil etildi.

Xususan, joriy yilning 10-apreldan 10-mayga qadar “Toza havo” oyligining birinchi bosqichi, 10-avgustdan 10-sentabrga qadar ikkinchi bosqichi bo'lib o'tdi. 10-sentabrdan 10-oktabrga qadar esa tadbir Toshkent shahrida davom ettirildi.

Mazkur tadbir davomida atmosferaga davlat standartlarida belgilangan normalardan ortiq ifloslantiruvchi moddalar chiqarayotgan texnika vositalari aniqlanmoqda va ularning faoliyati nuqsonlari bartaraf etilgunga qadar to'xtatilmoqda.

“Toza havo” oyligining birinchi bosqichida jami 205 ming 184 ta, ikkinchi bosqichida esa 167 ming 324 ta avtotransport vositasi ekologik nazoratdan o'tkazildi. Nosoz texnika vositalari vaqtincha to'xtatilib, ta'mirlatish evaziga birinchi bosqichda jami 147,2 tonna, ikkinchi bosqichda esa 82,1 tonna ifloslantiruvchi moddalar atmosfera havosiga chiqarilishining oldi olindi.

Shu bilan birga, davlat standartlarining belgilangan normalarini qo'pol ravishda buzgan avtotransport haydovchilariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining tegishli moddalari bilan choralar ko'rilmogda.



Foto: Azamat Zaripov

TOSHLARDA AKS ETGAN JOZIBA

Navoiy viloyatining chekka Uchquduq tumanida joylashgan «Tosho'rmon» qo'riqxonasi haqida ko'pchilik eldoshlarimiz yaxshi bilmasligi mumkin.

Biroq bu yerga bir borsangiz, atrofni ko'zdan kechirib chinakam mo'jizaga guvoh bo'lasiz. Hududning betakror tabiiy go'zalligi va ekologik xilma-xilligini ko'rib, hayratingiz oshishi aniq.

«Tosho'rmon» hududi azaldan tabiatning ajabtovur va takrorlanmas obidasi sanalgan. Dunyoda bunga o'xshash joylar juda kam. Shu boisdan ham bu yerni asrab-avaylash davlat ahamiyatiga molik vazifalar sirasiga kiradi. Mintaqaning boy flora va faunasini muhofaza qilish maqsadida qo'riqxona tashkil etilishi ana shu vazifalarni izchil davom ettirishga omil bo'ladi. Mazkur qo'riqxona 2000 yillarning boshida tashkil etilgan. Uni tashkil etish to'g'risidagi hukumat qarori hududning o'ziga xos ekologik qiymatini e'tirof etish hamda uning xilma-xil ekotizimlarini, o'rmonlarni kesish, brakonyerlik va yashash muhitini yo'q qilish kabi tahdidlardan himoya qilish zarurati bilan bog'liq. Shuningdek, uning tashkil etilishi O'zbekistonning atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishga intilishida muhim bosqich bo'ldi. «Tosho'rmon»ning boy tarixi bir necha asrlarga borib taqaladi. Bu yerda qadimiy aholi yashash manzilgohlari va bir paytlar mintaqani kesib o'tgan savdo yo'llari haqida dalillar mavjud. «Tosho'rmon» qo'riqxonasi Navoiy viloyatining shimoliy qismida, Uchquduq shahri yaqinida joylashgan. Taxminan 1200 kvadrat kilometr maydonni egallagan qo'riqxona turli xil landshaftlarni, jumladan, cho'llar, dashtlar va yarim qurg'oqchil hududlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotchi olimlarning fikriga ko'ra o'ttiz million gektar maydonni egallab yotgan Qizilqum kengliklari o'rnida bundan bir necha million yillar ilgari Tetis dengizi mavjlanib turgan degan taxminlar mavjud. Haqiqatan, hozir ham Mingbuloq ovuli atrofida tosh qotgan chig'anoqlar, akula tishlari va suyaklari, hatto

o'rdakburun, dinozavrning toshga aylangan suyaklarini uchratish mumkin. Mingbuloq ovulidan 30 kilometr uzoqlikda joylashgan «Jiraquduq» (o'zbek tilida «jira – jilg'a» ma'nosini bildiradi) darasidagi bundan 95-100 million yil avval mavjud bo'lgan, hozirda «Tosho'rmon» deb ataluvchi noyob geologik, paleontologik, tarixiy va tabiiy ob'yekt dunyo olimlarini hamon o'ziga jalb qilib kelmoqda. Kaliforniyalik paleontolog olim, professor Jeyms Devid Archibald rahbarligidagi O'zbekiston, Rossiya, Buyuk Britaniya, Amerika va Kanada davlatlari hamkorligida faoliyat yuritgan (O'RBAK) Xalqaro ekspeditsiya sa'y-harakatlari bilan Qizilqum tabiatining bunday noyob mo'jizasi to'g'risida ko'pchilik xabardor bo'ldi.

Bu mo'jiza Tetis dengizi qirg'oqlari va unga kelib tushgan meteoritlar bilan bog'liq degan taxminlar bor. Aytishlaricha, koinotdan yerga meteoritlarning qulashi natijasida dengiz suvi parchalanib, bu yerlar yuz yillar davomida quyosh nuridan panada – chang va to'zon girdobida qoladi. Natijada, barcha fizik jismlar kimyoviy tarzda qorishib dengiz atrofida o'rmonzorlar, suvda va quruqlikda yashagan hayvonlar o'ziga bir shaklga, ya'ni toshga aylanadi...

Haqiqatan ham «Tosho'rmon» hududida bo'lgan kishi tarixiy-tabiiy manzarani: tosh qotgan chig'anoqlar, akula tishlari va suyaklari, daraxt tanalari, hattoki, o'rdakburun dinozavrning toshga aylangan boldir suyaklarini ham ko'rishi mumkin. Bularning barchasi Qizilqum hududi qachonlardir okeanning bir bo'lagi bo'lganidan dalolat beradi. Darhaqiqat, bu o'lkaning tarixi uzoq-uzoqlarga borib taqaladi. Qoyatoshlarga bitilgan rasmlar, toshga aylangan daraxtlar, tosh qotgan o'rdakburun dinozavrlar moziydan sado berib turibdi. Toshga aylangan o'rmonlar sayyoramizda kamdan kam uchraydigan holat. Bugungacha xuddi shunday o'rmon AQSHda aniqlangan. Aniqrog'i, Arizona shtatida daraxtlari quyoshda kamalak ranglarida tovlanuvchi o'rmon qoldiqlari joylashgan. «Toshga

aylangan o'rmon» deb ataluvchi milliy bog' turli minerallarga aylangan daraxtlar to'nkalaridan va tanalaridan tashkil topgan. 200 million yil avval qalin o'rmon bo'lgan hudud iqlim va geografik o'zgarishlar natijasida cho'lga aylangan. Uchquduq tumanidagi «Tosho'rmon» qo'riqxonasi mamlakatimiz tabiati rang-barang va mo'jizakor ekanidan darak beradi. U o'zining noyob geografiyasi, boy biologik xilma-xilligi va madaniy ahamiyati bilan Markaziy Osiyoning qurg'oqchil landshaftlarida joziba kasb etadi.

Laylo KARIMOVA.

TERMIZ HAYVONOT BOG'IDA XONGUL BOLALADI

Termiz hayvonot bog'ida saqlanayotgan noyob turdagi Xongul — Buxoro bug'usi bolaladi. Ayni paytda jonivorning salomatligi yaxshi, u veterinarlarning nazorat ostiga olingan.

Bugungi kunda hayvonot bog'ida 4 bosh — 2 bosh erkak, 2 bosh urg'ochi Buxoro bug'usi saqlanmoqda.

Xongul (Buxoro bug'usi) — yo'q bo'lib ketayotgan, lokal tarqalgan kenja tur hisoblanadi. O'tmishda Sirdaryo va Amudaryo havzalarining barcha to'qayzorlarida keng tarqalgan.

Hozirda Amudaryo vodiysining yuqori (Surxondaryo viloyati) va o'rta (Buxoro viloyati Qizilqum qo'riqxonasi) oqimida yashovchi, Zarafshon Milliy tabiat bog'i va Quyi Amudaryo biosfera rezervati, shuningdek, Zarafshon daryosi yuqorisida — O'zbekiston va Tojikiston chegarasidagi aborijen populyatsiyalari, introduksiya va reintroduksiya yo'li bilan yuzaga kelgan sun'iy guruhlar mavjud.

Ekologiya posbonlari tomonidan Buxoro bug'ulari yashash areallari, ularning populyatsiyasi monitoringi olib borilmoqda. Ushbu noyob turdagi jonzorlar muhofazasini ta'minlash, ularni yanada ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Farhod ESANOV.



Ustyurt qo'yi ko'paymoqda



Ustyurtda turli hayvonlar va qushlarni uchratish mumkin. Go'yoki bu maskan ularning oxirgi najot maskanidek. Xususan, Ustyurt qo'yi ham bu yerda tez-tez uchrab qoladi.

Ular butunlay yo'q bo'lib ketish arafasida turgan, lokal tarqalgan kenja tur sanaladi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»iga va TMXI «Qizil ro'yxat»iga kiritilgan bo'lib, hozirgi vaqtda bu tur Ustyurt tekisligining janubiy qismida Qozog'iston va Turkmaniston Respublikalari bilan chegaradosh bo'lgan Sariqamish ko'li atrofidagi chinklarda, Quriqko'l va Qoplonqir hududlarda tranchegaraviy populyatsiyaning bir turi bo'lib yashab kelmoqda. Bu hududlar «Janubiy Ustyurt» milliy tabiat bog'i tasarrufida bo'lib, muhofaza ostiga olingan. Ustyurt qo'ylari poda hosil qilib, o'troq holda yashaydi. Juftlashish davri oktabr-dekabr oylari. Mart-aprel oylarida bir yoki ikkitadan bolalaydi. Bolalari bir yoshgacha onasidan ajramaydi. Qo'chqorning vazni 58-79 kg, tanasining uzunligi 121-147 sm, bo'yi 77-98 sm, shoxlarining uzunligi 92 sm gacha, boshining ikki yonida chala o'rama hosil qiladi. Urg'ochisi erkagiga nisbatan kichikroq, vazni 36-56 kg, shoxlari ingichka va nisbatan kalta (uzunligi 25-30 sm). Erkagining bo'yni ostida qalin yoli bo'ladi, tumshug'i ostida qalin yungi (soqoli) bo'lishi bilan boshqa kenja turlardan farq qiladi. Ustyurt qo'yi cho'l sharoitiga moslashgan jonivorlardan sanaladi.

U odam va yirtqich hayvonlar o'tolmaydigan tik qiyaliklar va jarliklar ustida yashaydi. Yozda kechasi o'tlaydi, sho'rlangan buloq suvi bilan qanoatlanadi, qishda va bahorda ko'pincha kunduzi o'tlab, ko'lmak bo'lib qolgan yomg'ir suvidan ichadi. Qo'zisi 2,5-3 yoshda voyaga yetadi. Hayot davomiyligi – 12 yil. Asosan o't-o'lanlar, daraxtlar yaprog'i bilan oziqlanadi.

Sanoq natijalariga ko'ra, milliy tabiat bog'i hududidagi Ustyurt qo'yining soni 2021-yildagiga nisbatan biroz ko'paygan. Olib borilgan yillik sanoq natijasiga ko'ra, bosh soni 2021-yilda 27 ta bo'lgan bo'lsa, 2023-yil kuzida 58 boshni tashkil qilgan. Milliy tabiat bog'i hududidagi Ustyurt qo'ylari uchraydigan Qoplonqir, Qariqko'l, Sariqamish ko'li atrofidagi chink va chuqur botiqlar, jarlikarlarda uchragan izlarga foto va video qopqonlar o'rnatish natijasida Ustyurt qo'ylarining foto, video ma'lumotlari olinmoqda.

Ba'zilar Ustyurt qo'yini tog' echkisi bilan bir xil jonivor deb o'ylaydi. Aslida bu mutlaqo xato. Negaki, Ustyurt qo'yi tog' echkisiga qaraganda chidamli va o'ta ziyrak hayvon. Tog' echkisi sho'r suvni icholmasligi, dag'al hashaklar bilan oziqlanmasligi mumkin. Ammo Ustyurt qo'ylari o'zimizning jaydari jonivorlarimiz sifatida har qanday og'ir sharoitga ham chidaydi. Bizning maqsadimiz Orolbo'yi tabiati va hayvonot dunyosini ko'z qorachig'iday asrab, ularning ko'payishi, emin-erkin tabiat bag'rida yashashiga sharoit yaratishdan iborat. Bu kabi ezgu maqsadlar yo'lida milliy tabiat bog'lari tashkil qilingani esa ayni muddao bo'lmoqda.

Botirbek UZOQOV,

«Janubiy Ustyurt» milliy tabiat bog'i ilmiy xodimi.

ILMIY MAQOLALAR

**IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA AMUDARYO HAVZASI
SUV RESURLARINING MIQDOR VA SIFAT
KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH
(O'ZBEKISTON HUDUDI)****Gapporov Xayrillo Lutpillayevich,**

mustaqil izlanuvchi, kimyo fanlari nomzodi, dotsent,

Qulmatov Rashid Anorovich,

O'zbekiston Milliy universiteti professori, kimyo fanlari doktori.

Annotatsiya. Bugungi kunda jahonda iqlim o'zgarishlari va antropogen omillar ta'siri natijasida mavjud suv resurslari miqdorining kamayishi va ifloslanishi asosiy ekologik muammolardan biriga aylandi.

Ushbu maqolada Amudaryoning O'zbekiston qismidagi suv resurslarining miqdori, sifati, daryo suvidagi og'ir metallar miqdorlari, mazkur hududda hosil bo'lgan kollektor-zovur suvlarining minerallashuvi va miqdorini aniqlash hamda daryo suvi ifloslanishiga sabab bo'luvchi asosiy omillarni baholash nazarda tutilgan.

Maqolada ko'p yillik tadqiqot natijalariga asoslanib Amudaryo suvi minerallashuvi darajasining O'zbekiston hududida yuqori qismidan quyi qismiga qarab 1,35 barobardan 1,74 barobargacha ortib borganligi aniqlangan.

Og'ir metallar Cu, Zn, Cr (VI) miqdori Amudaryoning yuqori oqimidan quyi oqimiga qarab Cu miqdori o'rtacha 1,1 barobardan 1,5 barobargacha, Zn miqdori 1,1 barobardan 2,6 barobargacha, Cr (VI) miqdori 1,1 barobardan 1,8 barobargacha oshgan.

Amudaryo havzasida hosil bo'layotgan kollektor-zovur suvlari minerallashuvi yillik o'rtacha eng kam qiymati Surxondaryo viloyatida (1.44 g/l), eng yuqori qiymati Qashqadaryo viloyatida (5.28 g/l) kuzatilgan.

Kollektor-zovur suvlari hajmining o'rtacha yillik miqdori 6010 mln m³ dan 9283 mln m³ gacha, ular tarkibidagi tuz miqdori yillik o'rtacha 19039 ming tonnadan 27769 ming tonnani tashkil etgan.

Amudaryo suvi hamda uning havzasidagi kollektor-zovur suvlari minerallashuvining havo harorati va yog'ingarchilik miqdoriga bog'liqligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Amudaryo daryosi, og'ir metallar, kollektor-zovur suvlari, minerallashuv, sifat o'zgarishlari, miqdor o'zgarishlari, baholash.

Абстрактный. В настоящее время в результате изменения климата и антропогенных факторов истощение и загрязнение водных ресурсов стали одной из основных экологических проблем.

Целью данного исследования является выяснение объема и качества водных ресурсов узбекского участка Амударьи, оценка концентрации тяжелых металлов в речной воде, оценка минерализации и количества коллекторно-дренажных вод, образующихся в этом регионе, а также комплексное исследование. оценить основные факторы, способствующие загрязнению речной воды.

Результаты многолетних исследований показывают, что минерализация воды реки Амударьи от верхней части территории Узбекистана к нижней части за эти годы увеличилась от 1,35 до 1,74 раза.

Количество тяжелых металлов (Cu, Zn, Cr(VI)), в зависимости от верхнего участка реки Амударья от нижнего, количество Cu в среднем от 1,1 раза до 1,5 раза, количество Zn от 1,1 раза до 2,6 раза, количество Cr(VI) увеличилось с 1,1 раза до 1,8 раза.

Минимальное среднегодовое значение минерализации коллекторно-дренажных вод в бассейне реки Амударьи составляет 1,44 г/л, в Surxandaryinskoy oblasti наибольшее значение - 5,28 г/л, в Kashkadaryinskoy oblasti.

Среднегодовой показатель объема коллекторно-исходной воды составляет от 6010 млн м³ до 9283 млн м³, количество солей составило 27769 тыс. тонн при среднегодовом значении 19039000 тонн.

Установлено, что среднее значение количества тяжелых металлов в воде реки Амударья увеличивалось от верхнего к нижнему участку реки в зависимости от местоположения участка мониторинга.

Ключевые слова: Амударья, коллекторно-дренажные воды, минерализация, качественные изменения, тяжелые металлы.

Abstract. Currently, as a result of climate change and anthropogenic factors, depletion and pollution of water resources have become one of the main environmental problems.

This study is designed to ascertain the volume and quality of water resources within the Uzbekistan section of the Amu

Darya, assess the concentration of heavy metals in the river water, evaluate the mineralization and quantity of collector-drainage waters generated in this region, and comprehensively evaluate the primary factors contributing to the pollution of the river water.

The results of many years of research show that the mineralization of the water of the Amudarya River from the upper part of the territory of Uzbekistan to the lower part has increased from 1.35 to 1.74 times over the years.

The amount of heavy metals (Cu, Zn, Cr (VI)), depending on the upper part of the Amudarya river from the lower part, the amount of Cu is on average from 1.1 times to 1.5 times, the amount of Zn is from 1.1 times to 2.6 times, the amount of Cr (VI) It increased from 1.1 times to 1.8 times.

The minimum average annual value of salinity of collector-drainage water in the Amudarya river basin is 1.44 g/l, in the Surkhondarya region, the highest value is 5.28 g/l, and in Qashqadarya region.

The average annual indicator of the volume of the collector-source water is from 4,010 million m³ to 9,283 million m³, the amount of salts was 27,769 thousand tons from the annual average of 19,039,000 tons.

It was determined that the average value of the amount of heavy metals in the water of the Amudarya River increased from the upper to the lower part of the river depending on the location of the monitoring site.

Keywords: Amudarya, collector-drenaj waters, mineralization, quality changes, heavy metals.

1. Kirish.

Orol dengizi havzasida 5 ta Markaziy Osiyo respublikalari (O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmaniston) joylashgan bo'lib, ularning hududi 3 mln. 882 km², sug'oriladigan yer maydoni 7,95 mln. gektarni tashkil etadi [1,2]. Orol dengizi havzasi mamlakatlarining (ODH) suv resurslari asosan Amudaryo va Sirdaryo havzasi suv resurslaridan iborat, o'rtacha ko'p yillik hajmi 126 km³ va 14,7 km³ yer osti suv zaxiralaridan tashkil topgan [3-6].

Suv tanqisligi, suv va yer resurslari sifatining yomonlashuvi ODHning barcha mamlakatlarida kuzatilmoqda va bu holat ushbu mamlakatlar barkaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda [7-9]. Iqlim o'zgarishlari tufayli havo haroratining ko'tarilishi daryolar havzalarida bug'lanishning ortishi, baland tog'larda esa qor va muzliklarning jadal sur'atlarda erishi va pirovard natijada suv resurslarining yanada kamayishiga olib keladi [10-13].

ODH mamlakatlarida suv iste'moli tarkibida asosiy ulushni qishloq xo'jaligida sug'orish va undan keyin sanoat va kommunal xo'jaliklarida suvdan foydalanish tashkil etadi [14,15].

ODH davlatlarining sug'oriladigan yerlaridan kollektor-zovurlarga yiliga 55,0-60,0 million tonna, jumladan, Amudaryo havzasidagi sug'oriladigan maydonlardan 12,6-20,1 million tonna tuzlar tushib, ular suv resurslarining ifloslanishiga olib kelmoqda. Tuzlar tarkibida kalsiy gidrokarbonat, kalsiy, magniy, natriy sulfat va natriy xloridning miqdori yuqoriligi aniqlangan [16-18].

Amudaryo va Sirdaryo suv resurslari sifatiga qishloq xo'jaligi faoliyatining ta'siri o'rganilganda, ushbu salbiy ta'sirning asosiy sababi qishloq xo'jaligida muttasil mineral o'g'itlar va pestisidlardan foydalanish ekanligi aniqlangan. Daryolarning yuqori oqimidan quyi oqimiga o'tgan sari ular suvining minerallashuvi va tarkibidagi turli moddalar miqdorining ortib borishi aniqlangan [19-23].

Qishloq xo'jaligida sug'orishdan keyin hosil bo'lgan kollektor-zovur suvlarining hamda yetarli darajada tozalanmagan sanoat va maishiy oqova suvlarning daryolarga quyilishi tufayli suv resurslarining minerallashuv darajasi hamda ular tarkibidagi og'ir metallar va boshqa ifloslantiruvchi moddalar miqdori ortgan va bu jarayon davom etmoqda [24-26].

Amudaryoning yuqori oqimida suvning minerallashuvi ularda og'ir metallarning tarqalishi, daryo suv sifati parametrlarining daryo oqimi bilan bog'liqligi o'rganilgan [24].

O'zbekistonning turli hududlarida daryo suvlarining ifloslanish darajasini tahlil qilish bo'yicha bir qancha tadqiqotlar o'tkazilgan.

Jumladan, Amudaryoning o'rta va quyi oqimidagi suvning minerallashuvi, gidrokimyoviy tahlili, suvning sifatiga ta'sir qiluvchi omillar, daryo suvida og'ir metallarning tarqalishi, daryo suvi sifati parametrlarining daryo oqimi bilan bog'liqligi o'rganilgan [27-29].

O'zbekiston hududida, Amudaryo va Sirdaryo suvlarida Hg, Cr, Cd, Co, U, Zn, Sc, Fe, Br, Au va Sm kabi og'ir metallarning miqdorlari neytron-aktivatsion va radionuklidlar yordamida o'rganilgan. Daryolar suvlarida og'ir metallar kationli, anionli kolloid va neytral birikmalar holatida uchragan. Neytral va kolloid shakllarning nisbati o'rganilayotgan metallarning aksariyati uchun 40% ni tashkil qilgan [26].

Ushbu tadqiqot ishining maqsadi ODH mamlakatlari asosiy daryosi bo'lgan Amudaryoning O'zbekiston qismidagi suv resurslarining miqdori, sifati tarkibidagi o'zgarishlarini, daryo suvidagi og'ir metallar miqdorlarining vaqt va masofadagi o'zgarishlari dinamikasini, mazkur hududda hosil bo'lgan kollektor-zovur suvlarining minerallashuvi va miqdorini aniqlash hamda daryo suvi ifloslanishiga sabab bo'luvchi asosiy omillarni baholash va ularni muhofaza qilish bo'yicha takliflar berishdan iborat.

2. Tadqiqot ob'yekti va usullar.

Tadqiqot ob'yekti sifatida Amudaryoning o'rta va quyi oqimi bo'lgan O'zbekiston qismi olingan. Daryoning uzunligi Panj va Vaxsh daryolari qo'shilgan joydan to Orol dengiziga qadar 1415 km, Panj daryosining boshlanish qismi Voxondaryo bilan birgalikda 2620 km, daryo havzasi 390 000 km² ni tashkil etadi (1,1a -rasmlar). Amudaryo havzasi daryolari yig'indi oqimining o'rtacha ko'p yillik miqdori 68 km³. Ushbu suv resurslarining 80 foizi Tojikistonda, qolgan qismi Afg'onistonda, O'zbekistonda shakllanadi [30].

2.1. Iqlimi.

Amudaryo havzasi relyefi turlicha bo'lgan ikki qismdan iborat: daryo oqimining asosiy qismi hosil bo'ladigan tog'li



1-rasm. Amudaryo havzasining gidrografik tarmoqlari (<http://www.cawater-info.net>)

hududlar va oqim sarflanadigan tekisliklar.

Daryo havzasining katta masofaga cho'zilganligi, balandliklarning sezilarli darajada o'zgarishi, relyef va landshaft shakllarining turlicha bo'lishi («abadiy» qor va muzliklar bilan qoplangan baland tog' tizmalaridan boshlab, issiq suvsiz cho'llargacha) iqlim sharoitlarining ham turlicha bo'lishiga sabab bo'ladi.

Amudaryo havzasi hududi dyengiz va okeanlardan uzoqda joylashganligi tufayli issiq va quyoshli kunlar ko'p bo'lgan kontinental iqlimi bilan ajralib turadi. Uning katta qismini Qoraqum va Qizilqum cho'llarining qumli cho'llari, shuningdek, quruqligi bilan ajralib turadigan yarim cho'llarning keng tekis kengliklari egallaydi.


Daryo havzasi iqlimining keskin kontinental va quruqligi, havo haroratining yozda yuqori turg'un, qishda beqaror past holati va haroratning oylar va yil davomida keskin o'zgarib turishi, atmosfera yog'inlarining kamligi va ularning yil fasllari bo'yicha notekis taqsimlanishi, qishning qisqaligi, bu davrda sovuq va issiq haroratning tez-tez almashtirib turishi, bahorning erta kelishi, jazirama va quruq yoz bilan tez almashishi bilan xarakterlanadi [31].

Yillik yog'in miqdori 220 mm, Amudaryoning quyi oqimida 100 mm dan oshmaydi. Daryoning o'rta oqimida o'rtacha yillik harorat +14 dan +17°C gacha, qishda — +1 dan +2°C gacha, yozda — +30 dan +32°C gacha, quyi oqimida esa o'rtacha yillik harorat +11 dan +14°C gacha, qishda esa -4 dan -6°C gacha, yillik ijobiy haroratlar yig'indisi 5000-5500°C ga, o'ta janubda va cho'lda 6000°C ga yetadi. Tog'lararo vodiylar yog'ingarchilikning ko'pligi — 450-700 mm va issiq iqlimi bilan ajralib turadi. Yillik o'rtacha harorat +16+18°C, yozda esa +32°C [32].

Amudaryo havzasida joylashgan O'zgidromet tasarrufidagi 20 ta gidrometeorologik stansiyalarning ko'p yillik ma'lumotlariga ko'ra, havzada o'rtacha yillik harorat 2013-2022-yillar davomida +14+15°C, o'rtacha maksimum harorat +28+29°C hamda o'rtacha minimum harorat 1,6-2,5°C ni tashkil qilgan (2-rasm).



1a-rasm. Amudaryoning gidrografik tarmoqlari sxemasi (<http://www.cawater-info.net>)



2-rasm. Amudaryo havzasining o'rtacha ko'p yillik havo harorati

Amudaryo havzasi hududlarida yillik yog'ingarchiliklarning o'rtacha miqdori 73-368 mm. Yog'ingarchiliklar yillik umumiy miqdorining taxminan 40-45% qismi bahor fasliga, 25-35% qish fasliga, 15-20 % kuz fasliga to'g'ri keladi (3-rasm).


2.2. Tadqiqot usullari.

Tadqiqot ishlarida O'zbekiston gidrometeorologiya xizmati agentligining yer usti suvlari sifati bo'yicha ma'lumotlari, Suv xo'jaligi vazirligining kollektor-zovur tarmoqlari haqidagi birlamchi ma'lumotlari olindi. Ma'lumotlar chuqur statistik qayta ishlangan. Amudaryo suvining O'zbekiston qismidagi gidrologik va kimyoviy tahlili 5 ta gidropostlardan olingan suv namunalarining tahlillari natijalari asosida baholandi.

Daryo suvi namunalari Termiz shahri (1-gidropost), Tuyamo'yin darasi (2-gidropost), Qipchoq shaharchasi (3-gidropost), Nukus shahri (4-gidropost), Qiziljar qishlog'i (5-gidropost) yaqinidan olingan (1-jadval).

3. Natijalar va ularning muhokamasi.

Amudaryo havzasi bo'yicha vegetasiya davri uchun (1-apreldan – 1-oktabrgacha) suv bilan ta'minlanish ko'rsatkichlari dinamikasi tahlil qilingan. Unga ko'ra, 2017-yilda eng yuqori ko'rsatkich 38,0 km³, eng quyi ko'rsatkich 2021-2022-yillarda 31,38 km³ ni tashkil etgan (6-rasm).



3-rasm. Amudaryo havzasida o'rtacha ko'p yillik yog'ingarchilik miqdori, mm
(<https://chrsdata.eng.uci.edu>)

1-jadval

Amudaryo daryosi suvi tahlili uchun namunalar
olingan gidropostlar

Gidropost raqami	Gidropost joylashgan joyi
1	Termiz shahri Surxondaryo quyiladigan joydan 2,5 km quyida
2	Tuyamo'yin suv omboridan 8 km quyida
3	Qipchoq shaharchasidan 0,5 km yuqorida
4	Nukus shahridan 12 km quyida, Samanbay qishlog'i chegarasida
5	Qiziljar qishlog'idan 1 km yuqorida

Daryo havzasining yuqori qismida joylashgan Nurek suv omboriga quyilgan suv miqdori 2023-yilning vegetasiya davrida $16,79 \text{ km}^3$ ni, suv ombordan chiqarilgan suv miqdori $13,28 \text{ km}^3$ tashkil etgan. Vegetasiya mavsumining boshida Nurek suv omborida $6,38 \text{ km}^3$ suv to'plangan, vegetasiya davrining oxiriga kelib ularda to'plangan suvning umumiy hajmi $10,51 \text{ km}^3$, ya'ni daryo havzalaridan $3,51 \text{ km}^3$ oqim suv omboriga quyilgan (4-rasm).


Amudaryo havzasining kuyi qismida joylashgan Tuyamo'yin suv omborida esa vegetasiya mavsumining boshida $2,7 \text{ km}^3$ suv to'plangan, vegetasiya davrining oxiriga kelib ularda to'plangan suvning umumiy hajmi $3,48 \text{ km}^3$, ya'ni daryo havzalaridan $0,78 \text{ km}^3$ oqim suv omboriga quyilgan (4a-rasm).

Vegetasiya mavsumida Amudaryodan olingan jami suv miqdori $33,19 \text{ km}^3$ ni tashkil etgan. Bundan O'zbekiston $12,4 \text{ km}^3$ daryo suv resurslaridan foydalangan (5-rasm).


Amudaryo havzasi bo'yicha vegetasiya davri oralig'ida (1 oktabrdan – 1 aprelgacha) yillar kesimida suv bilan ta'minlanish ko'rsatkichlari baholanganda, 2019-2020-yillarda eng yuqori ko'rsatkich $16,16 \text{ km}^3$ ni, eng quyi ko'rsatkich 2020-2021-yillarda $13,17 \text{ km}^3$ ni tashkil etgan.




4-rasm. Nurek suv ombori



4a-rasm. Tuyamo'yin suv ombori



5-rasm. Amudaryo havzasida vegetasiya davri uchun suv bilan ta'minlanganlik darajasi dinamikasi



6-rasm. Amudaryo havzasi bo'yicha vegetasiya davrlari oralig'ida suv bilan ta'minlanganlik darajasi dinamikasi

Xususan, 2023-yil 1-oktabr – 2024-yil 1-aprel vegetatsiya davrlari oralig'ida Nurek suv omboriga quyilgan suv miqdori 3,81 km³ ni, suv ombordan chiqarilgan suv miqdori 7,65 km³ tashkil etgan. Vegetasiya davrlari oralig'i mavsumining boshida Nurek suv omborida 10,51 km³ suv to'plangan, vegetasiya davrlari oralig'i mavsumining oxiriga kelib ularda to'plangan suvning umumiy hajmi 6,02 km³, ya'ni daryo havzalaridan 3,84 km³ oqim suv omboridan chiqarilgan.

Tuyamo'yin suv omborida esa vegetasiya davrlari oralig'i mavsumining boshida 3,48 km³ suv to'plangan, vegetasiya davrlari oralig'i mavsumining oxiriga kelib ularda to'plangan suvning umumiy hajmi 2,97 km³, ya'ni 0,51 km³ miqdor suv omboridan chiqarilgan.

Vegetasiya davrlari oralig'i mavsumida Amudaryodan olingan jami suv miqdori 14,04 km³ ni tashkil etgan. Bundan O'zbekiston 5,28 km³ daryo suv resurslaridan foydalangan (6-rasm).

3.1. Amudaryo suvi minerallashuvi.

Daryolar suvi minerallashuvi darajasini baholash undan turli maqsadlarda foydalanishda muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

Tadqiqot yillarida (2013-2021) Amudaryo suvi minerallashuvining o'rtacha qiymati Termiz shahri chegarasidan Qiziljar qishlog'igacha 0,618-0,961 g/l dan 0,981-1,356 g/l gacha ortganligi kuzatilgan (7-rasm).

Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldiki, aksariyat gidropostlardagi daryo suvi minerallashuvining eng past miqdori 2017-yilda, ya'ni Amudaryo havzasini suv bilan ta'minlanish ko'rsatkichlari eng yuqori bo'lgan ko'p suvli yilda kuzatilgan (7-rasm).

Daryodagi o'rtacha minerallashuv darajasi daryoning o'rta qismidan, ya'ni Amudaryo daryosining Termiz shahridan quyi qismidan Qiziljar qishlog'i chegarasiga qadar 1,35 barobardan 1,74 barobargacha ortib borgan (7-rasm).

Gidropost	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Gidropost 1	0,634	0,618	0,717	0,718	0,632	0,961	0,74	0,778	0,727
Gidropost 2	0,951	0,901	0,791	0,814	0,804	1,024	0,875	0,91	0,885
Gidropost 3	0,977	0,919	0,918	0,933	0,937	1,051	0,912	1,032	1,054
Gidropost 4	1,086	1,099	1,022	1,02	0,986	1,069	0,981	1,162	1,202
Gidropost 5	1,089	1,177	1,076	1,113	1,05	1,297	0,991	1,356	1,21

7-rasm. Amudaryo suvi minerallashuvining o'rtacha qiymati, g/l

3.2. Daryo suvi minerallashuvi darajasiga iqlim o'zgarishining ta'siri.

Tadqiqot ishlarida Amudaryo daryosi suvi minerallashuvi va atmosfera yog'ingarchiliklari orasidagi o'zaro bog'lanish (korrelyatsion koeffitsiyentlar qiymati, Pirson korrelyatsiyasi) kuzatilmagan.

Havo haroratining daryo suvi minerallashuviga bog'lanishi o'rganilganda, havo harorati past bo'lgan holatlarda (qishki) ham o'zaro bog'liqlik kuzatilmagan.

Havo harorati yuqori bo'lgan holatlarda (yozgi) esa 1,4-gidropostlarda $R_1=0,3$, $R_4=0,3$ o'rtacha bog'liqlik, 3,5-gidropostlarda $R_3=0,2$, $R_5=0,1$ kuchsiz bog'liqlikni tashkil etgan, 2-gidropostda esa bog'lanish kuzatilmagan (2-jadval).

2-jadval

Daryo suvi minerallashuvining havo harorati va yog'ingarchilikka bog'liqligi

T/r	Ma'lumotlar (korrelyatsion koeffitsiyentlar qiymati)		
	Havo harorati, °C (yozgi)	Havo harorati, °C (qishki)	Yog'ingarchilik, mm
1	0,3	-0,087	-0,133
2	-0,2	-0,32	-0,256
3	0,2	-0,26	-0,196
4	0,3	-0,087	-0,124
5	0,1	-0,29	-0,205

4. Amudaryo suvi tarkibidagi Cu²⁺, Zn²⁺, Cr⁶⁺ ionlari ning miqdoriy o'zgarishlari dinamikasini aniqlash.

2013-2021-yillar davomida Amudaryo daryosi suvi tarkibidagi og'ir metallar ionlari o'rtacha miqdorining gidropostlar bo'yicha yillar kesimida o'zgarishi dinamikasi o'rganildi (8, 9, 10, 11-rasmlar).

Cu²⁺, Zn²⁺, Cr⁶⁺ miqdorining o'rtacha qiymati daryo gidropostlari joylashuviga qarab quyidagicha o'zgarib turgan:

Termiz shahri gidroposti chegarasidan Qiziljar gidropostigacha mis ioni miqdori 1,1-3,4 mkg/l dan 1,2-3,7 mkg/l gacha, rux ioni 1,5-11,3 mkg/l dan 1,3-26,3 mkg/l gacha, xrom (VI) 0,2-0,6 mkg/l dan 0,1-0,7 mkg/l gacha o'zgarishi aniqlangan (8, 9, 10-rasmlar, yashil rang). Ayrim yillari aksincha, daryoning o'rta oqimidan quyi oqimiga borgan sari metallarning konsentratsiyalari kamayib borganligini ko'rish mumkin. Bu holatni daryoning suv oqimi hamda suv omborida "tinish (cho'kish)" hodisasi bilan bog'lash mumkin (8, 9, 10, 11-rasmlar, ko'k rang).


Daryoning Termiz shahri gidroposti chegarasidan Qiziljar gidropostigacha mis ioni miqdorining o'rtacha qiymati

1,1 barobardan 1,5 barobargacha ortib borgan (8-rasm).


Daryoning yuqori oqimidan quyi oqimiga tushgan sari, Termiz shahri gidroposti chegarasidan Qiziljar gidropostiga kadar rux ioni miqdori o'zgarishi yillar kesimida 1,1 barobardan 2,6 barobargacha ortib borgan (9-rasm).

Daryoning yuqori oqimidan quyi oqimiga qarab, Termiz shahri gidroposti chegarasidan Qiziljar gidropostigacha xrom (VI) miqdori o'zgarishi yillar kesimida 1,1 barobardan 1,8 barobargacha ortib borgan (10-rasm).


Shuningdek, Amudaryo suvi tarkibidagi Fe ioni miqdori ruxsat etiladigan ko'rsatkichdan 3-4 barobarga kamligi aniqlandi (11-rasm).





8-rasm. Amudaryo suvidagi Cu²⁺ o'rtacha miqdorining gidropostlar bo'yicha o'zgarish dinamikasi



9-rasm. Amudaryo suvidagi Zn²⁺ o'rtacha miqdorining gidropostlar bo'yicha o'zgarish dinamikasi



10-rasm. Amudaryo suvidagi Cr (VI) qiymati miqdorining gidropostlar bo'yicha o'zgarish dinamikasi



■ 11-rasm. Amudaryo suvidagi Fe ioni o'rtacha miqdorining gidropostlar bo'yicha o'zgarish dinamikasi

Amudaryoning o'rta oqimida (Termiz shahri gidroposti) ham, quyi oqimida ham og'ir metallar miqdorining (Cu, Zn, Cr(VI), Fe) kamayib borishini rux, mis, xrom (VI), temir katorida joylashtirish mumkin.

5. Amudaryo havzasi kollektor-zovur suvlari.

Amudaryo daryosi suvi minerallashuvining gidropostlar kesimida ortib borishining asosiy sabablaridan biri qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini sug'orishdan keyin hosil bo'lgan kollektor-zovur suvlarining daryoga kelib tushishidir. Daryo havzasida hosil bo'lgan kollektor-zovur suvlarining aksariyat qismi Amudaryo daryosiga kelib tushadi.

Amudaryo daryosi havzasida hosil bo'lgan kollektor-zovur suvlari hajmi, minerallashuvi va tuz miqdorini baholagani-mizda quyidagilar aniqlandi.

Daryo havzasida hosil bo'lgan kollektor-zovur suvlari-

ning umumiy miqdori mamlakat miqyosida yiliga 6,01-9,2 km³, minerallashuvi 1,44-5,28 g/l ni tashkil qilgan. Havzada hosil bo'lgan kollektor-zovur suvlarining eng katta hajmi Tuyamo'yin irrigasiya tizimi hududida hosil bo'ladi (yiliga o'rtacha 4,7 km³). Bu hosil bo'lgan kollektor-zovur suvlarning asosiy qismi Sariqamish pasttekisligiga quyiladi. Surxon — Sherobod massivida esa 1,2 km³, Amudaryo havzasining quyi qismi Qoraqalpog'iston Respublikasining sug'oriladigan maydonlaridan esa o'rtacha 2,3 km³ kollektor-zovur suvlari hosil bo'ladi.

Amudaryo havzasining yuqori va o'rta qismida hosil bo'lgan kollektor-zovur suvlarining aksariyat qismi daryo o'zanlariga borib quyilsa, quyi oqimida esa cho'l va pasttekisliklarga borib quyiladi.

Daryo havzasida hosil bo'layotgan kollektor-zovur suvlari

3-jadval

Amudaryo havzasidagi kollektor-zovur suvlari miqdori va minerallashuvining o'rtacha qiymati hamda ulardagi umumiy tuz miqdori

Viloyatlar	Tavsifi	O'lchov birligi	Yillar				
			2018	2019	2020	2021	2022
Surxondaryo	Hajmi	mln.m3	1110,82	1204,89	1233,14	1027,31	973,60
	Minerallashuvi	g/l	1,52	1,44	1,54	1,61	1,63
	Umumiy tuz miqdori	ming.tn	1686,91	1740,21	1895,79	1652,51	1585,46
Qashqadaryo	Hajmi	mln.m3	918,45	1253,28	1296,32	847,49	703,14
	Minerallashuvi	g/l	5,17	4,83	4,65	4,85	5,28
	Umumiy tuz miqdori	ming.tn	4751,22	6052,80	6034,13	4109,61	3709,16
Buxoro	Hajmi	mln.m3	1863,69	1971,94	2120,88	1691,61	1677,03
	Minerallashuvi	g/l	3,45	3,49	3,42	3,50	3,08
	Umumiy tuz miqdori	ming.tn	6428,09	6879,07	7262,84	5915,68	5164,81
Xorazm	Hajmi	mln.m3	1563,18	2462,24	1495,47	1275,61	1177,84
	Minerallashuvi	g/l	2,09	1,92	2,24	2,43	2,83
	Umumiy tuz miqdori	ming.tn	3267,05	4727,50	3349,85	3099,73	3333,29
Qoraqalpog'iston Respublikasi	Hajmi	mln.m3	732,87	2391,48	1691,35	1168,16	1525,37
	Minerallashuvi	g/l	3,97	3,50	4,72	3,98	3,48
	Umumiy tuz miqdori	ming.tn	2906,66	8369,55	7979,90	4645,41	5313,56

Amudaryo havzasi kollektor-zovur suvlari minerallashuvining havo harorati va yog'ingarchilikka bog'liqligi

T/r	Viloyatlar	Ma'lumotlar (korrelyatsion koeffitsiyentlar qiymati)		
		Havo harorati, °C (yozgi)	Havo harorati, °C (qishki)	Yog'ingarchilik, mm
1	Surxondaryo	0,70	0,07	-0,66
2	Qashqadaryo	0,37	0,23	-0,67
3	Buxoro	0,20	0,32	-0,64
4	Xorazm	0,32	-0,33	-0,04
5	Qoraqalpog'iston Respublikasi	-0,18	-0,20	-0,03

minerallashuvi darajasining yillik o'rtacha eng kam qiymati Surxondaryo viloyatida 1.44 g/l ni, eng yuqori qiymat Qashqadaryo viloyatida 5.28 g/l ni tashkil qilgan. Daryo havzasida kollektor-zovur suvlari miqdorining o'rtacha yillik ko'rsatkichi 6010 mln m³ dan 9283 mln m³ gacha, hosil bo'layotgan tuz miqdori yillik o'rtacha 19039 ming tonnadan 27769 ming tonnagacha o'zgarib turgan (3-jadval).

Qashqadaryo, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi kollektor-zovur suvlarining minerallashuv darajasi Surxondaryo va Xorazm viloyatlari kollektor-zovur suvlarining minerallashuv darajasiga nisbatan yuqoriligi sababi, birinchidan, Qashqadaryo, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi tuproqning sho'rlanish darajasi yuqoriligi bilan izohlansa, ikkinchidan, Amudaryo daryosi yuqori oqimidan quyi oqimga tushgan sari daryoning suvining minerallashuvi ham ortib boradi. Bu, o'z navbatida, qishloq xo'jaligida sug'orish uchun ishlatilayotgan suvlarning minerallashuvi ortishiga hamda ushbu viloyatlar sug'oriladigan maydonlarida hosil bo'lgan kollektor-zovur suvlarining ham minerallashuvi ortishiga sabab bo'ladi. Surxondaryo viloyatidagi kollektor-zovur suvlarining minerallashuv darajasining nisbatan pastligi viloyat sug'oriladigan maydonlarining asosiy qismi minerallashuv darajasi kamroq miqdorni tashkil etuvchi Surxondaryo va Sherobod daryolarining suvlari bilan sug'orilishi bilan izohlanadi (3-jadval).

Kollektor-zovur suvlarining minerallashuviga iqlim o'zgarishlarining (yog'ingarchilik va harorat) ta'siri o'rganilgan. Ushbu bog'liqlik zichligini ifodalovchi – korrelyatsiya koeffitsiyentlarining qiymatlari (Pirson korrelyatsiyasi) tahlil qilindi (4-jadval).

Kollektor-zovur suvlarining minerallashuviga yog'ingarchilikning ta'siri deyarli kuzatilmadi. Yozgi havo haroratiga Surxondaryo viloyatida yuqori bog'liqlik, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlarida o'rtacha bog'liqlik, Buxoro viloyatida esa kuchsiz bog'liqlik kuzatildi. Qishki havo haroratiga Qashqadaryo viloyatida kuchsiz bog'liqlik, Buxoro viloyatida o'rtacha bog'liqlik kuzatildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi qishki va yozgi, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida esa qishki havo haroratiga bog'liqlik kuzatilmagan (4-jadval).

6. Xulosa va takliflar.

1. Amudaryo suvining minerallashuv darajasi yillar ke-simida daryo oqimi bo'ylab 1,35 barobardan 1,74 barobar-gacha ortib borgan. Daryo suviga sug'oriladigan maydonlar-

da hosil bo'lgan kollektor-zovur suvlari tarkibidagi tuzlar tushishi hisobiga daryo suvi minerallashuvi ortgan.

2. Amudaryo suvi minerallashuvi va yog'ingarchilik miq-dori ta'siri orasida o'zaro bog'liqlik kuzatilmagan. Daryo suvi minerallashuviga havo harorati past bo'lgan holatlarda (qishki) o'zaro bog'liqlik kuzatilmagan. Havo harorati yuqori bo'lgan holatlarda (yozgi) 1,4-gidropostlarda o'rtacha bog'liqlik, 3,5-gidropostlarda kuchsiz bog'liklikni tashkil etgan, 2-gidropostda esa bog'lanish kuzatilmagan.

3. Daryo oqimi bo'ylab og'ir metallar miqdorining ortib borishi kuzatilgan. Mis miqdori daryo uzunligi bo'ylab o'r-tacha 1,1 barobardan 1,5 barobargacha, rux 1,1 barobardan 2,6 barobargacha, xrom (VI) 1,1 barobardan 1,8 barobar-gacha ortgan.

4. Kollektor-zovur suvlarining minerallashuv darajasi ham Amudaryo havzasi o'rta oqimidan quyi oqimi tomon ortib borgan. Daryo suvi oqimning o'rta qismidagi kollektor-zovur suvlarining minerallashuv darajasi o'rtacha 2,5 baro-barga kam bo'lgan.

5. Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida hosil bo'lgan kollektor-zovur suvlarining minerallashuvi Qashqadaryo, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi kollektor-zovur suvlarining minerallashuvi darajasidan kam bo'lgan. Qashqadaryo, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog'is-ton Respublikasidagi tuproqning sho'rlanish darajasi va sug'orish suvi minerallashuvi yuqoriligi sababli kollektor-zovur suvlarining minerallashuvi yuqori bo'lgan.

6. Kollektor-zovur suvlarining minerallashuviga yog'in-garchilikning ta'siri kuzatilmagan. Qoraqalpog'iston Res-publikasi qishki va yozgi, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida esa qishki havo haroratiga bog'liqlik kuzatilmagan. Yozgi havo haroratiga Surxondaryo viloyatida yuqori bog'liqlik, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlarida o'rtacha bog'liqlik, Buxoro viloyatida esa kuchsiz bog'liqlik kuzatilmagan. Qishki havo haroratiga Qashqadaryo viloyatida kuchsiz bog'liqlik, Buxoro viloyatida o'rtacha bog'liqlik kuzatilmagan.

7. Amudaryo suvining ifloslanishi oldini olish uchun qish-loq xo'jaligida ishlatilayotgan mineral o'g'itlarning me'yordan ortiqcha ishlatilishi oldini olish, qishloq xo'jaligi ekinlariga mineral o'g'itlar tomchilab sug'orish texnologiyalari orqali berilishini ta'minlash, sanoat korxonalaridan chiqayotgan oqova suvlarning yetarli darajada tozalanishini nazorat qilish hamda muntazam monitoring qilib borishni talab etiladi.

1. Oxana S. Savoskul, Elena V. Chevnina, Felix I. Perziger, Ludmila Yu. Vasilina, Viacheslav L. Baburin, Alexander I. Danshin A.I., Bahtiyar Matyakubov, Ruslan R. Murakaev. Edited by O.S. Savoskul Water, Climate, Food, and Environment in the Syr Darya Basin Contribution to the project ADAPT Adaptation strategies to changing environments July 2003.
2. Lemenkova P, Current Problems of Water Supply and Usage in Central Asia, Tian Shan Basin. Environmental and Climate Technologies 2013 /3. <http://dx.doi.org/10.7250/issect.2013.002>
3. Saidmamatov O., Rudenko I., Pfister S., and Koziel J. 2020, Water–Energy–Food Nexus Framework for Promoting Regional Integration in Central Asia. Water 12, 1896. <https://doi.org/10.3390/w12071896>
4. Murray-Rust, H., Abdullaev, I., ul Hassan, M., Horinkova, V. 2003. Water productivity in the Syr-Darya river basin. Research Report 67. Colombo, Sri Lanka: International Water Management Institute.
5. Хикматов Ф., Эрлапасов Н.Б. Иқлим ўзгариши ва ер ости сувларининг Чирчиқ-Оҳангарон ҳавзаси дарёлари оқимиға қўшган ҳиссаларини баҳолаш. «Иқлим ўзгариши шароитида арид ҳудудлар сув ресурслари: муаммолар ва уларнинг ечимлари» мавзусида ташкил этилган халқаро илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент, 20 октябрь 2023 йил, 248-252.
6. Кудратов Т., Якубов М., Мирхасилова З. Проблема водообеспечения сельскохозяйственного сектора в условиях изменения климата «Иқлим ўзгариши шароитида арид ҳудудлар сув ресурслари: муаммолар ва уларнинг ечимлари» мавзусида ташкил этилган халқаро илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент, 20 октябрь 2023 йил, 211-214
7. Kulmatov, R. Problems of sustainable use and management of water and land resources in Uzbekistan. J. Water Resour. Prot. 2014, 6, 35–42. <http://dx.doi.org/10.4236/jwarp.2014.61006>
8. Gaybullaev, B.; Chen, S.; Gaybullaev, D. Changes in water volume of the Aral Sea after 1960. Appl. Water Sci. 2012, 2, 285–291. <https://doi.org/10.1007/s13201-012-0048-z>
9. Бабуринов В.Л., Даньшин А.И., Кириллов П.Л., Матякубов Б.Ш.: Оценка достоверности долгосрочного прогнозирования социально-экономического развития бассейна Сырдарьи. Ўзбекистон География жамияти ахбороти, 2019, 55-жилд. 105-112 б.
10. Bernauer T, Siegfried T. Climate change and international water conflict in Central Asia.) Journal of Peace Research 49(1) 227–239, 2012. <https://doi.org/10.1177/0022343311425843>
11. Punkari M., Droogers P., Immerzeel W., Korhonen N., Lutz A, and Venäläinen A.. Climate Change and Sustainable Water Management in Central Asia. FCG International. No. 56 May 2014.
12. Siegfried T.; Bernauer T.; Guennet R.; Sellars S.; Robertson A.W.; Mankin J.; Bauer-Gottwein P.; Yakovlev A. Will climate change exacerbate water stress in Central Asia? Clim. Chang. 2012, 112, 881–899. <https://doi.org/10.1007/s10584-011-0253-z>
13. Хикматов Ф.Х., Юнусов Г.Х., Эрлапасов Н.Б. и др. Закономерности формирования водных ресурсов горных рек в условиях изменения климата. Монография. – Ташкент: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020. – 232 с.
14. Cai X., McKinney D.C., Rosegrant M.W. Sustainability analysis for irrigation water management in the Aral Sea region. Agric. Syst. 2003, 76, 1043–1066. [https://doi.org/10.1016/S0308-521X\(02\)00028-8](https://doi.org/10.1016/S0308-521X(02)00028-8)
15. Жўраев Б.Б., Ходжиев А.К., Хурсандова Н.Р. Иқлим ўзгаришининг Оролбўйи ҳавзасига таъсири, Амударё ҳавзасида сув тақчиллиги муаммоси. «Иқлим ўзгариши шароитида арид ҳудудлар сув ресурслари: муаммолар ва уларнинг ечимлари» мавзусида ташкил этилган халқаро илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент, 20 октябрь 2023 йил, 101-105
16. Чембарисов Э. И., Махмудов И. Э., Лесник Т. Ю., Вахидов Ю. С., Долидудко А. И. Минерализация и гидрохимический режим вод среднего течения реки Сырдарьи. Пути повышения эффективности орошаемого земледелия, Материалы конференции № 2(62)/2016.
17. Чембарисов Э.И., Хожамуратова Р.Т., Шодиев С.Р., Лесник А.П.: Особенности распределения минерализации и химического состава грунтовых вод орошаемой зоны Сурхан-Шерабадского оазиса. Пути повышения эффективности орошаемого земледелия, № 4(64)/2016. Материалы конференции. С. 144-150.
18. Чембарисов Э. И., Хожамуратова Р.Т., Рахимова М.Н., Шодиев С.Р. Многолетние изменения качества речных вод Узбекистана Природные ресурсы, среда и общество. «Науки о Земле и смежные экологические науки», 2020 стр 55-58.
19. Leng P., Zhang Q., Li F., Kulmatov R., Wang G., Qiao Y., Wang J., Peng Y., Tian C., Zhu N., Hirwa H., Khasanov S.. Agricultural impacts drive longitudinal variations of riverine water quality of the Aral Sea basin (Amu Darya and Syr Darya Rivers), Central Asia. Environmental Pollution 284 (2021) 117405. <https://doi.org/10.1016/j.envpol.2021.117405>
20. W. Zhang, L. Ma, J. Abuduwail, Y. Ge, G. Issanova, G. Saparov. Hydrochemical characteristics and irrigation suitability of surface water in the Syr Darya River, Kazakhstan. Environ Monit Assess (2019) 191: 572. <https://doi.org/10.1007/s10661-019-7713-8>

21. Чембарисов Э.И., Мирзакобулов Ж.Б., Рахимова М.Н., Расулов Б.О., Тиллаева З.У. Гидроэкологический мониторинг качества речных вод бассейна реки Амударьи в пределах Узбекистана. Экология и строительство | № 1, 2019 с.12-18 | DOI: 10.35688/2413-8452-2019-01-002
22. S.Bissenbayeva, J.Abuduwalli, G.Issanova, K.Samarkhanov. Characteristics and Causes of Changes in Water Quality in the Syr Darya River, Kazakhstan. Water Resources, 2020, Vol. 47, No. 5, pp. 904–912. © Pleiades Publishing, Ltd., 2020.
23. Khasanov S.; Li F.; Kulmatov R.; Zhang Q. Evaluation of the perennial spatio-temporal changes in the groundwater level and mineralization, and soil salinity in irrigated lands of arid zone: As an example of Syrdarya Province, Uzbekistan. Agric. Water Manag. 2022, 263, 107444. <https://doi.org/10.1016/j.agwat.2021.107444>
24. Абдушукуров Дж.А., Кобулиев З.В., Салибаева З.Н.. Изучение состава и качества воды в притоках реки Амударья. Наука и новые технологии №7, 2013, с 47-51.
25. Chembarisov E.I., Mirzakabulov Zh.B., Ananova K.K., Zabiroy F.M. Collectordrainage waters of the middle reaches of the Syrdarya river basin.// Journal "Water resources and water use" No. 1 (168) 2018, Astana, pp. 36-39.
26. Kulmatov R.A. and Hojamberdiev M.. Heavy Metals Concentration and Speciation in Arid Zone Rivers (Amudarya and Syrdarya) of Central Asia. Journal of Environmental Science and Engineering, Aug. 2010, Volume 4, No.8 (Serial No.33). <https://doi.org/10.1007/s11869-010-0067-6>;
27. Аденбаев Б. Е. Современное гидрохимическое состояние водных экосистем низовьев реки Амударьи. Вопросы географии и геоэкологии. №4, 2014. с 10-14.
28. Аденбаев Б. Е., Хайдарова О. А., Хикматов Ф. Х. Гидрологический режим низовьев реки Амударьи в условиях усиленного хозяйственного использования водных ресурсов. Вопросы географии и геоэкологии. №4, 2014. с 15-19.
29. Верещагина Н.Г., Щетинников А.А., Мухаметзянова А.М.. О химическом составе воды коллекторов и их роли в рассолении земель в низовье Амударьи. Гидрометеорология и экология. №4, 2017. с 82-88.
30. <http://www.cawater-info.net/>.
31. Чуб В.Е. Изменение климата и его влияние на гидрометеорологические процессы агроклиматические и водные ресурсы Республики Узбекистан. Ташкент, 2007, с.134.
32. Будущее бассейна Амударьи в условиях изменения климата. Под редакцией проф. В.А. Духовного. Ташкент: НИЦ МКВК Центральной Азии, 2018. – 328 с.

УО'Т: 556.3 (575.1)

SUG'ORILADIGAN HUDUDLARDA YER OSTI SUVLARI SATHI VA MINERALLASHUVINI GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMIDAN FOYDALANGAN HOLDA BAHOLASH (BUVAYDA TUMANI MISOLIDA)

^{1,2} Samiyev Luqmon Naimovich,
texnika fanlari doktori, dotsent,

¹ Akramov Jamolitdin Ikromjon o'g'li,
tayanch doktorant,

¹ Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti,

² "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti.

Annotatsiya. Bugungi kunda sug'oriladigan maydonlarda yer osti suvlari sathining ko'tarilishi va minerallashuvining ortib borishi kuzatilmoqda. Bu holatlar ayniqsa, sug'orma qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi mamlakatlarning agroiqtisodiy taraqqiyotiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Yer osti suvlari sathining ko'tarilishi va minerallashuvining oshishi sug'oriladigan maydonlarda sho'rlanish jarayonining jadallashishiga sabab bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, tuproqlarning unumdorlik xususiyatining yo'qolishiga va oziq-ovqat tanqisligi muammosiga olib keladi.

Tadqiqot ishlarida Farg'ona viloyati Buvayda tumani sug'oriladigan maydonlarida 2023-yilning 12 oyi davomida yer osti suvlarining sathi hamda minerallashuvi o'zgarishi baholandi. Olingan natijalarni tahlil qilish uchun an'anaviy usullardan va GIS texnologiyalaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari, tumanda yer osti suvlari sathining o'rtacha oylik qiymatlari aprel va iyul oylarida mos ravishda 2,05 m va 2,27 m, oktyabrda esa 2,38 m. Yer osti suvlarining minerallashuv darajasi oylar davomida quyidagicha o'zgardi: aprelda 2.06 g/l, iyulda 2.10 g/l va oktabrda 2.18 g/l ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Yer osti suvlari sathi, minerallashuvi, GIS, statistik tahlil, sug'oriladigan maydonlar, Farg'ona, Buvayda, sho'rlanish, geostatistik usul.

Аннотация. Сегодня наблюдается повышение уровня подземных вод и увеличение минерализации на орошаемых территориях. Данные ситуации оказывают негативное влияние на агроэкономическое развитие стран, занимающихся орошаемым земледелием. Повышение уровня подземных вод и увеличение минерализации вызывает ускорение процесса засоления на орошаемых площадях. Это, в свою очередь, приводит к потере плодородия почв и проблеме нехватки продовольствия.

За 12 месяцев 2023 года оценены изменения уровня и минерализации подземных вод на орошаемых полях Бувайдинского района Ферганской области. Для анализа полученных результатов были использованы традиционные методы и ГИС-технологии. Результаты исследования показывают, что среднемесячные значения уровня грунтовых вод по району составляют 2,05 м и 2,27 м в апреле и июле соответственно и 2,38 м в октябре. Уровень минерализации подземных вод менялся по месяцам следующим образом: в апреле он составил 2,06 г/л, в июле 2,10 г/л и в октябре 2,18 г/л.

Ключевые слова: Уровень подземных вод, минерализация, ГИС, статистический анализ, орошаемые площади, Фергана, Бувайда, засоление, геостатистический метод.

Abstract. Today, there is an increase in the level of underground water and an increase in mineralization in the irrigated areas. These situations have a negative impact on the agro-economic development of countries engaged in irrigated agriculture. The rise in the level of underground water and the increase in mineralization causes the acceleration of the salinization process in the irrigated areas. This, in turn, leads to the loss of soil fertility and the problem of food shortages.

During the 12 months of 2023, changes in the level and mineralization of underground water were evaluated in the irrigated fields of Buvayda district of Fergana region. Traditional methods and GIS technologies were used to analyze the obtained results. The results of the study show that the average monthly values of groundwater level in the district are 2.05 m and 2.27 m in April and July, respectively, and 2.38 m in October. The level of mineralization of groundwater changed during the months as follows: it showed 2.06 g/l in April, 2.10 g/l in July and 2.18 g/l in October.

Keywords: Groundwater level, mineralization, GIS, statistical analysis, irrigated areas, Fergana, Buvayda, salinity, geostatistical method.

Kirish.

Sug'oriladigan qishloq xo'jaligini to'liq amalga oshirishda yer osti suvlari sathi va minerallashuvi darajasini bir me'yorda ushlab turish o'simlik ildiz zonasida to'g'ri suv va tuz muvozanatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Aks holda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini cheklovchi asosiy omillardan biri bo'lgan tuzlar o'simliklar tomonidan suvni o'zlashtirishning cheklanishiga va boshqa kationlarga nisbatan natriy ionining mutanosib ravishda oshishiga olib keladi. Shunday qilib, tuproqning fizik xususiyatlarining yomonlashishiga, past gidravlik o'tkazuvchanlikka va loy kolloidlarining parchalanishi tufayli infiltratsiya tezligining pasayishiga olib keladi. Natijada, tuproqda yer osti suvlari ko'payadi, bu yerda o'tkazuvchanlik qobiliyati pasayadi va sho'rlanish xavfi yuqori darajaga ko'tariladi [1]. Qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil hududlarda sug'oriladigan dehqonchilikning qariyb 50 foizi (954 million ga) turli darajadagi sho'rlanish muammolariga olib keldi [2].


Sug'oriladigan yer maydonlarining ko'payishi va ularning yer osti suvlariga bog'liqligi yer osti suvlari resurslarida og'ir stressni keltirib chiqaradi, bu esa yer osti suvlari darajasining pasayishiga olib keladi [3], [4], [5]. Yer osti suv resurslarini barqaror boshqaruv strategiyasini ishlab chiqish hozirgi kundagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu o'rinda yer osti suvlarining tabiiy yoki sun'iy to'ldirilishi, fazo va vaqt sohasida ajralishi bilan bog'liq holda yer osti suvlari sathining o'zgarishini tushunish muhimdir. Yer osti suvlari sathidagi fazoviy va vaqtinchalik o'zgarishlar ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Finke, Ahmadi va Sedghamiz kabi olimlar muhim hududlarni aniqlash uchun yer osti suvlari darajasini xaritalasha

Kriging interpolatsiya usulidan foydalangan [6], [7]. Shuningdek, geostatistik tahlil usullari suv resurslarini boshqarish uchun yaxshi vosita hamda yer osti suvlarining uzoq muddatli tendentsiyalarini aniqlash uchun samarali natijalar beradi [8]. Trend tahlilining statistik usullari oddiy chiziqli regressiyadan tortib, yanada rivojlangan parametrik va parametrik bo'lmagan usullargacha o'zgaradi [9]. Ko'pgina tadqiqotchilar yog'ingarchilik va harorat tendentsiyasi tahlilini o'rgandilar [10], [11], yer osti suvlari sathi trend tahlili uchun bir nechta tadqiqotlar o'tkazildi. Bir nechta tadqiqotchilar yer osti suvlari darajasini tahlil qilish uchun statistik usullardan foydalangan holda trend tahlilini o'rganishga harakat qilishdi [12], [13]. Ushbu tadqiqot ishida Farg'ona viloyati Buvayda tumani sug'oriladigan yerlarida yer osti suvlari sathi va minerallashuvi darajasining 2023 yil uchun tahlili amalga oshirildi. Tahlillar sug'orishdan oldin (aprel), sug'orish davrida (iyul) va sug'orishdan keyingi (oktabr) davr misolida amalga oshirildi. Ushbu ishda geografik axborot texnologiyalari va geostatistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Yer osti suvlari shu sathi va minerallashuvi darajasining favo va vaqt sohasidagi tahlili masalalariga G'A. Mavlyanov, M.M. Krilov, N.A. Kenesarin, A.A. Xudayberdiev, N.N. Xodjibaev, S.M. Mirzaev, E.I. Chembarisov, G'U. Yusupov, R.A. Qulmatov, J.X. Djumanov va boshqalarning tadqiqot ishlari bag'ishlangan. Ushbu tadqiqot ishlarida yillar kesimida yer suvlari sathi va minerallashuv darajasi rejimining o'zgarib borishi atrof-muhitga bog'lab o'rganilgan va ma'lum tavsiyalar berilgan. Taqdim etilayotgan ushbu tadqiqot ishida kuzatishlar 2023-yil holati ma'lumotlari asosida bajarilgan.

Tadqiqot materiallari va uslubi.

Buvayda tumani hududi Qo'qon shahridan shimolroqda joylashgan. Buvayda tumani viloyatning Bag'dod, Uchko'prik, Dang'ara, Oltiariq tumanlari, Namangan viloyatining Pop tumani bilan chegaradosh. Maydoni 0,28 ming km² (1-rasm).



■ 1-rasm. Tadqiqot hududining geografik joylashuvi

Buvayda tumani relyefi asosan tekislik. Iqlimi kontinental. Yanvarning o'rtacha harorati — 2,3 °C, iyulniki 27,5 °C. Yiliga 120-130 mm yog'in tushadi. Vegetatsiya davri 218 kun. Bahor va kuzda kuchli shamollar esadi. Gilli, qumoqli, sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar tarqalgan.

SuperMap Software Co., Ltd. – это один из современных и прогрессирующих поставщиков программного обеспечения и услуг в области геоинформационных систем. Компания была образована Китайской Академией наук в 1997 году в Пекине, где на сегодняшний день находится головная штаб-квартира. В настоящее время в компании работает более 4 500 сотрудников, имеется 38 филиалов и офисов по всему миру. К настоящему времени компания SuperMap успешно вошла в Азию, Европу, Африку и Южную Америку, имеет дистрибьюторов и партнёров из более чем 30 стран и конечных пользователей в более чем 100 странах. Важнейшим событием является то, что в 2009 году SuperMap стала первой в Китае компанией по разработке программного обеспечения для ГИС. В настоящее время компания SuperMap стала одной из крупнейших производителей ГИС платформ: с 2021 года компания занимает третье место на мировом рынке ГИС и первое место на азиатском рынке ГИС [1, 4, 5].

Литература и методология.

Программное обеспечение SuperMAP может применяться в различных областях для решения задач, связанных с анализом и управлением пространственными данными. Вот несколько ключевых направлений использования:

1. Градостроительство и планирование: superMAP позволяет создавать карты для проектирования новых жилых, коммерческих и промышленных зон, а также для анализа существующей инфраструктуры.

2. Управление земельными ресурсами: применение SuperMAP помогает в учёте, мониторинге и управлении земельными участками, что особенно важно для сельского хозяйства и охраны окружающей среды.

3. Экология: ГИС-технологии помогают в мониторинге состояния окружающей среды, анализе воздействия антропогенной деятельности на экосистемы и планировании мероприятий по охране природы.

4. Транспорт и логистика: с помощью SuperMAP можно оптимизировать маршруты доставки, планировать транспортные сети и анализировать потоки транспорта.

5. Социальные услуги: superMAP ГИС может использоваться для анализа доступности медицинских учреждений, школ и других социальных услуг, что помогает улучшить качество жизни населения.

6. Картография: создание тематических карт для различных нужд – от туристических до научных исследований.

7. Анализ рисков: оценка природных рисков (например, землетрясений или наводнений) с целью повышения безопасности населения и инфраструктуры.

С использованием таких систем как SuperMAP ГИС можно значительно повысить эффективность принятия решений на всех уровнях управления – от муниципального до государственного. [2, 6, 7, 8]

В последние годы в Узбекистане наблюдается рост интереса к современным технологиям и цифровизации, что создаёт благоприятные условия для внедрения ГИС-технологий. В связи с этим, компания SuperMap открыла в 2023 году свой филиал и в настоящее время успешно сотрудничает с государственными учреждениями, научными организациями и частными компаниями в Узбекистане для внедрения своих решений (рис. 1).

Данный процесс включает обучение пользователей, техническую поддержку и совместные проекты. Компания принимает участие в мероприятиях по ГИС-тематике, что поможет повысить осведомлённость о сво-



■ Рис. 1. Глобальные партнёры компании SuperMAP на мировом рынке.

их продуктах и наладить контакты с потенциальными клиентами и партнёрами. Однако для успешного выхода на рынок важно адаптировать продукты под местные условия, включая язык интерфейса и специфику данных. В настоящее время выпущена версия программного обеспечения на русском языке, которая проходит тестовые испытания и апробацию.

Результаты и обсуждения.

В данной работе был проведён сравнительный анализ программного продукта SuperMAP с его аналогами на ГИС рынке. В результате исследования было сделано несколько основных выводов, одним из которых является привлекательная ценовая политика компании и её высокая конкурентоспособность. Цена на продукт находится в прямой зависимости от выбранного функционала. Разные модели лицензирования (например, по количеству пользователей или по объёму использования) могут сделать SuperMAP более доступным для различных типов организаций – от крупных предприятий до малых компаний. Необходимо отметить, что программа SuperMAP обладает рядом и других преимуществ, включая интерактивные карты, анализ пространственных данных, удобство использования, поддержка различных форматов данных, многофункциональность и др. Программа подходит для решения широкого спектра задач — от простого отображения карт до сложного анализа и моделирования. Возможность совместного использования и обмена данными между пользователями упрощает командную работу над проектами. Некоторые версии программы поддерживают обновление карт и данных в реальном времени, что особенно важно для динамичных проектов. Пользователи могут настраивать

интерфейс и инструменты под свои нужды, что повышает эффективность работы [3, 9, 10].

Основным преимуществом данного программного продукта перед его основными конкурентами является то, что это простая и интуитивно понятная платформа. Она может быть полезна для пользователей, которые не являются профессиональными геоаналитиками. Другими словами, программа имеет простой и понятный интерфейс, что делает его доступным для широкой аудитории. В сравнении с другими программами, SuperMAP требует минимального обучения и позволяет быстро начинать работу. Кроме того, имеется возможность интеграции анализа больших данных, позволяющая создавать более динамичные и интерактивные карты. Появилась возможность визуализировать и анализировать данные в режиме реального времени. Помимо этого, применяется искусственный интеллект и машинное обучение. А также облачные платформы упрощают обмен данными и совместную работу над картированием проектов в разных регионах. Технологическая система программного обеспечения SuperMap представлена на рисунке 2.

Помимо всего вышеперечисленного, компания SuperMAP предлагает обучающие материалы и техническую поддержку, что облегчает процесс освоения системы. Одним из преимуществ является предоставление бесплатной лицензионной версии сроком на три месяца с возможностью её продления до года заинтересованным пользователям. Руководство компании также предоставляет возможность организации тренингов и семинаров для специалистов из различных отраслей, что даёт возможность пройти обучение на курсах «Введение в программу SuperMAP» с целью ознакомления с



■ Рис. 2. Технологическая система SuperMAP.

базовыми функциями и возможностями её применения на практике. Курсы организуются также на бесплатной основе по предварительной договорённости между руководством организаций. Кроме того, в ближайшем будущем запланированы следующие виды деятельности для продвижения программного продукта на местном рынке: создание пилотных проектов (запуск небольших проектов для демонстрации возможностей SuperMap), сотрудничество с местными партнёрами (налаживание сотрудничества с университетами и научными учреждениями), усиление маркетинга и продвижения, участие в выставках и конференциях, целевое продвижение, техническая поддержка пользователей, обратная связь от пользователей, введение системы сбора отзывов для улучшения продукта, учёт местного законодательства в области охраны данных и использования картографической информации.

Выводы.

Внедрение ГИС-системы SuperMap в Центральной Азии может стать важным шагом к развитию экономики региона, повышению эффективности управления ресурсами и улучшению качества жизни населения. Появление SuperMap на рынке ГИС Узбекистана открывает новые возможности для развития технологий геоинформации в стране и содействует цифровой трансформации различных отраслей экономики. Её основные преимущества, такие как приемлемая цена, пользовательский интерфейс, мощные инструменты анализа, гибкость и масштабируемость, поддержка облачных технологий, анализ больших данных, применение искусственного интеллекта и другие, помогают SuperMap стать ГИС платформой будущего и делают её привлекательным выбором как для государственных учреждений, так и для частных компаний.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. <https://www.supermap.com/ru/>
2. <https://programmersought.com/>
3. <https://dfkcompany.com/supermap/>
4. «Chinese GIS Market in 2015 (In Chinese)». ccidnet.com. Retrieved 2016-10-14.
5. «ARC Advisory Report on Geographic Information Systems». ccidnet.com. Retrieved 2016-10-14.
6. Daniel (2019-12-30). «Breakthroughs in 3D GIS application». Geospatial World. Retrieved 2021-10-29.
7. «Dassault Systèmes and Chinese GIS Software Leader SuperMap Partner to Drive New Approach to Innovation for Construction, Cities and Territories». AP NEWS. 2019-06-04. Retrieved 2021-10-29.
8. «SuperMap GIS Software». www.supermap.com. Retrieved 2016-10-09.
9. «SuperMap GIS 10i SuperMap GIS Software». www.supermap.com. Retrieved 2016-10-09.
10. SuperMap. «SuperMap Showcases GIS Technology at 2020 GIS Software Technology Conference». www.prnewswire.com (Press release). Retrieved 2021-10-29.

1

YOG'INGARCHILIK QISHLOQLARDA EMAS, SHAHARLARDA NEGA KO'PROQ BO'LADI?

Yangi tadqiqot natijalariga ko'ra, atrofidagi hududlar bilan solishtirganda shaharlarda yog'ingarchilik va ekstremal jala ko'proq ro'y berishi qayd etildi. Olimlarning ta'kidlashicha, bu hodisa shaharlarda suv toshqiniga olib keladigan xavf omillarini yanada kuchaytiradi.

Tadqiqotchilar so'nggi yigirma yil davomida sun'iy yo'ldoshdan olingan ma'lumotlarini tahlil qilishdi. Dunyo bo'ylab 1000 dan ortiq shaharlardan 63 foizida yillik yog'ingarchilikning o'rtacha miqdori qishloq joylariga qaraganda ko'proq bo'lgani aniqlandi. Yillik yog'ingarchilik miqdori yuqoriligi bo'yicha eng yirik shaharlar qatoriga Hoshimin (Vyetnam), Kuala-Lumpur (Malayziya), Lagos (Nigeriya), Sidney (Avstraliya) kiradi.



Shahar hududlari suv toshqini uchun zaif, masalan, bunga yo'llar, avtomobillarning to'xtash joylari va drenaj tarmoqlari kabi infratuzilmalar uzoq dosh bera olmaydi. Shu bilan birga, iqlim o'zgarishi kuchliroq jalalarni olib keladi.

Texas universiteti professori va tadqiqot mualliflaridan biri Dev Niyogining so'zlariga ko'ra, urbanizatsiya ob-havoni bir necha jihatdan shakllantiradi. Birinchidan, shaharlar qishloq joylarga qaraganda issiqroq bo'ladi, bu hodisa shahar issiqlik oroli effekti deb ataladi. Issiq havo yuqoriga ko'tarilganda bulutlar paydo bo'lishi va yog'ingarchilikning kuchayishiga olib kelishi mumkin bo'lgan oqimlarni hosil qiladi. Baland binolar va infratuzilmaga ega notekis shahar landshaftlari mahalliy havo oqimini sekinlashtirishi yoki yog'ingarchilik muddatini uzaytirishi mumkin. Shaharlar ustidagi havoda esa aerozollarning yuqori konsentratsiyasi mavjud: bu atmosferada ko'proq mayda zarralar borligini anglatadi, ular atrofida suvni yomg'ir tomchilariga to'playdi va yomg'irli bulutlarini hosil qiladi.

Hoshimin shahri hududi unga tutashgan atrofidagi qishloq joylar bilan taqqoslaganda yiliga o'rtacha 274 mm qo'shimcha yog'ingarchilik oldi. Tadqiqot mualliflari tuproq va o'simliklar qoplamining sun'iy yo'ldosh kuzatuvlari asosida shaharlarni belgiladi, shundan keyin har bir shahar atrofida uchta konsentrik zonalar o'rnatdi. Eng tashqi zona «shaharning yog'ingarchilikka dominant ta'sir doirasidan tashqarida» deb faraz qilindi.

Bir qancha shahar hududlari, jumladan, Kioto (Yaponiya) va Sietl (AQSH) «quruq orollar» sifatida ko'rsatilgan, chunki ularda atrofidagi hududlarga qaraganda yog'ingarchilik kamroq bo'lgan. Ba'zi hollarda geografik o'rin muhim rol o'ynaydi, masalan, vodiylarda joylashgan shaharlarda yaqin atrofdagi adirlarga qaraganda yog'ingarchilik kam kuzatiladi. Shuningdek, tadqiqotchilar yog'ingarchilik shaharlarning shamol yo'nalishi bo'yicha atrofdagi hududlarga nisbatan ko'proq, qishloq joylarida esa shamol ostida kamroq bo'lishini aniqlashdi.

Olimlarga shahar issiqlik orollari haqida avvaldan ma'lum. Urbanizatsiyaning iqlim uchun boshqa ta'sirlaridan xabardorlik ham ortib bormoqda. Yangi tadqiqot bu borada oldinga qo'yilgan muhim qadam hisoblanadi.

Manba: preventionweb.net

2

HINDISTON PLASTIK CHIQINDILAR BO'YICHA BIRINCHI O'RINDA

Dunyo bo'yicha yiliga 52 million tonnadan ortiq makroplastik chiqindilar hosil bo'ladi: bu chiqindilar qayta ishlanmaydi yoki maxsus poligonlarga joylashtirilmaydi, ko'chada yondiriladi yoki boshqa chiqindilar qatori tashlab yuboriladi. Plastik chiqindilarning beshdan bir qismi ushbu reytingda peshqadamlik qilib ketayotgan Hindistonga tegishli, chiqindilarni boshqarish sohasidagi yaxshilanishlar tufayli Xitoy dunyoda to'rtinchi o'ringa ko'tarildi.

Lids universiteti olimlari makroplastik chiqindilarning zamonaviy global xaritasini taqdim etdi. Makroplastiklar besh millimetrdan kattaroq barcha plastik zarralarni emas, balki uning faqat inson tomonidan boshqariladigan tizimdan atrof-muhitga o'tgan qismini o'z ichiga oladi. Bu, masalan, ko'chaga tashlangan chiqindi, ruxsat etilmagan joyda to'planagan chiqindilar bo'lib, ular qayta ishlash yoki yoqishdan keyin utilitatsiya qilinmasdan qolib ketadi. Tadqiqotchilar dunyo bo'yicha 2020-yilda 50 702 ta munisipalitetdan chiqindilarni boshqarishga oid ma'lumotlarni to'plashdi.



Yillik makroplastik chiqindilarning 9,3 million tonnasi Hindiston, 3,5 million tonnasi Nigeriya, 3,4 million tonnasi Indoneziya va 2,8 million tonnasi Xitoy hissasiga to'g'ri keladi. Mikroplastik chiqindilarining taxminan 57 foizi (29,9 million tonna) ochiq havoda yondirilishi natijasida zaharli moddalar chiqaradi va 43 foizi axlatga aylanadi.

Aholi jon boshiga chiqindilar miqdori bo'yicha Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo emas, balki Sahroi Kabirdan janubda joylashgan mamlakatlar yetakchilik qiladi: har bir

kishiga yiliga o'rtacha 12 kilogrammdan ortiq plastmassa tashlanadi (taqqoslash uchun, Gamburgda – 20 gramm). Bu chiqindilarni yig'ish infratuzilmasi sust rivojlangani bilan bog'liq. Tadqiqotchilar ular tuzgan kadastr atrof-muhitning plastik ifloslanishiga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikka yordam berishiga umid bildirdi.

Manba: leeds.ac.uk

3

GLOBAL ISISH TUFAYLI ANTARKTIDA O'SIMLIKLAR BILAN QOPLANA BOSHLANDI

Edinburg universiteti boshchiligidagi yaqinda o'tkazilgan tadqiqot kutilmagan natijalarni berdi – olimlar birinchi marta butun Antarktidaning o'simliklar xaritasini batafsil tuzishga erishdi.

Sun'iy yo'ldoshdan olingan ma'lumotlardan foydalangan holda xalqaro tadqiqotchilar guruhi 45 kvadrat kilometr atrofidagi yashil maydonni aniqladi, bu Antarktida uchun haqiqiy kashfiyotdir.



O'simliklarning asosiy qismi, ya'ni 80 foizi Antarktika yarim oroli va unga yaqin orollarda jamlangan. Ushbu yashil hududlar qit'a umumiy maydonining atigi 0,12 foizini tashkil qilsa-da, olingan ma'lumotlar juda katta ahamiyatga ega. Xarita insonga borish qiyin bo'lgan, iqlim sharoiti og'ir mintaqada o'simliklar qanday va qayerda tarqalishini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Loyihada ishtirok etgan tadqiqotchi Sharlotta Uolshou Antarktidada o'simliklarning tarqalishida iqlim o'zgarishi asosiy rol o'ynashini ta'kidladi. Jarayon yalang'och yerda suv o'tlari va sianobakteriyalarning paydo bo'lishi bilan boshlanadi, ular mox va lishayniklarning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. So'nggi yillarda olimlar ushbu mintaqada haroratning oshishi bilan bog'liq holda o'simliklar sezilarli darajada ko'payganini qayd etishdi.

Antarktidaga yuzdan ortiq yangi flora turlarining, jumladan, maysazor o'tlarining kirib kelishi ayniqsa tashvishlidir. Bu o'simliklarning tobora ko'proq maydonlarni egallashga intilayotganidan dalolat beradi va materik ekotizimidagi isish tufayli o'zgarishlarning natijasidir.

Tadqiqotda olingan ma'lumotlar global isish Antarktidaning kelajagi va uning ekotizimiga ta'sir ko'rsatishi

haqida muhim savollar tug'diradi. Dunyoning bir qismi muzliklarning erishini xavotir bilan kuzatayotgan bo'lsa, janubiy qit'ada tabiat moslashib, o'z mavjudligining yangi qirralarini ochmoqda.

Manba: ecosphere.press

4

ZIMBABVEDA OZIQ-OVQAT INQIROZI TUFAYLI 200 TA FIL OTILADI

Zimbabvedada misli ko'rilmagan qurg'oqchilik tufayli oziq-ovqat taqchilligi kuzatilmoqda. "France-Presse" agentligi ushbu davlatning Yovvoyi tabiatni muhofaza qilish boshqarmasi bayonotiga tayanib yozishicha, yaqinda hukumat 200 bosh filni otishga qaror qilgan.

Atrof-muhitni muhofaza qilish vaziri Nkobizita Mangaliso Ndlovu mamlakat hududida "keragidan ko'p fil borligi"ni aytib, hukumat bog'lar va yovvoyi tabiatni muhofaza qilish boshqarmasi – "Zim Parks"ga xartumli jonivorlarni yo'q qilish jarayonini boshlashga ko'rsatma berganini qo'shimcha qildi. "Zim Parks" ijrochi direktori Fulton Mangvanya aytishicha, 200 ta fil odamga duch kelgan joydayoq otib tashlanadi.

Bu chora "tez o'sib borayotgan hayvonlar populyatsiyasi" muammosini hal qiladi. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, Zimbabvedada 100 mingga yaqin fil yashaydi. Ya'ni, ushbu mamlakat ayni ko'rsatkich bo'yicha dunyoda Botsvanadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Oxirgi marta Zimbabvedada fillar 1988 yil o'ldirilgan.

Tabiiy resurslarni boshqarish notijorat markazi direktori Farai Maguvu hukumatning bu qarorini qoraladi. Uning fikricha, mazkur qadam turizm sanoatiga sezilarli ziyon keltiradi, chunki "tirik fil o'ligidan ko'ra ko'proq foyda keltiradi".



Sentabr oyi boshida "France-Presse" Namibiya hukumati mamlakatda qurg'oqchilik va ocharchilikka qarshi kurash doirasida 157 bosh yovvoyi hayvon o'ldirilgani haqida xabar bergandi.

BMT Jahon oziq-ovqat dasturi (WGR)ning Afrika janubi bo'yicha mintaqaviy direktori vazifasini bajaruvchi Lola Kastro iyul oyi oxirida qit'a janubi Al-Ninyo ob-havo hodisasi tufayli so'nggi 100 yildagi eng kuchli qurg'oqchilikka duch kelgani va 2025-yilgacha ekinsiz qolishini aytgan.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, ushbu mintaqadagi besh davlat – Malavi, Namibiya, Zambiya, Zimbabve va Lesoto allaqachon milliy ofat e'lon qilgan. Tez orada bu safga Angola va Mozambik qo'shilishi mumkin. Ayni payt qurg'oqchilikdan kamida 27 million kishi aziyat chekmoqda.

Manba: uza.uz

5

TOSHQIN NIGERIYA HAYVONOT BOG'INI VAYRON QILDI

Nigeriya shimolida yuz bergan suv toshqini sher, timsoh, tuyaqush kabi turli yovvoyi hayvonlar yashaydigan yirik hayvonot bog'idagi jonivorlarning 80 foizini nobud qildi.

“Sanda Kyarimi Park” hayvonot bog'i ma'muriyati xavfli sudralib yuruvchilar, timsoh va ilonlar aholi gavjum hududlarga kirib borganini ma'lum qilgan.



“Associated Press” yozishicha, kuchli yomg'ir oqibatida to'g'on yorilib, Borno shtati poytaxti Mayduguri shahrining qariyb 15 foizi suv ostida qolgan, minglab odamlar boshpanasidan ayrilgan. To'fon qurbonlari haqida hozircha ma'lumot berilmagan.

Mamlakat Prezidenti Bola Tinubu idorasi tabiiy ofat shtat poytaxtining katta hududiga ta'sir qilgani, eng ko'p zarar ko'rgan hududlardan aholi evakuatsiya qilinishini ma'lum qilgan.

Manba: uza.uz

6

ATLANTIKA OKEANIDAGI OROLLARDA TROPIK O'RMONLARNING IZLARI TOPILDI

Taxminan 30 million yil oldin Folklend orollari Atlantika okeanidagi yam-yashil tropik o'rmonlarga ega joy bo'lgan. Buyuk Britaniyaning Sautgempton universiteti olimlari shunday xulosaga kelishdi.

Hozirgi vaqtda Folklend orollari daraxtsiz o'tloq landshaftiga ega. Iqlimi salqin: o'rtacha oylik harorat yil davomida plyus 2 dan plyus 9 darajagacha. Yangi tadqiqot shuni ko'rsatdiki, qadimgi davrlarda ular butunlay boshqacha ko'rinishga ega bo'lgan. Ya'ni Tierra del Fuego arxipelagida tropik o'rmonlarga o'xshash o'rmonlar mavjud edi.

Tadqiqot davomida olimlar daraxtlar va gulchaglarning yaxshi saqlanib qolgan qoldiqlarini topdi. Ular cho'kindi namunalarni yig'ib, laboratoriya tahlilidan o'tkazdi. Daraxtlarga



oid aniq ma'lumotlarni aniqlay olishmadi. Ammo gulchang qoldiqlari 15-30 million yil avvalgi ekanligi ma'lum bo'ldi. Olimlarning xulosasiga ko'ra, bundan o'n million yillar oldin Janubiy Atlantikadagi iqlim hozirgidan ancha issiq va namroq bo'lgan. Iqlimning quruqroq va sovuqroq iqlimga o'zgarishi esa o'rmonlarning yo'q bo'lib ketishiga olib kelgan.

Manba: xs.uz

7

FRANSIYADA DUNYODAGI ENG KATTA OLTIN BALIQ NOBUD BO'LDI

Fransiyaning Shampan shahridagi Bluewater Lakes baliq ovlash ko'lida Sabzi laqabi bilan mashhur bo'lgan ulkan sazan baliqning jonsiz jasadi topildi. Garchi uning aniq yoshi noma'lum bo'lsa-da, 20 yoshda ekani va qarilik tufayli vafot etgani taxmin qilinmoqda.



Bu baliq o'zining g'ayrioddiy rangi va o'lchami tufayli dunyo miqyosida e'tirofga sazovor bo'lgan, uning vazni 30 kilogrammni tashkil etgan. Haqiqiy afsonaga aylangan ulkan sazan tutish uchun ba'zi baliqchilar uzoq masofalardan Shampan shahriga borib, maqsadiga erishgandan keyin ehtirom ko'rsatib uni yana yashash makoni — suvga qo'yib yuborishar edi. Ha, shunchaki baliq emas, omad timsoli hisoblangan.

“Bu barchamiz uchun katta yo'qotish. Men uni qo'lga olganimdan xursandman va uning xotirasi abadiy qolishiga aminman”, deydi baliqni ovlagan oxirgi baliqchilardan biri Li Parker.

Oltin baliq o'zi yashagan ko'l yoniga dafn etildi va xotirasi uchun yodgorlik taxtasi o'rnatildi.

Bluewater Lakes vakilining ta'kidlashicha, Sabzi laqabli baliq o'ziga xoslikda yagona bo'lgan. U o'zidan avlodlari — ikkita oltin baliqchani meros sifatida qoldirgan, ulardan biri allaqachon 18 kilogrammga yetgan.

Manba: dailymail.co.uk.

8

QURG'OQCHILIK TUFAYLI AMAZONKA EKOTIZIMI XAVF OSTIDA

Tabiiy ofatlar monitoring milliy markazi ma'lumotlariga ko'ra, bu yilgi qurg'oqchilik Braziliyada 1950-yildan buyon ro'y bergan qurg'oqchiliklarning eng kuchlisi hisoblanadi. Yomg'irning yetarli yog'masligi havo haroratining ko'tarilishi va yerdan foydalanishning o'zgarishi, shuningdek, o'rmonlarni yaylovlar bilan almashtirish vaziyatni yanada og'irlashtirmoqda.

Amazonka hududini qamrab olgan kuchli qurg'oqchilik minglab mahalliy aholining hayotini izdan chiqardi va transport aloqalariga xavf tug'dirdi. Amazonkaning eng muhim irmoqlaridan biri — Solimoes daryosining sathi keskin pasayib, kemalar qatnovini qiyinlashtirdi. Mintaqa aholisi uchun daryo nafaqat suv manbai, balki oziq-ovqat va zarur mahsulotlarni tashishning asosiy yo'nalishi sanaladi.

Qurg'oqchilik atrof-muhitdagi ekotizimga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, jonzodlar suv yetishmasligi va tez-tez sodir bo'layotgan o'rmon yong'inlaridan ko'p aziyat chekmoqda.

Qurg'oqchilikning jiddiy ta'siriga javoban Braziliya Olii sudi 15-sentabr kuni Amazonka hamda Pantanal mintaqalarida o'rmon yong'inlari va qurg'oqchilikka qarshi kurashga yo'naltirilgan davlat xarajatlarga cheklovlarni bekor qilishga ruxsat berdi. Bu chora-tadbirlar iqlim o'zgarishi sababli kuchayib borayotgan inqirozning iqtisodiy va ekologik oqibatlarini yumshatish maqsadida qabul qilindi.



Amazonda kuzatilayotgan qurg'oqchilik nafaqat iqlim muammosi, balki mahalliy aholi va iqtisodiyot uchun jiddiy chaqiriqdir. Agar qo'shimcha choralar ko'rilmasa, vaziyat yanada og'irlashib, bu mintaqada yashovchi odamlarning turmush tarzi va Amazonka ekotizimining kelajagiga tahdid solishi mumkin.

Manba: reuters.com

9

KO'ZGU DARAXTLARNING O'SISHINI TEZLASHTIRISHGA YORDAM BERADI

Bu usul nafaqat o'simliklarning bir qator turlarini yanada samarali o'stirishga yordam beradi, balki yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan o'simlik turlarini ham saqlab qoladi. Bunday ko'zgularning bir nechtasini sotib olish qimmatga tushmaydi.

Uy o'simliklarning ko'plab ixlosmandlari ko'zgu yordamida xonada quyosh nuri yetishmasligini osongina qoplash mumkinligini bilishadi. Endilikda olimlar shunga o'xshash prinsipni o'rmonning soya joylarida o'sayotgan, yashash uchun, omon qolish uchun kurashayotgan va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan daraxtlarning ko'chatlariga qanday qo'llashni aniqlashdi.



Ularning fikricha, aynan shu usul bilan dunyodagi eng noyob o'simliklardan biri bo'lgan *Serianthes nelsonii* ni saqlab qolish mumkin. Bu o'simlik faqat Tinch okeanidagi Guam va Rota orollarida uchraydi. Hozirgi kunda atigi 122 ta nusxasi qolgan.

Ajablanarli tomoni shundaki, bu yo'qolib ketish arafasida turgan o'simlik har yili o'nlab, hatto yuzlab ko'chatlar beradi, lekin ularning barchasi quyosh nuri yetishmasligi tufayli bir oy ichida nobud bo'ladi. Agar laboratoriya sharoitida o'stirilsa, bu tur o'zini juda yaxshi his qiladi, o'rmonga ko'chirib o'tqazilganda esa yashab keta olmaydi. Shuning uchun ushbu vaziyatda yagona yechim — novdalarga sun'iy emas, imkon qadar ko'proq tabiiy yorug'lik berish.

Ushbu masala ustida tadqiqot olib borayotgan Guam universitetining professori Tomas Marler va uning hamkasblari nur qaytaruvchi plyonka o'rniga ko'zgularni tanladi. Ular novda atrofida kichik mozaika ko'rinishida joylashtirildi. Usulning samaradorligini aniqlash uchun novdalarning yarmi quyosh nurlaridan panada qoldirdi. Natijada, "quyosh energiyasi" bilan ta'minlangan namunalar 175 foiz tezroq o'sa boshladi. Ularning yashab qolish darajasi esa 161 foizga oshdi.

Manba: ecosphere.press

10

YOVVOYI HAYVONLAR SONI 50 YIL MOBAYNIDA 73 FOIZGA KAMAYDI

London zoologiya jamiyati (ZSL) ma'lumotlariga ko'ra, 1970-yildan 2020-yilgacha yovvoyi hayvonlar populyatsiyasining qisqarishi 73 foizni tashkil etdi va "ortga qaytib bo'lmaydigan nuqta"ga yaqinlashdi. Ekspertlarning fikricha, buning asosiy sababi antropogen omil hisoblanadi.

ZSL hisob-kitobiga muvofiq, Lotin Amerikasi va Karib havzasida vaziyat eng yomon, bu mintaqalarda yovvoyi hayvonlar populyatsiyasi 50 yil ichida 95 foizga qisqargan. Shuningdek, Afrikada yovvoyi hayvonlar populyatsiyasi 76 foizga kamaygan. Osiyo va Tinch okeani hududlarida bu boradagi qisqarish 60 foiz, Shimoliy Amerikada — 39 foiz, Yevropada — 35 foizni tashkil etgan.



Foto: Richard Bernabe

Qayd etilishicha, bu tendensiya global isish, ko'plab turlarning tabiiy yashash joylari yo'q qilinishi, atrof-muhitning ifloslanishi va inson faoliyati natijasida yuzaga keladigan boshqa jarayonlar tufayli ham tezlashishi mumkin.

Manba: scrippsnews.com

11

IQLM O'ZGARISHI TUFAYLI YALQOVLAR YO'QOLIB KETISH XAVFI OSTIDA

Umrining asosiy qismini daraxtlarda o'tkazadigan bu jonivor haqiqatan ham o'z nomiga munosib tarzda yalqov — juda sekin harakatlanadi. Markaziy va Janubiy Amerikaning tog'li hududlarida yashovchi yalqovlar iqlim o'zgarishi tufayli eng xavfli vaziyatga tushib qolishadi. New York Post nashrida ilmiy ishi natijalari chop etilgan tadqiqotchilar shunday xulosaga kelishdi.

Yalqovlar nafaqat sekin harakat qilib qolmasdan, organizmida modda almashinuvi ham sust kechadi, ushbu omillar ular sayyoramizda haroratning ko'tarilishiga zaifligini anglatadi. 2100-yilga borib sodir bo'lishi prognoz qilingan haroratning 2–6°C ga ko'tarilishi ham bu hayvon uchun juda qiyin kechadi.

Yalqovlar iqlim o'zgarishiga nisbatan qanday munosabatda bo'lishini tushunish uchun britaniyalik olimlar eksperiment sifatida hayvonlarning kislorod iste'molini va haroratning oshishini taqlid qilish sharoitlarida ularning tana haroratini o'lchashdi. Eksperimentda tog'li va pasttekislik hududlarida yashovchi ikki barmoqli yalqovlar sinovdan o'tkazildi. Bu hayvonlarning metabolik faolligi usulini aniqlash imkonini berdi.



Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, sekin modda almashinuvi yalqovlar organizmining harorat ko'tarilishiga moslashishini deyarli imkonsiz qilib qo'yadi: yalqovlar ortib borayotgan energiya sarfini qoplash uchun oziqlanishni ko'paytira olmaydi.

Hozirgi vaqtda yalqovlar uchun yagona najot harorat pastroq bo'lgan baland tog'larga migratsiya bo'lishi mumkin. Biroq bunday uzoq yo'lni juda sekin harakatlanadigan yalqovlar umuman bosib o'ta olmaydi.

Manba: theconversation.com

12

LED YORITGICHLI DARAXT UYDA ENERGIYA ISHLAB CHIQUYDI

Frantsiyaning New World Wind kompaniyasi tomonidan boshqariladigan Aeroleaf shamol daraxti shamol va quyosh tizimlariga o'xshash qayta tiklanadigan energiya manbalarining yangi avlodini ifodalaydi. Ushbu yangi texnologiyaning maqsadi shahar va qishloq sharoitida foydalanish uchun quyosh paneli texnologiyasiga nisbatan chiroyli ko'rinish va samarali ishlashidir.



Ushbu texnologiyada har bir bargning pastki qismida Aeroleaf gibridini shamol va quyosh energiyasi generatoriga aylantiradigan samarali fotovoltaiik hujayralarni o'z ichiga olgan gulbarglar osilgan. Aeroleaf Hybrid ko'chma shaklda ishlab chiqilgan bo'lib, iste'molchining xohishiga qarab ulangan quyosh panellarini kiritish yoki chiqarib tashlash imkoniyati mavjud.

Manba: ecoticias.com

13

OLIMLAR JOMOLUNGMA CHO'QQISI NEGA BUNCHALIK BALANDLIGINI ANIQLASHDI

Jomolungma Himolay tog'idagi, umuman Yer yuzidagi eng baland cho'qqi hisoblanadi. Bundan tashqari, 8849 metrli bu cho'qqi yiliga taxminan 2 mm ga ko'tarilib, uzoq vaqtdan beri o'sishdan davom etmoqda.

Yaqinda bir guruh xitoylik va ingliz olimlari tadqiqot o'tkazdi, buning natijasiga ko'ra, Jomolungmaning anomal balandligi va o'sishiga Himolay tog'idan oqib o'tuvchi Arun daryosi ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Daryo yo'nalishi taxminan 90 000 yil oldin o'zgargan va oqimlar Jomolungmani "og'irlashtirgan" qoyalarni yemirgan va bunga javoban tog' o'nlab metrga o'sgan. Biroq cho'qqining rekord darajada baland bo'lishining asosiy sababi Himolay tog'ini vujudga keltirgan tektonik jarayonlar bo'lgan.



XIX asrda ingliz geodezistlari Himolay tog'ining janubiy chegarasi Yer sharidagi kichik doira bilan to'liq mos keladigan yoyini tasvirlashini aniqlagan. Bu shimolda Yevrosiyo tektonik plitasi, janubda Hind plitasi va ular orasida tortishish kuchi ta'sirida asta-sekin qulab tushadigan "qayishqoq" Tibet platosi joylashgani bilan izohlanadi. Geologlarning fikriga ko'ra, Tibet platosi tubida "issiq sirop"ga o'xshash bo'lishi kerak, yuqoridagi sovuq qobiq esa Hind plitasi asta-sekin shimolga siljiganida yoriqlar va zilzilalar hosil qiladi.

Hind plitasi Yevrosiyo plitasi ostida tobora cho'kadi, ammo gigant yoriqlar asta-sekin oldinga siljiydi, chunki Tibet plitasi Hind plitasiga tegib turgan joyda zilzilalarning tor chizig'i kuzatilishi mumkin va u yerda sodir bo'layotgan jarayonlar dunyodagi eng baland tog'ning balandligini belgilaydi.

Ma'lum bo'lishicha, zilzilalar tog'larni yuqoriga suradi. Tektonik plitalar birlashadigan megabuzilish sodir bo'lganda, tog'lar ko'tariladi, ammo ularning qanchalik balandlikka ko'tarilishi ostidagi tayanch jinslarning mustahkamligiga bog'liq. Jomolungmaga kelsak, Hind va Tibet plitasi o'rtasidagi megabuzilishning ba'zi joylarida tektonik jarayonlar muntazam sodir bo'layotganga o'xshaydi — yuz yilda bir yoki ikki marta. Bunday har bir hodisa tufayli Jomolungma yanada balandroq bo'lishi ehtimoldan xoli emas, deb yozadi The Conversation.

Manba: theconversation.com

14

PLASTIK CHIQINDILARNING OKEANLARDA YO'QOLISHI SIRI ANIQLANDI



Turli hisob-kitoblarga ko'ra, dunyo bo'yicha yiliga 4,8 dan 12,7 million tonnagacha plastik chiqindilar okeanlarga tashlanadi. Oradan birmuncha vaqt o'tgach, bunday chiqindilarning taxminan 70 foizini topib bo'lmaydi. Plastiklarning okeanlarda yo'qolishi siri ko'p yillar davomida ochildirgan edi, ammo endi olimlar bu hodisani tushuntirishga muvaffaq bo'lishdi.

Ma'lumki, dengiz marjonlari uchta asosiy qismdan iborat: sirt shilliq qavati, ichki to'qima va skelet — kalsiy karbonatning qattiq cho'kindilari. Xalqaro olimlar guruhi to'rt turdagi marjonlardan 27 ta namunani to'pladi va tahlil qildi. Natijada marjonlarning barcha qismlarida mikroplastiklar mavjudligi aniqlandi.

Tadqiqotchilar marjonlar atrofdagi suvlardan mikroplastiklarni o'ziga shimib olishini taxmin qilishmoqda. Yig'ilgan plastiklar ko'p yillar davomida nobud bo'lgan marjonlarning skeletlarida saqlanishi mumkin. Plastik chiqindilarning marjon va marjon riflarining salomatligiga qanday ta'sir qilishi hozircha noma'lum, olimlar bu boradagi tadqiqotni davom ettirish niyatida.

Manba: scitechdaily.com

15

BRITANIYALIK OLIMLAR FANGA NOMA'LUM MINGLAB O'SIMLIK TURLARI MAVJUD 33 TA HUDUDNI ANIQLADI

Buyuk Britaniyadagi Royal Botanic Gardens tomonidan olib borilgan yangi tadqiqotda dunyo bo'yicha 33 ta hudud aniqlandi va ularda minglab o'rganilmagan o'simlik turlari yashiringani, shundan aksariyati yo'qolib ketish xavfi ostida turgani qayd etildi.

New Phytologist jurnalida chop etilgan tadqiqotga ko'ra, bu hududlarda 100 000 dan ortiq o'rganilmagan turlar o'sishi, ularning ko'pchiligi yangi dorilar ishlab chiqarish va boshqa innovatsiyalarni yaratish uchun kalit bo'lishi mumkin. Biroq identifikatsiya jarayonining sekin sur'ati ularning mavjudligiga tahdid soladi — ko'plab turlar kashf etilmasdan avval yo'q bo'lib ketishi ehtimoldan xoli emas.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, bunday "qora dog'lar" ning aksariyati Osiyo (Sumatra oroli, Himolay tog'lari, Hindiston, Vyetnam), Afrika (Madagaskar, Janubiy Afrika) va Janubiy Amerikada (Kolumbiya, Peru, Braziliya) joylashgan. Bu mintaqalar biologik xilma-xillikning "issiq nuqtalari" bilan kesishadi — flora va faunaga boy bo'lib, ular yo'qolib ketish xavfiga ko'proq uchraydi.



Royal Botanic Gardens ilmiy direktori, professor Aleksandr Antonellining so'zlariga ko'ra, bioxilma-xillik haqida to'liq ma'lumotsiz tabiatni muhofaza qilish mumkin emas. O'simliklarning yo'q bo'lib ketishi oldini olish va kelajak avlodlar uchun ekotizimlarni saqlab qolish uchun ularni tezroq aniqlash talab etiladi.

Manba: ecoportal.su

16

YOMG'IR SUVIDAN FOYDALANISH SUVNI TEJASHGA YORDAM BERADI

Dunyo bo'ylab olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yigirma yil ichida aholi sonining ortishi turli sohalarida suvga bo'lgan talabning o'sishi va suv iste'molining oshishiga olib keldi. Ushbu o'zgarishlarga parallel ravishda iqlim o'zgarishi va qurg'oqchilik yillari tufayli mavjud suv manbalarining kamayishi xavfi mavjud.

Bu omillarning barchasi yangi muqobil resurslarni izlashga olib keladi, masalan, oqova suvlarni tozalash va yomg'ir suvlarini yig'ish. Yomg'ir suvini yig'ish va saqlash ham ekologik, ham iqtisodiy foyda keltiradi, ayniqsa, suv tanqisligiga duch kelgan hududlarda. To'g'ri saqlangan va tozalangan yomg'ir suvi bunday vaziyatlarda ishonchli suv manbayi bo'ladi.

Suv resurslarini iloji boricha samarali boshqarish uchun suv sifatini o'rganish, to'g'ri taqsimlash va suv hisobini nazorat qilish zarur.



Yomg'ir suvining sifatiga birinchi navbatda urbanizatsiya, turli ifloslantiruvchi moddalar va transchegaraviy ifloslanish ta'sir qiladi. Tabiiy yomg'ir suvi biroz kislotali va o'rtacha pH 5,7 ga teng bo'ladi. Atmosferada karbonat anhidrid, azot dioksidi va oltingugurt dioksidi (ikkalasi ham transport, sanoat jarayonlari va qazib olinadigan yoqilg'i ishlab chiqarish natijasida hosil bo'ladi) kabi yuqori eriydigan kislotali gazlar mavjud bo'lgan hududlarda yomg'ir suvi yanada kislotali bo'lishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, yig'ilgan namunalardagi umumiy kislotalilik 4 mg/l dan 12 mg/l gacha (o'rtacha 6 mg/l) bo'ladi. Bu yomg'ir suvidan turli xil maqsadlarda foydalanishga imkon beradi.

Yomg'ir suvidan sug'orish, ichimlik, baliqchilik, chorvachilik, maishiy xizmatlar, suzish va qurilish kabi turli xil maqsadlarda foydalanish imkoniyati bor. Filtrlangan va tozalangan yomg'ir suvini sovutish tizimlari, ishlab chiqarish jarayonlari, hojatxonalarni yuvish, kiyimlarni yuvish va tozalash kabi ichimlikka yaroqsiz maishiy xizmatlarga ishlatilishimiz mumkin. Bu ham suvni tejashga hissa qo'shadi. Shuningdek, yomg'ir suvini yig'ish chorva mollari suv bilan ta'minlashda quruq davrda qo'shimcha suv manbai bo'lib xizmat qiladi.

17

MUSIQA O'SIMLIKLARNING O'SISHINI TEZLASHTIRADI

Tadqiqot davomida mutaxassislar tovush to'lqinlarining *Trichoderma harzianum* zamburug'i o'sishi va ko'payishiga qanday ta'sir qilishini tahlil qilishdi. Bu jarayon o'simliklarni kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlardan himoya qilish, rivojlanishini rag'batlantirish va tuproqdagi ozuqa moddalarini ko'paytirishda muhim rol o'ynaydi.



Zamburug'li idishlar maxsus ovoz izolyatorlariga joylashtirildi, ularda har kuni 30 daqiqa davomida 8 kGs chastotali bir xil ohangdagi musiqa 80 desibel balandligida yangrab turdi.

Besh kunlik kuzatuv yakuni bo'yicha musiqa shovqini ostida bo'lgan zamburug'lar boshqa guruhdagi namunalarga nisbatan tezroq o'sishi va ko'proq o'simlik hujayralarini ko'proq hosil qilgani qayd etildi.

Natijada eksperiment so'nggida izolyatorlarda *Trichoderma harzianum* biomassasi 1,7 marta ko'p bo'ldi.

Olimlarning ta'kidlashicha, akustik to'lqinlar zamburug'larga yoki ularning membranalarining mikro-reseptorlariga ta'sir qiladigan elektr impulslariga aylanishi mumkin.

Manba: phys.org

"EKOLOGIYA XABARNOMASI" – IJTIMOIY-IQTISODIY, ILMIY-AMALIY JURNALI MAQOLALARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

"EKOLOGIYA XABARNOMASI" ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-amaliy jurnali tahririyati umumiy sharhdan va axborot shaklidagi ilmiy maqolalarni nashr uchun qabul qilmaydi. Tahririyatga taqdim etilayotgan qo'lyozma bo'yicha muallif ilmiy-tadqiqot ishi olib borayotgan tashkilot rahbariyatining yo'llanma xati, maqolani chop etish mumkinligi haqidagi ekspert xulosasi bo'lishi kerak.

Maqolaning yozilish tili, tuzilishi va tarkibi. Maqolalar o'zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi. Maqola keng omma uchun tushunarli tilda, grammatika qoidalariga amal qilgan holda yozilgan bo'lishi kerak. Maqola o'zida muayyan ilmiy-tadqiqotning tugal yechimlarini yoki uning bosqichlarini ifodalashi zarur. Sarlavha maqolaning mazmuni to'g'risida axborot bera olishi, imkon qadar qisqa bo'lishi va umumiy so'zlardan iborat bo'lib qolmasligi kerak. Odatda ilmiy maqolada quyidagilar bo'lishi kerak: universal o'nlik tasnifi (UDK), maqolaning sarlavhasi (uch tilda), annotatsiyasi (uch tilda), tayanch so'zlar (uch tilda), kirish, ko'rib chiqilayotgan muammoning hozirgi holatining tahlili va manbaalarga havolalar, masalaning qo'yilishi, yechish usuli, natijalar tahlili, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, muallif(lar) to'g'risida ma'lumot.

Maqolada odatda qabul qilingan atamalardan foydalanish, yangi atama kiritganda, albatta uni aniq asoslab berish kerak. Fizik kattaliklarning o'lchov birliklari Xalqaro o'lchamlar tizimi (SI)ga mos bo'lishi kerak. Maqolada muallif o'zining ishlariga havolalar soni 20 foizdan oshmasligi kerak.

Maqolaga qo'yiladigan texnik talablar. Maqolaning sarlavhasi, muallif (lar) va u(lar)ning lavozimi, ilmiy darajasi va ish joyi, annotatsiya, tayanch so'zlar (uch tilda) bir ustunda yoziladi. Maqolaning qolgan matnlari ikki ustunda yoziladi. Maqola MS Word 2003–2010 matn muharririda yozilishi va quyidagi ko'rsatkichlarga muvofiq qat'iy rasmiylashtirilishi kerak: - A4 formatda, matn sahifasining barcha chekkalarida 2 sm dan joy qoldiriladi, Times New Roman shriftida, maqola uchun shrift hajmi - 12 pt (jadvallar bundan mustasno), jadvallar uchun shrift kattaligi - 10 pt, qator oralig'i - 1,15 interval, matn sahifa kengligi bo'yicha tekislanadi, xat boshi - 1 sm («Tab» yoki «Probel» tugmalaridan foydalanmasdan).

Quyidagilarga ruxsat etilmaydi: sahifalarni raqamlash, matnda sahifani avtomatik bo'lishdan foydalanish, matnda avtomatik havolalardan foydalanish, avtomatik bo'g'in ko'chirish, kamdan-kam hollarda ishlatiladigan yoki qisqartma harflarni qo'llash.

Grafikli materiallar (rangli rasmlar, chizmalar, diagrammalar, fotosuratlar) o'zida tadqiqotning umumlashtirilgan materiallarini ifodalashi kerak. Grafikli materiallar yuqori sifatli bo'lishi kerak, agar zarurat tug'lsa, tahririyat ushbu materiallarni alohida faylda 300 dpi dan kam bo'lmagan o'lchamda jpg formatda taqdim etishni talab qilishi mumkin. Grafikli materialning nomi va tartib raqami pastki qismda keltirilishi zarur.

Formulalar va matematik belgilar MS Wordda o'rnatilgan formatli muharrirda yoki MathType muharriri yordamida bajarilishi kerak.

Annotatsiya (o'zbek, rus, ingliz tillarida) – annotatsiya hajmi 100-250 ta so'zdan iborat bo'lishi va maqolaning tuzilishini qisqacha ifodalovchi, axborot shaklida berilishi kerak.

Tayanch so'zlar (o'zbek, rus, ingliz tillarida) – 8-10 ta so'z va iboralardan iborat bo'lishi kerak.

Kirish. Kirish qismida tadqiqotlarning dolzarbligi va ob'yekti tavsiflanadi. Mavjud ilmiy maqolalarning tahlili keltiriladi. Chop etilgan adabiyot manbalarida qo'yilgan ilmiy izlanishlarning ko'rsatilgan holda muallifning ilmiy ishlari yo'nalishi ko'rsatiladi.

Muammoning yechimlari. Bunda tanlangan usul batafsil tavsiflanadi. Olib borilgan tadqiqotlar, ular ichidan tanlab olingan optimal natijalar keltiriladi.

Natijalar. Natijalarni asosan jadvallar, grafiklar va boshqa ko'rinishida keltirilishi mumkin. Ushbu bo'lim olingan natijalarni tahlil qilish, ularni sharhlash, boshqa mualliflarning natijalari bilan solishtirishni o'z ichiga oladi. Natijalar tadqiqotning ob'yekti parametrlari o'rtasidagi munosabatlar mualliflar tomonidan belgilangan maqolaning asosiy ilmiy natijalarini umumlashtiruvchi, ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Xulosa. Ilmiy tadqiqotlar doirasida olingan natijalar umumlashtiriladi, maqbul sharoitlari tanlanadi, ilmiy yangiligi keltiriladi va amaliyotda qo'llanishga tavsiyalar berilishi mumkin.

Adabiyotlar. Adabiyotlar ro'yxati 15 tadan kam bo'lmagan manbalardan iborat bo'lishi kerak, Adabiyotlar ro'yxatiga darsliklar, o'quv qo'llanmalarini kiritish mumkin emas. Barcha manbaalarga matnda havolalar berilishi zarur.

Muallif (lar) haqida ma'lumot: familiyasi, ismi, otasining ismi, lavozimi, ilmiy darajasi va ish joyi. Ushbu ma'lumotlar maqola taqdim etilgan o'zbek/rus tilida ham, ingliz tilida ham keltirilishi hamda maqolaning oxirida – adabiyotlar ro'yxatidan keyin joylashtirilishi kerak. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar ko'rib chiqishga qabul qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Maqolalarda keltirilgan ma'lumotlarning haqqoniyligiga muallif(lar) javobgardir.

Murojaat uchun telefonlar: +998 71 277-89-22; +998 71 277-69-83; +998 90 946-22-42



EKOLOGIYA

XABARNOMASI | SINCE 1995

Tahririyat manzili: Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti ("Green University") huzuridagi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti, 100043, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko'chasi, 7a-uy.



www.ecoilm.uz



[@ecoilm](https://t.me/@ecoilm)



eco_nii@exat.uz